D.R.INOGAMOVA

“GOSPITAL PEDAGOGIKA” PREDMETINI O‘QITISH ASOSLARI

MONOGRAFIYA

TOSHKENT 2025

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA’LIM VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

INOGAMOVA DILFUZA RAXMATULLAEVNA

“GOSPITAL PEDAGOGIKA” PREDMETINI O‘QITISH ASOSLARI

MONOGRAFIYA

“ILM-ZIYO-ZAKOVAT” nashriyoti
Toshkent – 2025

UDK: 519.398:47.31:88
KBK: 99.674.45
I 152

Dilfuza Raxmatullayevna Inogamova.
“Gospital pedagogika predmetini o‘qitish asoslari” [Matn]: Monografiya / Inogamova D.R. O’zb.MPU. – Toshkent: 2025. – 148 b.

Monografiyada “Gospital pedagogika” o‘quv fanining rivojlanish bosqichlari, mazmuni, talabalarga fanni samarali o‘qitilishini ta’minlovchi metodika, talabalarning bilim darajalarini oshirishda ta’lim texnologiyalaridan foydalanish yo‘llari, talabalarning mustaqil ishlarini tashkil qilish, bilimlarini tekshirish va mustahkamlashga yordam beruvchi o‘qitish tizimi hamda o‘quv predmetini o‘qitishga oid metodik tavsiyalar haqida fikr va mulohazalar yuritiladi.

Monografiya pedagogika oliy o‘quv yurtlarida “Gospital pedagogika” o’quv fanidan dars beruvchi professor-o‘qituvchilar, pedagogika sohasi mutaxassislari, ilmiy hodimlar hamda talabalar uchun mo‘ljallangan.

Ma’sul muxarrir:
P.f.d., professor Abdullayeva B.S.

Taqrizchilar:

Halikov P.X. – Toshkent davlat tibbiyot universitetining “Gistologiya va tibbiy biologiya” kafedrasi prof., b.f.d.

Nurkeldiyeva D.A. – Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universitetining prof., (PhD).

ISBN: 978-9910-9211-4-8

Monografiya O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti Kengashining 2025 yil 31 oktyabrdagi 3 -son bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan.

© Inogamova D.R. O’zb.MPU.
© “ILM-ZIYO-ZAKOVAT” nashriyoti. 2025.

MUNDARIJA:

Kirish. 6

“Gospital pedagogika”
predmetini o‘qitish holati va muammolari. 12

“Gospital pedagogika”ning rivojlanish
bosqichlari va adabiyotlar tahlili. 12

Talabalarning “Gospital pedagogika”
predmetini bilish faoliyatini tashkil etish. 26

“Gospital pedagogika” predmetini mazmuni
va tarkibiy tuzilmasini mohiyati. 35

“Gospital pedagogika” predmetini o‘qitishda
talabalarni bilish faoliyatini faollashtirish
va ta’lim samaradorligini oshirish. 44

O‘qitish jarayonida talabalarni
bilish faoliyatini faollashtirish. 44

“Gospital pedagogika” predmetini o‘qitishda
ta’lim texnologiyalaridan foydalanish mohiyati. 49

Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish
va bilimlarini nazorat qilish. 58

“Gospital pedagogika”
predmetini o‘qitishga oid metodik tavsiyalar. 62

“Gospital pedagogika” predmeti
o‘qituvchisini metodil faoliyati. 65

“Gospital pedagogika” predmetini
o‘qitishning umumiy masalalari. 73

“Gospital pedagogika” predmeti darslarini
tashkil qilishda interaktiv metodlarning ahamiyati. 79

O’qituvchilar uchun tavsiyalar…… 114
Ilovalar……... 118
Adabiyotlar ro‘yxati. 148

Og‘ir kasal bolalarning ta’limga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishda, “Gospital pedagogika” fani – ta’lim tizimining eng yuqori cho‘qqisini egallaydi.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasining ta’lim tizimidagi davlat siyosati prinsiplari umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi tamoyillari, inson huquqlari, ta’limning gumanistik mohiyati, ta’lim olishda teng huquqlilikdan foydalanishga hamda har kimning bilim olishga bo‘lgan konstitutsiyaviy huquqlarining kafolatlanishiga tayanadi.

Davlatimizning ustuvor siyosati yosh avlodni aqlan teran, jismonan sog‘lom, ma’naviy yetuk, har tomonlama rivojlangan komil inson qilib voyaga yetkazishdan iborat. Buyuk mutafakkirlarimizning asarlarini tahlil qilar ekanmiz, ularning asarlarida ham bolalar ta’lim tarbiyasi mazmunining boy metodologik asoslarini yaratganliklarining guvohi bo‘lamiz.

Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy kabi buyuk mutafak-kirlarimizning barchasi jamiyatni bir butun deb, barcha insonlarni teng xuquqli deb hisoblaganlar. Demak, sog‘lig‘i tufayli maxsus ta’lim olishga ehtiyoji bo‘lgan bolalarga ham jamiyatning teng huquqli a’zosi sifatida qaralib, ularga ta’lim-tarbiya berish hozirgi zamonga o‘xshab, o‘sha o‘tgan XI XII asrlardayoq buyuk Sharq mutafakkirlarining ham diqqat e’tiboridan chetda qolmagan.

Hozirgi kunda maktab yoshidagi yosh va o‘spirin bolalarning salomatligi yil sayin yomonlashib bormoqda. Yoshlar fiziologiyasi institutining ma’lumotlariga ko‘ra, o‘rta maktab o‘quvchilarining qariyib 60% foizi turli darajadagi sog‘lig‘i bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarga ega. Bolalarning ma’lum bir qismi tibbiyot muassasalari (kasalxona, statsionar va boshqalar) sharoitida uzoq muddat davomida davolanishni talab qiladigan jiddiy kasalliklarga chalinganlar.

Kasalxona qoshida tashkil qilingan va uzoq muddat davomida davolanishga muhtoj bo‘lgan kasal bolalarga ta’lim beradigan tashkilot – ***“kasalxona maktabi”***, og‘ir kasal bolalarning ta’limga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish va ularning o‘quv jarayonining o‘ziga xos xususiyatlarini tashkil qilish haqidagi bilimlarni mujasamlashtirgan o‘quv fani (predmeti) – ***“gospital pedagogika”*** deb ataladi.

“Gospital pedagogika” – pedagogikaning bir qismi bo‘lib, keng qamrovli tibbiy va ijtimoiy reabilitatsiya hamda fanlararo ilmiy hamkorlik doirasida, tibbiy va alohida ta’lim olishga muxtoj bo‘lgan uzoq muddat davomida davolanayotgan bolalarni rivojlantirish, o‘qitish va tarbiyalashni o‘rganadigan pedagogikaning bo‘limi va o‘z e’tiborini bolalarning alohida toifasiga – uzoq muddat davomida davolanadigan kasal bolalarga qaratadi.

Respublikamizdagi barcha tibbiyot muassasalari qoshida tashkil qilingan maktablar majmuasi – ***“kasalxona maktablari tizimi”*** deb ataladi. Bunday maktablar uzoq muddat davomida davolanishga muhtoj bo‘lgan bolalarga maktab o‘quv dasturidan tyengdoshlaridan orqada qolib ketmaslik imkoniyatini yaratadi. Kasalxona maktablari tizimi sifatiga qo‘yiladigan zamonaviy talablar o‘qituvchilar faoliyatiga yangicha yondoshuvlarni izlashni, kasalxona ta’limini tashkil qilish usullari va mazmuni bo‘yicha yangicha qarashlarni shakllantirishni talab qiladi. Kasalxona maktablari tizimini rivojlantirishning yangi innovatsion usullarini yaratish va ushbu innovatsion g‘oyalarni amaliyotga tadbiq etishda ijodiy fikrlaydigan, o‘z ishining professionali bo‘lgan malakali – ***“kasalxona o‘qituvchisi”***ni tayyorlash zamonamiz talabidir.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasining turli sohalarida keng ko‘lamli islohatlar amalga oshirilmoqda, bu islohatlarni kasalxona maktablari tizimida ham joriy qilib, ta’lim berish jarayonini hozirgi zamon talabalariga mos ravishda takomillashtirish masalalariga katta ahamiyat qaratilishini taqazo etmoqda, bu o‘z navbatida kasalxona o‘qituvchisining – ***“kasbiy kompetyensiyalari”***ga quyiladigan talablarning o‘zgarishiga ham ta’sir ko‘rsatmoqda.

“Kasalxona maktablari tizimi” murakkab ijtimoiy-pedagogik tizim bo‘lib, ushbu tizimdagi innovatsion o‘zgarishlarni amalga oshirishning barcha bosqichlarida hamda boshqariladigan tizimning o‘zida ham, bu o‘zgarishlar ta’lim jarayoni ishtirokchilarining barchasiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, tizimdagi innovatsion o‘zgarishlarda yeng katta va ma’suliyatli vazifa obyektiv ravishda – kasalxona o‘qituvchisining zimmasiga tushadi. Shunga ko‘ra, umuminsoniy va ma’naviy qadriyatlar asosida bo‘lajak kasalxona o‘qituvchilariga bilim va tarbiya berishning samarali shakllari va usullarini ta’lim tizimiga joriy qilish, ularning savodxonlik darajasini o‘stirish hamda mutaxassislarni maqsadli va sifatli tayyorlashdagi yangi yondashuvlarni shakllantirish muhim o‘rin egallaydi.

O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasidagi davlat siyosati va munosabatlarini xuquqiy tartibga solishning asosiy tamoyillaridan biri har bir insonning ta’lim olish borasidagi konstitutsiyaviy huquqlarini ta’minlashdan iborat[1, 2].

Darhaqiqat, har bir bola jinsi, irqi, millati, tili, kelib chiqishi, mulki, ijtimoiy mavqei, yashash joyi, dinga munosabati, e’tiqodi, jamoat birlashmalariga a’zoligidan, shuningdek, boshqa holatlardan qat’iy nazar, yuqori sifatli keng qamrovli ta’lim olish huquqiga ega. Bu yerda “boshqa holatlar” bolaning sog‘lig‘i holatini anglatadi.

Mamlakatimizda bolalarni ijtimoiy himoya qilish, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga hamda imkoniyati cheklangan shaxslarga ta’lim-tarbiya xizmatlarini qo‘rsatish tizimi yaxshi rivojlangan[3, 4]. Bu har bir jiddiy kasalligi bo‘lgan bolaga jamiyatda o‘z o‘rnini topishga qaratilgan istiqbolli urunishlarini amalga oshirishga yordam beradi.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev BMTning inson huquqlari Kengashining 46-sesiyasidagi nutqida alohida strategik masalalarga, jumladan, nogiron bolalar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyani ratifikatsiya qilishga alohida e’tibor qaratdi[5]. Dunyoda 1 milliardga yaqin nogirogligi bor insonlar yashayotganini hisobga olsak, bu juda zarur va muhim tashabbusdir.

Har bir davlatning rivojlanish darajasi mamlakatdagi alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga va imkoniyati cheklangan shaxslarga bo‘lgan munosabatiga qarab belgilanadi. Shu sababli O‘zbekistonda ham bunday bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini rivojlantirishga davlat tomonidan alohida ahamiyat qaratilmoqda[6].

Respublikamizda maxsus maktabgacha bo‘lgan ta’lim muassasalari hamda maktab-internatlari mavjud bo‘lib, ushbu ta’lim muassasalarida imkoniyati cheklangan bolalar uchun barcha kerakli sharoitlar yaratilgan.

Ammo ko‘plab sabablarga ko‘ra ayrim uzoq muddatli davolanishga muhtoj bo‘lgan bolalar, kasalligi tufayli darslarga qatnasha olmaydilar, lekin uylarida yakka tartibda ta’lim olish imkoniyatiga egalar, ayrimlari esa, jiddiy kasallikga chalinganlari, batamon ta’limdan chetda qolib ketmoqdalar.

Ayniqsa, onkologik “bolalar saratoni” kasalligining tashxisi qo‘yilgan yosh va o‘spirin bemor bolalarning yosh guruhlari uchun belgilangan saraton kasalligining har xil turlari, ular orasida ushbu kasallik turlari spektrining keng tarqalishiga sabab bo‘lmoqda. Bolalardagi onkologiya kasalliklari ko‘pincha genetik omil bo‘lib, tug‘ma va tashqi muhitning salbiy ta’siri bilan bog‘liq

bo‘ladi. Kasallikning rivojlanishiga ota-onalarning spirtli ichimliklarni, g‘iyohvand moddalarni istemol qilishi, chekishi, radiatsiya, shuningdek, ultrabinavsha quyosh nurlarining salbiy ta’siri ham sabab bo‘lmoqda.

Saraton — uzoq muddat davomida davolanishni talab qiladigan kasallik bo‘lib, kasallikning tashxisiga qarab davolanish muddati bir necha xaftadan ikki yoki undan ko‘proq yilgacha davom etishi mumkin.

Saratonning har xil turlari bilan turli yoshdagi bolalar kasallanadilar, ba’zi turlari – yosh bolalarda, boshqalari esa – o‘smirlarda ko‘proq uchraydi. Saratonning eng keng tarqalgan turi – leykemiya (30%), undan keyin – markaziy asab tizimining o‘smalari (miya shishi) 24% va – limfomalar taxminan 14% tashkil qiladi. Nisbatan tez-tez bolalarda yumshoq to‘qimalar – sarkomasi (taxminan 5,7%), neyroblastomalar (taxminan 5,5%) va – nevroblastomalar (Wilms o‘smasi, 4,2%) tashkil qiladi.

Bugungi kunda Rossiya Federatsiyasida, AQSHda, Yevropada, O‘zbekistonda va boshqa rivojlangan mamlakatlarda saraton kasalligi bilan kasallangan bolalarning 80% foizidan ortig‘i ushbu kasallikdan davo topmoqdalar. Bemorlarga to‘g‘ri tashxis qo‘yish va yangi davolash usullarini qo‘llash tufayli saraton tashxisi endi yosh bolalar va o‘smirlar uchun − o‘lim jazosi emas.

Bolalar onkogematologi, meditsina fanlari doktori professor, Rossiya Fanlar Akademiyasining muxbir-a’zosi, Dmitriy Rogachev nomidagi “Bolalar onkologiyasi, gematologiyasi va immunologiyasi” milliy tadqiqot Markazi bosh direktorining o‘rinbosari A.A.Maschanning ta’kidlashicha, “zamonaviy tibbiyot atigi 25-30 yoshda”, ammo bu qisqa vaqt ichida “shifokor ishining sifati keskin o‘zgardi”. Agar ilgari “leykemiya bilan og‘rigan bemor bolalarning 89-94% foizi vafot etgan” bo‘lsa, bugungi kunda tibbiyot “bolalar o‘smasi bilan kasallangan barcha bemorlarning 80% foizini davolashga qodir”. Davolash jarayonida bolaning salomatligi, farovonligi va oilasining tinchligi birinchi o‘ringa qo‘yilgan, chunki “asosiy qadriyat – bu insonning hayoti”.

Yurtimizda gematologiya va onkologiya kabi sohalarda olib borilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish, mazkur sohalarda aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmat sifati, ko‘lami va samaradorligini oshirish, bemorlar uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish va ularni zarur dori-darmon vositalari bilan uzluksiz ta’minlash maqsadida, shuningdek, klinikalarni zamonaviy diagnostika uskunalari labaratoriyalari va tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlash kabi talablar qonun bilan belgilandi hamda rasmiylashtirildi[7].

O‘zbekistonda kasalxona maktablari tizimini keng joriy e’tishga qaratilgan chora tadbirlar, halqaro va milliy ish tajribasini o‘rganish bo‘yicha davlat va nodavlat tashkilotlarining hamkorlik loyihalari amalga oshirilmoqda. Kasalxona ta’limi nogiron bolalarning o‘zlari yashaydigan hududdagi umumta’lim maktablarida umumiy o‘quv dasturi bilan birga maxsus dasturlar orqali ta’lim olishlarini va sinfdagi mashg‘ulotlarda tyengqurlari bilan barobar ishtirok etishlarini ta’minlaydi.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida kasalxona maktablari tizimini rivojlantirish doirasida 2022-yil 11-may kuni Toshkent shahridagi “Bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi markazida” birinchi “Mehrli Maktab” ochildi va unda uzoq muddat davomida davolanayotgan bolalarga umumiy o‘rta ta’lim berish yo‘lga qo‘yildi.

Gematologiya, onkologiya, klinik immunologiya, boshqa statsionar va uzoq muddatli ambulator davolanishda bo‘lgan bolalarga ta’lim va tarbiya berish tizimini, tibbiyot muassasalarida uzoq muddatli davolanishda bo‘lgan bolalarni uzluksiz ta’lim-tarbiya berish jarayoniga jalb qilish hamda “Gospital pedagogika” o‘quv fanini respublikada o‘qitilishini yo‘lga qo‘yish kabi vazifalar qonun bilan belgilandi[8].

Bundan asosiy maqsad tibbiyot muassasalari qoshidagi maktablar (jumladan “Mehrli Maktab”lar) uchun oliy ma’lumotga ega, har tomonlama

---

[1] O‘zbekiston Ryespublikasi Konstitutsiyasi. (Qonun bazasi (www.lex.uz), 2023-yil 1-may).

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 23 sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risidagi” O‘RQ 637-sonli Qonuni. (Qonunchilik palatasi 2020-yil 19-mayda qabul qilgan Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma’qullangan. Qonun hujjatlari bazasi, 24.09.2020-y., 03/20/637/1313-son).

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi 5712-sonli “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. (Qonun hujjatlari bazasi, (www.lex.uz), 2019-yil 29-aprel).

[4] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktyabrdagi 4860-sonli “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. (Qonun hujjatlari bazasi, 14.10.2020-y., 07/20/4860/1383-son).

[5] O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024-yil 21-fevraldagi 4068-IV/KQ-688-IV-sonli “Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya qoidalarini amalga oshirish bo‘yicha O‘zbekistonning beshinchi davriy ma’ruzasi yuzasidan BMTning bola huquqlari bo‘yicha qo‘mitasi tavsiyalarini amaliyotga tatbiq etish to‘g‘risida”gi qo‘shma Qarori.

[6] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF4947-sonli Farmoni. (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70-modda, 20-son, 354-modda, 23-son, 448-modda, 37-son, 982-modda).

[7] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-maydagi “Alohida gematologik va onkologik xizmat ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ5130-sonli Qarori. (Qonunchilik milliy bazasi, 28.05.2021y., 09/21/5130/0500-son; 29.07.2021y., 07/21/5199/0721-son, 10.09.2021-y., 06/21/6311/0861-son).

[8] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2023-yil 29-martdagi 134-sonli “Gematologiya, onkologiya, klinik immunologiya, boshqa statsionar va uzoq muddatli ambulator davolanishda bo‘lgan bolalarga ta’lim va tarbiya berish tizimini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. (Qonunchilik milliy bazasi, 30.03.2023-y., 09/23/134/0181-son).

yetuk o‘z ishining ustasi bo‘lgan kasalxona o‘qituvchisini tayyorlashni yo‘lga qo‘yish ko‘zda tutiladi. Kasalxona o‘qituvchisini tayyorlashda o‘qitiladigan “Gospital pedagogika” o‘quv fanining o‘quv dasturi, o‘quv qo‘llanmasi va darsligini oliy o‘quv yurtlarining ta’lim jarayoniga joriy qilish zamon talabidir.

2020/25 yillarda quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan:

- kasalxona ta’limiga tegishli normativ-xuquqiy hujjatlar bazasini takomillashtirish zarur;
- kasalxona maktablari uchun malakali pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish hamda kasalxona maktablari mavjud bo‘lgan tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustaxkamlash zarur;
- kasalxona ta’limiga zamonaviy axborot texnologiyalari va innovatsion loyixalarni joriy qilish hamda kasalliklarga chalingan bolalarning ta’lim olish xuquqlarini tushuntirish orqali aholi o‘rtasida ijobiy muhitni yaratish zarur;
- kasal bolalarga nisbatan tengdoshlarining kamsitish, salbiy munsabatda bo‘lishining oldini olishga karatilgan chora-tadbirlarni va o‘qitish uslublarini takomillashtirish zarur.

Respublikamizning pedagogika oliy o‘quv yurtlarida “Gospital pedagogika” o‘quv fani umum-kasbiy fanlar orasida alohida o‘rin egallagan bo‘lsada, hozir uning o‘qitilishi qoniqarli ahvolda emas. Chunki buning asosiy sabablaridan biri, bu yo‘nalishda faoliyat yuritayotgan oliy o‘quv yurtlarida o‘quv fanining o‘qitilishi yaqindagina yo‘lga qo‘yilayotganligi, o‘quv adabiyotlarining yetarli emasligi, shuningdek, O‘zbekistonda “Gospital pedagogika” fanini o‘qitish maktabi shakllanayotgan bo‘lsada, mazkur o‘quv fani bo‘yicha yaratilgan adabiyotlarda respublika olimlarining sohadagi faoliyati, ish tajribalari va erishgan yutuqlari haqidagi ma’lumotlarning kamligidir.

Uzluksiz ta’lim tizimini takomillashtirish, zamonaviy yangi avlod darsliklarini yaratish va yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash kabi ehtiyojni qondirish, hozirgi kunda faoliyat yuritayotgan pedagogika oliy o‘quv yurtlarida “kasalxona o‘qituvchilari”ni tayyorlash endigina yo‘lga qo‘yilayotgan vaqtda, “Gospital pedagogika” o‘quv fanini o‘qitish dolzarb pedagogik vazifa bo‘lib, uning ijobiy hal qilinishi bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlarida muhim ahamiyatga ega.

“GOSPITAL PEDAGOGIKA” PREDMETINI O‘QITISH HOLATI VA MUAMMOLARI.

“Gospital pedagogika”ning rivojlanish bosqichlari va adabiyotlar tahlili.

Avvalo shuni ta’kidlash joizki, kasalxona ta’limi (gospital pedagogika) uzoq tarixga va an’analarga ega. Uning kelib chiqishi tadqiqotchilarning (A.G.Rumyansyev, S.V.Sharikovlar)ning fikricha, 1802-yilda dunyoda birinchi bolalar kasalxonasining (Fransiya, Parij)da paydo bo‘lishi va XIX asrning ikkinchi yarmida pediatriyaning keyingi gullab-yashnashi bilan bog‘liq.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi olimlari kasalxona maktablarida bolalarga ta’lim berish masalalariga (gospital pedagogika)ga bag‘ishlangan tadqiqotlarni (Ye.Yu.Azbukina, M.M.Bezrukix, N.P.Vayzman, T.V.Volkova, G.M.Gryadunova, A.Yu.Jadayev, V.N.Kasatkin, M.G.Kiseleva, Ye.M.Mastyukova, N.K.Smirnov, M.Papadimitru, Yan.Xaverkate, S.V.Sharikov) va boshqalar olib borishgan va ilmiy ishlarida ko‘rishimiz mumkin; o‘quvchilar uchun individual yo‘nalishda mashg‘ulotlarni loyihalash va ularni amalga oshirishga bag‘ishlangan tadqiqotlarni (O.A.Isakova, V.V.Makeeva, L.A.Osadchaya, S.Yu.Trofi-mova) va boshqalar olib borganlar; kasalxona maktablarida ta’limni tashkil qilishning amaliy va tyexnologik jihatlarini hamda zamonaviy informatsion tyexnologiyalarni qo‘llash borasidagi izlanishlarni (N.N.Gomulina, R.V.Mayer, Ye.S.Polat, M.N.Smirnova, N.Ivanova, M.G.Asaturyan, V.P.Puzanov) va boshqalarning ilmiy ishlarida ko‘rishimiz mumkin.

N.P.Vayzman, V.N.Lebedev, Hopkins L., Green J., Henry J., Edwards B., Wong S., McCarthy A., Maor D., McConney A., Kennerk B. kabi xorijiy mamlakatlarning olimlari gospital pedagogika fanini o‘qitilishi, zamonaviy o‘qitish usullari va didaktik vositalardan foydalanish borasidagi muammolarni muhokama qilganlar.

Birinchi “kasalxona maktablari” “Duke Children’s Hospital” Irlandiya va Buyuk Britaniyada paydo bo‘lgan (masalan, 1959-yilda “Durham Public School system” davlat maktabi tizimi asosida tashkil etilgan bolalar kasalxona maktabi). Jahon amaliyotida 2000-yillarda yirik tibbiy tadqiqot markazlari qoshida “kasalxona maktablari” tashkil etilgan.

Koʻpincha kasalxona maktablari oddiy maktabdan farq qilmaydigan ta’lim dasturlarini amalga oshiradigan mahalliy davlat maktabi negizida tashkil etilgan. Bu uzoq muddatli kasal bolalarga akademik maqsadlarga erishish va davolanishdan keyin odatdagi ijtimoiy va pedagogik muhitga qaytish imkoniyatiga ega boʻlish imkonini berdi.

Avstraliyadagi kasalxona maktablarida, kasallikga chalingan oʻquvchilarni ijtimoiy-pedagogik yondashuvlari va ta’limni qoʻllab-quvvatlash modellari quyidagilardan iborat:
bolaga va uning individual ta’lim ehtiyojlariga e’tibor qaratish;

- moslashuvchan, uyda ham, maktabda ham, kasalxonada yoki boshqa jamoat joylarida ham tashkilot uchun qulay boʻlishi;
- shifokorlar, oʻqituvchilar, oʻquvchilar va ularning ota-onalari oʻrtasida aloqa kanallarini oʻrnatish;
- oʻquvchilarga tegishli akademik yordam koʻrsatish;
- oʻquvchilarga ijtimoiy va emotsional qoʻllab-quvvatlovchi imkoniyatlarni yaratish;
- ta’lim va sogʻliqni saqlash sohalari oʻrtasida bogʻlovchi boʻgʻin boʻlish, lekin oʻquvchilarning ota-onalari bunda ishtirok etmasliklari kerak, bu oʻqituvchi yoki ta’lim mutaxassisi tomonidan tashkil etiladi;
- oʻquvchilarning oʻqishga jalb etilishi va tengdoshlari bilan muloqot qilishi uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish.

Shuni ta’kidlash lozimki, boshqa kasalxona maktablari ham ushbu tamoyillarga amal qiladi. Masalan, Filadelfiya AQSHda (Children’s Hospital of Philadelphia) bolalar kasalxonasi qoshidagi maktabda bolalarda akademik koʻnikmalarni rivojlantirish va qoʻllab-quvvatlashga yordam berish maqsad qilingan. Tegishli ta’lim hizmatlarini koʻrsatish uchun maktabda Pensilvaniya shtatida sertifikatlangan oʻqituvchilar ta’lim beradilar, ular oʻquvchi bilan sinfda yoki uy oʻqituvchisi bilan bolaning uyida va bemorni parvarish qilish bilan shugʻullanadigan sogʻliqni saqlash mutaxassislari bilan birgalikda ishlaydilar.

Masalan, Finlyandiya tajribasi juda qiziqarli boʻlib, u yerda kasalxona maktablarida oʻqitishni “maxsus kasalxona oʻqituvchilari” — bemorlarning turli guruhlari uchun bir vaqtning oʻzida bir nechta rollarni oʻynaydigan oʻqituvchilar amalga oshiradilar, kasalxonada oʻqitish tabiati oddiy maktabdagi oʻqitishdan sifat jihatidan farq qiladi (tiklovchi, tuzatuvchi (davolovchi) xarakteriga ega). Bunday maktablarda oʻqituvchilar

o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish, ularning o‘qituvchilarga nisbatan bo‘lgan ishonchini oshirish uchun maxsus bilimga ega bo‘lishi kerak, hatto o‘rganish imkoniyati past va o‘quv jarayonining o‘zi murakkab bo‘lishiga qaramay.

Avstraliya Qirolligi bolalar kasalxonasi “Royal Children’s Hospital Education Institute” ta’lim instituti olimlari ham xuddi shunday xulosaga kelishdi. Melburndagi Qirollik bolalar kasalxonasida “Royal Children’s Hospital in Melbourne” (Melburn, Avstraliya) 750 nafar bemor va ularning ota-onalari / vasiylari o‘rtasida xatti-harakatlar va o‘qitish strategiyalarini baholash bo‘yicha tadqiqot o‘tkazdilar va maktab, kasal bola, uning ota-onasi / vasiylari va bolalar o‘rtasidagi eng muhim aloqa nuqtalarini tasvirlab berdilar.

Rossiya Federatsiyasida birinchi bolalar kasalxonasi 30 yildan so‘ng Sankt-Peterburgda paydo bo‘ldi (Nikolayev bolalar kasalxonasi, 1834 y). Bu davr davlat va jamiyatning bolalikning zaif toifalariga, “xavf ostidagi bolalar”ga e’tiborining kuchayishi bilan bir vaqtga to‘g‘ri keladi. XIX asrning ikkinchi yarmida, rahm-shafqat jamiyati ustoz-pedagog murabbiylari bolalar kasalxonalarida bolalar bilan ishlaganlar. XX asr boshlarida, uzoq muddatda davolanayotgan bolaga hamrohlik qilish haqida allaqachon yangi tushuncha shakllangan edi: “Pediatriyaning vazifasi bolaning sog‘lig‘i uning tug‘ma hayotiy salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishga imkon berishini ta’minlashdir”.

Rossiya Federatsiyasining “UchimZnayem” kasalxona maktablari loyihasining boshlig‘i, PhD, professor S.V.Sharikovning so‘zlariga ko‘ra, gospital pedagogikasi pediatriya va pedagogikaning – “kech bolasidir”: “Bolalar kasalxonalari paydo bo‘lishi bilanoq, uzoq muddatli davolanayotgan bolalarni o‘qitish amaliyoti paydo bo‘ldi”. Turli mamlakatlarda bunday amaliyotlar haqida ma’lumotlar mavjud, biroq ular homaki bo‘lib, asosan mahalliy xususiyatga ega bo‘lgan va hozirda ham bu mavzu fanda hali chuqur o‘rganilmagan. Tibbiy yordam bilan bir qatorda bolalarga pedagogik yordam ham ko‘rsatilgan misollarni ko‘rishimiz mumkin.

Shunday qilib, XIX-asrning ohirida “Ruhiy kasallar kasalxonasida” bemorlarning ahvoli shu darajada yomon ediki, viloyat rahbariyati taniqli psixiatr va jamoat arbobi V.I.Yakovenkoni kasalhona ishini tartibga solish uchun taklif qilishga qaror qildi. U 3 yil davomida ruhiy kasallar bo‘limini boshqargan (1890-yildan). Mutaxassislarning ta’kidlashicha, bu vaqt

mobaynida zarur shart-sharoitlarni yaratish, davolanishga insonparvarlik tamoyillari asosida yondashish, bemorlarni to‘g‘ri parvarish qilish, ovqatlanish, hayot faoliyatini tashkil etishda kasalxona namuna bo‘ldi.

V.I.Yakovenko bemorlarni saqlash va ularga g‘amxo‘rlik qilish uchun sharoitlarni yaxshilash uchun kasalxonadagi bemorlar, jumladan bolalar uchun “insonparvar pedagogika tamoyillari asosida” o‘quv jarayonini tashkil qilish uchun sharoit yaratdi. Ushbu masala bo‘yicha tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, matematika, rus tili va ijodiy faoliyat, jumladan musiqa bo‘yicha darslar tashkil etilgan. Undan tashqari bolalarga ma’naviy tomondan ham e’tibor qaratildi, ijodiy kechalar, uchrashuvlar o‘tkazildi, kitob va gazeta mutolaasi muhim o‘rin tutdi.

V.P.Кащуenko va A.A.Dubrovskiyning “terapevtik pedagogika”si ham alohida ta’kidlanishi kerak, uning tamoyillari kasallarga nisbatan insoniy munosabatlarga asoslangan. Uning ko‘pgina qoidalari Rossiyadagi kasalxona maktablari “UchimZnayem” loyihasining modeli uchun asos bo‘ldi.

Rossiya Federatsiyasining “defektologiya fanini asoschisi, korreksion (terapevtik) pedagogikani yaratgan” V.P.Кащenko 1908-yilda, Moskva shahrida xususiy tibbiyot o‘quv muassasasini “Noqulay bolalar uchun maktab-sanatoriya”sini yaratishi noyob meros hisoblanadi, bu aqliy nuqsonlari va xulq atvorida muammolari bo‘lgan bolalar uchun Rossiyadagi chor xukumatining birinchi muassasalaridan biridir.

1950-yillarda Sovet Ittifoqi davrida bolalarning sil kasalxonalarida o‘qitish tizimini shakllantirish, “sanatoriy-o‘rmon maktablari” deb ataladigan maktabi yaratildi. 1960-yillarning ohirida, bolalarning psixiatriya kasalxonalarida ham shunday maktablar tashkil qilindi. Keyingi o‘n yilliklarda bolalar kasalxonalarida va uyda uzoq muddatli davolanayotgan bolalarni o‘qitish amaliyoti kengaydi va ko‘paydi.

1981-yilda bolalar kasalxonalarida va uyda uzoq muddatli davolanayotgan bolalarni o‘qitish tartibini belgilab beruvchi birinchi idoralararo hujjat qabul qilindi (SSSR Ta’lim vazirligining maktubi, 1981-yil).

1992-yilda “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingandan so‘ng, (uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar uchun sanatoriy tipidagi) ta’lim muassasalari to‘g‘risidagi standart qoida paydo bo‘ldi. Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, 1990-yillarning ohiridan “Orel shahridagi kasalxonalarda uzoq muddatli davolanayotgan bolalarni o‘qitish uchun o‘rta umumta’lim maktabi”ning mavjud bo‘lganligi misol bo‘la oladi. O‘qituvchilar jamoasi

bolalarni nafaqat ularning yosh xususiyatlarini, balki mashg‘ulot paytidagi jismoniy, psixologik va hissiy holatini ham hisobga olgan holda, uyg‘unlashgan holda davolash ishlarini olib borishni o‘rgatdi.

Bu masala professional jamoada alohida mahalliy tadbirlarda muhokama qilinganiga qaramay, umuman olganda, bu mavzu hozirgacha “ta’lim tizimi soyasida” qolmoqda. Bu shuni anglatadiki, uzoq muddatli davolanish muddati tugaganidan keyin yashash joyidagi to‘liq ta’lim, ijtimoiylashuv va ta’lim muhitiga integratsiyalashuvini ta’minlash bo‘yicha ko‘plab masalalar hech qanday tarzda hal etilmagan; o‘qituvchi va uzoq muddatli davolanayotgan bolalar tegishli yordam va jamoatchilik e’tirofiga ega bo‘lmadilar, hech qanday uslubiy tavsiyalar yo‘q edi va hokazo.

1997-yili Moskva shahrida “Bolalar onkologiyasining ijtimoiy-psixologik muammolariga” bag‘ishlangan Birinchi xalqaro konferensiyasi bo‘lib o‘tdi. Mazkur konferensiya doirasida birinchi marta “Gospital pedagogika” masalalari, alohida davolanayotgan bolalar, o‘ta kasal bemorlar, shuningdek, ularning oila a’zolarini ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlash muammolarini hal etish yo‘llari muhokama qilindi.

Rossiya Federatsiyasining N.N.Bloxin nomidagi “Bolalar onkologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti” qoshida o‘tkazilgan saraton kassalliklariga bagishlangan ilmiy tadbirda, Rossiyada xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, markaz direktori, RAMN muxbir a’zosi, professor L.A.Durnovning so‘zlariga ko‘ra, “bolalarda saraton kasalligini davolashning zamonaviy samarali usullarini amaliyotga joriy etish, bolalik davridagi xavfli o‘simtalardan davolangan shaxslarning muhim toifasining paydo bo‘lishiga olib keldi”.

Natijada, ularni jamiyatga moslashtirish, avvalgi hayotiga qaytarish, normal ijtimoiylashuv, ya’ni “kasb-hunar egallashi va ishga joylashishi, psixologik, yuridik va boshqa ko‘plab muammolarni” hal qilish zarurati paydo bo‘ldi.

E.A.Babenkova kasal bolalar uchun maxsus tibbiy guruxlarda moslashtirilgan jismoniy tarbiyaning salomatlikni tyejaydigan tyexnologiyalarining nazariy va uslubiy asoslari konsyepsiyasi haqidagi fikr va mulohazalari alohida maqtovga sazovordir. Ehtimol, bu shunday konsyepsiyaning birinchi martta amaliyotga joriy etishning maqsad va vazifalari, tamoyillari, o‘ziga xos uslubiy va didaktik usullarini belgilashning tajribasidir.

Uzoq vaqt kasal bo‘lgan bolalar bilan ishlash uchun kadrlarni “malaka oshirish kurslarida yoki turli xil kasalliklarning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida ma’lumot olish mumkin bo‘lgan pedagogika universitetlarida” tayyorlash zarurati, nafaqat ushbu sohaga tegishli, balki inklyuzivlik masalalarida ham muammo bo‘lib, bugungi kungacha dolzarbligicha qolmoqda: “inklyuziv ta’limning rivojlanish sur’ati va dinamikasi pedagogik kadrlar tayyorlashdan oldinda bormoqda”.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida ham ushbu vazifalar belgilanib, ularga alohida ahamiyat berilgan.

1997-yilgi konferensiya masalalari doirasida Rossiya hamda rivojlangan davlatlarning ish tajribalari ham tilga olindi, ta’kidlanishicha, psixologik, tibbiy va pedagogik reabilitatsiya muammolari ko‘plab mamlakatlarda bir necha o‘n yillar davomida hal qilinmoqda.

Ma’lumki, kasal bolalarni tarbiyalash va reabilitatsiya qilishning ozmi-ko‘pmi rivojlangan tizimi mavjud. Ko‘plab mamlakatlarni birlashtirgan Evropaning gospital pedagogikasi tashkiloti (HOPE) uyushma sifatida 1919-yilda paydo bo‘lib, 1988-yilda esa YUNESKO va JSST xalqaro tashkilotlari homiyligida Yevropa gospital kasalxonalar o‘qituvchilarining birinchi Kongressi bo‘lib o‘tdi.

Xorijda alohida ta’limga muhtoj shaxslarni, shu jumladan, uzoq muddatli davolanayotgan onkogematologik kasalliklarga chalingan bolalarni o‘qitish amaliyoti xilma-xildir.

M.Papadimitru, Yan.Xaverkatye kabi mutaxassislar tomonidan ushbu masalalar o‘rganilmoqda. Bu masalani chuqurroq o‘rganar ekanmiz, biz bir qancha misollarni keltirishimiz mumkin.

Masalan, Buyuk Britaniyadagi “Treloar School&College”ning uzoq tarixiy nuqtayi nazardan yaratilganligi, zamonaviyroq bosqichi – “Child Life Services” (AQSH) va boshqalar.

Rossiyada gospital pedagogikasining rivojlanish tarixida yuqorida tavsiflangan voqealardan keyin yana bir nechta voqealar sodir bo‘ldi, ular nihoyat “UchimZnayem” loyihasi bilan bog‘liq yangi bosqichning paydo bo‘lishini oldindan belgilab berdi.

Avvalo, bu bolalar gematologiyasi va onkologiyasidagi yutuq bo‘lib, Rossiyada “yagona klinik tavsiyalar, tibbiy-iqtisodiy standartlar va

gematologik va onkologik kasalliklarga chalingan bolalarni davolashni optimallashtirish bo‘yicha hamkorlikdagi ko‘p markazli klinik tadqiqotlar”dan foydalanishning boshlanishi bilan bog‘liq, 75-95% bolalar omon qola boshlaganligi va bu olimlarning fikriga ko‘ra, “adekvat” ontogenetik rivojlanishni ta’minlaydigan va bolalarning hayot sifatini yaxshilaydigan reabilitatsiya va moslashish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish muammosini dolzarb qiladi.

2011-yilning iyun oyida Dmitriy Rogachev nomidagi “Bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va immunologiyasi” milliy tibbiy tadqiqot markazi ochildi va 2012-yildan Moskva shahridagi 109-sonli maktab o‘qituvchilari uzoq muddatli davolanayotgan o‘quvchilar bilan ishlay boshladilar.

2014 yilda esa, A.G.Rumyansevning gospital pedagogika masalalari, saraton va gematologik kasalliklarga chalingan bolalar va o‘smirlarning tibbiy va psixologik-ijtimoiy “reabilitatsiyasini tashkil etish konsepsiyasi” esa, alohida o‘rin va ahamiyatga ega.

Davomiylik, uzluksizlik, individuallashtirish va shaxsiylashtirish tamoyillariga asoslangan, kasal bolalarni reabilitatsiya qilishning bunday yaxlit zamonaviy tizimining modeli allaqachon dastlabki bosqichlarda o‘qituvchilarning ishtirokini nazarda tutadi.

Kasal bolani kasalxona maktabi o‘qituvchilari ishtirokida reabilitatsiya qilishning yaxlit zamonaviy tizimining modeli.

Tibbiy reabilitatsiya yordami		
I bosqich. Kasalxona bosqichi. O‘tkir davrda hayot uchun xavfli kasallik.	**II bosqich.** O‘smalarga qarshi davolashning intensiv bosqichining tugashi (remissiyaga erishish sharti bilan). Quvvatlovchi terapiya.	**III bosqich.** Kech reabilitatsiya davri, kasallikning asoratlari davri.
Erta tibbiy reabilitatsiyadan tashqari, davolovchi ovqatlanishni tashkil etish, jismoniy reabilitatsiya va ovqatlanishni qo‘llab-quvvatlashni ta’minlaydi: • nutq terapiyasi yordami, ayniqsa maktabgacha va boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalar uchun;	Tibbiy reabilitatsiyadan tashqari, shaxsiylashtirilgan jismoniy terapiyani ta’minlaydi, ozuqaviy yordam, davolovchi ovqatlanishni tashkil etish kerak.	Tibbiy reabilitatsiya dasturini davom ettirishga qo‘shimcha ravishda, xususan, sanatoriy-kurortda davolash texnologiyalari, jismoniy terapiya, moslashuvchan jismoniy tarbiya usullari va boshqalarni qo‘llash zarurati:

• psixologik yordam; • “gospital pedagogikasi”ni tashkil etish — uzoq muddatli davolanayotgan bolalarni, shu jumladan elektron ta’lim va masofaviy ta’lim texnologiyalari imkoniyatlaridan, qo‘shimcha ta’lim resurslaridan (badiiy pedagogika va boshqalar) foydalangan holda o‘qitish uchun repetitor yordami.		•psixologik va ijtimoiy reabilitatsiya, akademik reabilitatsiya, “maktabdagi muvaffaqiyatsizlikni” tuzatish zaruriyatini hisobga olgan holda; •yashash joyidagi maktabga integratsiyaga ko‘maklashish.
O‘zgaruvchan vaziyatga moslashish bosqichida, bolaning hayotiga tahdid, yaqin va uzoq kelajakka nisbatan noaniqlik, butun oila uchun haddan tashqari stress sharoitida, bolaning ijtimoiy va hissiy jihatdan mahrum bo‘lish xavfi, tanaffus, ta’lim jarayoni, ota-onalar va umuman oilaning ijtimoiy moslashuvi.	O‘zgargan hayotiy vaziyatga moslashish bosqichida, funksional imkoniyatlarning o‘zgarishi, mumkin bo‘lgan sharoitlarda tibbiy kasalxonada kasalxona maktabining bola-ota-ona munosabatlari va o‘quvchi-repetitor munosabatlarining maxsus nutqini shakllantirishni hisobga olgan holda, asoratlar.	Maktabga moslashish bosqichida, o‘zgargan sharoitlarda normal ijtimoiylashuv, hayotiy maqsadlarning paydo bo‘lishi, kasbiy o‘zini o‘zi belgilash (o‘smirlarda) va boshqalar.

2014-yilda Rossiya Federatsiyasida “UchimZnayem” kasalxona maktablari loyihasini yaratishga bag‘ishlangan barcha muammolarni 2015-yilda uning muallifi va direktori professor S.V.Sharikov tomonidan batafsil tavsiflandi va amalga oshirildi. Ushbu sohadagi aniq me’yoriy asoslar, “G‘amxo‘rlik maktabi” konsepsiyasi doirasidagi gospital pedagogikasi yondashuvlari va tibbiyot tashkilotlari kasalxonalarida bolalarni o‘qitishning mavjud modellari o‘rtasidagi farqni ochib berdi. Bolaning tibbiy kasalxonada bo‘lishining har bir bosqichida maktab o‘qituvchilari faoliyatining asosiy (kasal bolani reabilitatsiya qilishning yaxlit zamonaviy tizimini tushunishga muvofiq) vazifalari ham belgilanadi.

Har yili har qanday rivojlanish nuqsonlari, jumladan, jiddiy sog‘liq muammolari bo‘lgan bolalar soni tobora ko‘payib bormoqda. Har yili 250 mingga yaqin bola (tug‘ilgandan 18 yoshgacha) bolalar shifoxonalarida (21 kundan ortiq) uzoq muddatli statsionar davolanishdan o‘tadi.

S.R.Varfolomeyevaning ta’kidlashicha: onkologik va gematologik kasalliklarga chalingan bolalar bilan ishlaydigan o‘qituvchilar va

shifokorlarning eng muhim vazifasi — bolalarning sifatli ta’lim olish, bolaning va uning ota-onasining to‘liq huquqli ta’lim muhitiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri kirishlari, uzoq vaqt qolishga majbur bo‘lgan sharoitda ularning konstitutsiyaviy huquqini ta’minlashdan iboratdir. Hozirgi sharoitlari tufayli — kasalxona maktablari tibbiyot muassalarida (kasalxona, statsionar va boshqalarda) ta’lim muhitini shakllantirishning asosiy tushunchasiga aylanmoqda.

2015-yilda tibbiyot muassalarida uzoq muddat davolanayotgan bolalarni o‘qitish muammolarini amaliy hal etish bo‘yicha “Idoralararo ishchi guruhi” tuzildi. Mutaxassislar birinchi marta moliyalashtirish, litsenziyalash va boshqa me’yoriy-huquqiy jihatlar bilan bog‘liq asosiy masalalardan tashqari, kompleksdagi barcha masalalarga e’tibor qaratmoqdalar:

- tibbiyot muassalarida (kasalxona, statsionar va boshqalarda) maktabgacha ta’lim;
- psixologik-pedagogik yordam xizmatlarini rivojlantirish;
- umr ko‘rish davomiyligini cheklovchi progressiv kasalliklarga chalingan bolalarni o‘qitish;
- qo‘shimcha ta’limni rivojlantirish;
- tibbiyot muassalarida yakuniy davlat attestatsiyasini o‘tkazish uchun sharoit yaratish;
- yuqori bilimga intiluvchan va iqtidorli o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash, uzoq muddatli davolanayotgan bolalar o‘rtasida olimpiada va raqobat harakatini rivojlantirish;
- kadrlar tayyorlash va boshqalar.

2019-yilda Rossiya Federatsiyasida “Uzoq muddat davolanayotgan va sog‘lig‘i sababli ta’lim muassasalariga bora olmaydigan bolalarning ta’limini tashkil etish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar” nomli yagona idoralararo hujjat paydo bo‘ldi. Unda “UchimZnayem” loyihasi bo‘yicha, tibbiyot mussasalarida o‘quv muhiti va o‘quv jarayonini tashkil etish bo‘yicha asosiy talab va tavsiyalar berilgan. Ushbu sohada qo‘llaniladigan konseptual apparat birlashtirilgan bo‘lib, o‘quv jarayonini tashkil etuvchi mutaxassislar bilishi kerak bo‘lgan, “kasalxona maktabi” tushunchasiga aniq tushuncha berilgan. “Uzoq muddatli davolanish va uzoq muddatli davolanishga muhtoj o‘quvchilar” deganda uzoq muddatli kasal bolaning holatini aniqlashga aniqlik kiritilmoqda. Ushbu spetsifikatsiya juda muhim, chunki “maxsus ta’limga muhtoj bolalar” haqida gapirganda, biz quyidagilarni nazarda tutamiz:

1) nogiron bolalar;

2) sog‘lig‘i tufayli imkoniyati cheklangan bolalar;

3) uzoq muddatli davolanishga muhtoj o‘quvchilar.

Huquq va imkoniyatlarni tartibga soluvchi, alohida shart-sharoitlar yaratish talablarini belgilovchi, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlarini belgilovchi tegishli me’yoriy-huquqiy hujjatlarda mustahkamlangan uchta guruh, uchta maxsus maqom, ularning har biri o‘z ta’rifiga ega.

Biroq, haqiqiy amaliyotda guruhlarning har birining me’yoriy-huquqiy himoyasining holati har xil va bir qator ekspertlarning fikriga ko‘ra, “uzoq muddatli davolanishga muhtoj o‘quvchilar” guruhi hozirda eng kam me’yoriy-huquqiy jihatdan himoyalangan.

Hozirgi vaqtda kasalxona ta’limiga tyegishli muammolarning dolzarbligi tobora ortib bormoqda, bu butun dunyodagi soha mutaxassislarining e’tiboridan chetda qolmaganligidan dalolat beradi. Kasalxona ta’limiga hamda kasal bolalarni ijtimoiy himoyasiga ta’luqli bo‘lgan masalalar O‘zbekiston, Rossiya Federatsiyasi va boshqa davlatlarning mutaxassislari ishtirokidagi yirik anjuman va forumlarda muhokama qilina boshlandi.

2019 yili Toshkent shahrida “O‘zbekistonda bola va oilalarning farovonligini ta’minlashda ijtimoiy ishni mustahkamlash” mavzusidagi Xalqaro forum bo‘lib o‘tdi. Forumda O‘zbekiston va xorijiy davlatlarda nuqsoni bor bolalarni ijtimoiy himoyalash sohasida olib borilayotgan tadqiqotlarning natijalari, psixologiya, pedagogika, sotsiologiya, huquq, ijtimoiy ish, tibbiyot sohalarida olib borilgan ilmiy-amaliy ishlarning natijalari va nazariy yutuqlari haqidagi masalalar ko‘rildi.

2022 yilning 1-3 noyabr kunlari Moskva shahrida bo‘lib o‘tgan Halqaro ishtirokdagi 4 - Butun Rossiya Federatsiyasining “Kasalxona pedagogikasi. Tibbiy muassasalarda va uyda uzoq muddatli davolanayotgan bolalarni o‘qitishning ilg‘or tajribalari” mavzusidagi kasal bolalarni o‘qitish va tarbiyalashning nazariy va amaliy masalalariga bag‘ishlangan ilmiy-amaliy konferensiya bo‘lib o‘tdi.

Konferensiyada Belorusiyaning Minsk shahridagi ta’limni rivojlantirish instituti professor-o‘qituvchilari malakasini oshirish fakultyeti dekani Зык A.N. o‘z nutqida: tarmoq resurslaridan foydalangan holda uzoq muddatli davolanayotgan bolalarni o‘qitish, ular uchun maxsus ta’lim muhitini yaratish

muammosining dolzarbligi, asosiy maqsad, ota-onalarga farzandlarining majburiy izolyatsiya sharoitida zamonaviy ta’lim olishlarini amalga oshirishda, ta’lim dasturini o‘zlashtirish sifatini oshirish, o‘quvchilarni ijtimoiy moslashtirishda qulay, sifatli, ko‘p tarmoqli yordam ko‘rsatish qirralarini ochib berdi.

Respublikamizning Toshkent shahridagi “Mehrli Maktab” davlat ta’lim muassasasi direktori Alimova N.I. ilmiy amaliy konferensiyadagi nutqida: uzoq muddatli davolanishdagi maktab o‘quvchilari uchun “Mehrli Maktab” kasalxonasida ta’lim muhitini yaratishning pedagogik tamoyillari haqida gapirib, 2022-yilda “Bolalar gematologiyasi, onkologyasi va klinik immunologiya markazi” faoliyati bilan tanishish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev kelganligi va o‘z nutqida: “Sizlarning xuzuringizga kelishimdan maqsad – kuch-qudrat, umidlaringizni oshirish. Bu barchamiz uchun sinov. Biz mamlakat sifatida bu kasallikni yengish uchun bor aql va salohiyatimizni ishga solishimiz kerak. Biz ota-onalarga yordam berishimiz, bolalarni qo‘llab-quvvatlashimiz, ularning tiklanishi uchun hamma narsani qilishimiz kerak”.

Germaniya davlatining Berlin shahridagi “WFS Bildungs GUG” ta’lim kompaniyasi rahbari, Rossiya Munitsipal akademiyasi prezidenti maslahatchisi, “ERASMUS+” dasturi doirasidagi loyihalar kuratori Tomas Xenchel “Uzoq muddatli davolanayotgan bolalarni ijtimoiy-pedagogik qo‘llab-quvvatlash. Germaniya tajribasi” nomli ma’ruzasida: davlatning majburiyatlari inklyuziv ta’lim xuquqining barcha asosiy jihatlarini mavjudligi, qulayligi, maqbulligi, moslanuvchanligi, hurmat va himoya qilish hamda bajarishni o‘z zimmasiga oladi. Nemis klinikalaridagi kasalxona maktablari tizimi surunkali onkologik, ruxiy, ortopedik kasalliklarga chalingan bolalarga, shuningdek, og‘ir operatsiyalarni boshidan o‘tkazgan bolalarga qaratilgan. Germaniyadagi kasalxona maktablarining vazifasi kasal bolaga faqat ta’lim berish emas, balki bola qaytib boradigan oddiy maktablarning ma’muriyatiga maslaxat berishdir. Kasaxona o‘qituvchilari o‘quv jarayonini bolaning hozirgi holati va imkoniyatlarini hisobga olgan holda quradilar.

Ushbu sohadagi tadqiqotchilar ta’kidlashicha, bugungi kunda “uzoq muddatli davolanishga muhtoj bo‘lgan bolalarga davlat va jamiyatning g‘amxo‘rligini rivojlantirish” tabiiy jarayon bo‘lib, u boshqa narsalar qatorida stereotiplar va stigmatizatsiyadan uzoqlashishi kerak. Bunga saraton

kasalligiga chalingan bolaning boshqalar uchun xavfli bo‘lishi mumkinligi, infeksiyani yuqtirish ehtimoli borligi haqidagi taxminlar kiradi.

2024 yilning 5-7-iyun kunlari Toshkent shahrida “Bolalar onkologiyasi va gematologiya”sining birinchi Xalqaro kongresi bo‘lib o‘tdi. “Xarakat uchun dalillar” shiori ostida 300 ga yaqin ishtirokchilarni birlashtirdi. Forumda so‘zga chiqqan davlatimizning birinchi xonimi Ziroat Mirziyoyeva: “Biz bu yerga yagona maqsad – farzandlarimiz aziyat chekayotgan eng og‘ir xastaliklardan birini yengish uchun yig‘ilganmiz. Har bir bola yashash xuquqiga ega, biz bolalarning kelajakdi sog‘lom bo‘lib yashashi uchun barcha imkoniyatlardan foydalanishimiz kerak” dedi.

Kasalxona maktabi o‘qituvchilari o‘z faoliyatlarining birinchi kunlaridanoq og‘ir kasalliklarga chalingan bolalar bilan tushuntirish ishlari olib borganda va tarbiyaviy tadbirlar o‘tkazganda, shuningdek, bolalarning o‘quv jarayonini tashkillashtirish ishlaridagi vazifalarini muhim ekanligini sitqi dildan bilishlari va ularni professional darajada bajarishlari kerak.

Bugungi kunda kasalxona maktabi o‘qituvchisining ilg‘or ish tajribasiga bag‘ishlangan, turli fanlardan, ta’lim bosqichlari va yo‘nalishlari bo‘yicha aniq ko‘rsatmalarni o‘z ichiga olgan uslubiy qo‘llanmalar va to‘plamlar nashr etilmoqda.

Bugungi kunda kasalxona maktablari loyihasini rivojlantirishning eng muhim vektori umumiy pedagogika tizimidagi maxsus bo‘limi — kasalxona ta’limining o‘quv predmeti – “Gospital pedagogika”ni yaratishdir. Uzoq muddatli davolanayotgan bolalarni o‘qitishning joriy amaliyotini tahlil qilish jiddiy ilmiy tadqiqotlar olib borish, kasalxoxona ta’limining (pedagogikasining) rivojlanishini bashorat qilish uchun uslubiy asoslarni ishlab chiqish uchun ilmiy kuchlarni jalb qilish va ushbu sohada nazariya va amaliyotni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini asoslash uchun muhit yaratadi.

Mamlakatning ilmiy tashkilotlari va yetakchi universitetlari bilan hamkorlikdagi loyihalar bugungi kunda ushbu yo‘nalishdagi asosiy tadqiqot mavzularini ishlab chiqmoqda, masalan:

- uzoq muddatli davolanayotgan bolalarni o‘qitish va tarbiyalash nazariyasi va usullari (tarbiya sohalari va darajalari bo‘yicha);
- kasalxona maktabining o‘quv faoliyati;
- kasalxona maktabida maktabgacha ta’lim;

- uzoq muddatli davolanayotgan bolalarning farovonligi uchun kasalxona maktabining ta’lim muhitini loyihalash;
- kasalxona maktabi uchun kadrlar, shu jumladan ilmiy kadrlar tayyorlash;
- uzoq muddatli davolanayotgan o‘quvchilarning kasbiy faoliyatga qiziqishini oshirish;
- uzoq muddatli davolanayotgan bolalar bilan korreksiya va rivojlanish sinflarini tashkillashtirish;
- progressiv kasalliklarga chalingan va hayot prognozi noaniq bo‘lgan bolalarni o‘qitish.

Oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda O‘zbekistonda birinchi marta doktorantura bo‘yicha ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash doirasida ilmiy-tadqiqot dasturlari ochildi, maxsus magistratura dasturlari, kasbiy qayta tayyorlash dasturlari, kompleks ilmiy-tadqiqot loyihalari amalga oshirilmoqda. Oliy ta’lim muassasalarining ixtisoslashtirilgan ta’lim yo‘nalishlari talabalari uchun ishlab chiqarish amaliyotlari tashkil etilmoqda.

Bolalarni tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya qilishda fanlararo yondashuvni amalga oshiradigan fanlararo jamoa a’zolari o‘qituvchilarining faoliyatiga tyegishli funksiyalarini kayta ko‘rib chiqish katta ahamiyatga ega. Uzoq muddatli kasal bola uchun maktab dasturi kompleks reabilitatsiya dasturining bir qismi bo‘lib, shu munosabat bilan o‘qituvchilar va tibbiyot xodimlari o‘rtasidagi professional aloqa, tegishli sohalarda minimal talab qilinadigan bilimlarning mavjudligi va shu kabi masalalarga e’tibor qaratiladi, tegishli komponentlar bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash dasturlariga kiritilgan.

Alohida mavzu — bu xodimlarni tanlash, malaka tavsiflari va vakolatlari, shaxsiy fazilatlari va kasalxona o‘qituvchisining qadriyatlariga qo‘yiladigan talablarni aniqlash, doimiy kasbiy rivojlanishning ichki tizimini yaratish va uslubiy yordam berish. Kasalxona o‘qituvchisining vakolatlari, missiyasi va qadriyatlari, maxsus vazifalari va ish sharoitlari ham tadqiqot mavzusiga aylanadi. Bu boradagi eng dolzarb uslubiy va tadqiqot mavzularidan biri uzoq muddatli davolanayotgan bolalar bilan ishlashda individuallashtirish va shaxsiylashtirishni farqlashdir. Individuallashtirish va shaxsiylashtirish hozirgi bosqichda ta’limni rivojlantirish vektori sifatida kasalxona ta’limi (pedagogikasi) tajribasini inklyuziv yondashuvni amalga oshiradigan umumiy ta’lim tashkilotlari o‘qituvchilari uchun talab qilinadi.

Turli xil ta’lim qobiliyatiga ega bo‘lgan bolalar bilan ishlash qobiliyati zamonaviy o‘qituvchining majburiy kompetensiyasidir, ammo haqiqiy amaliyotda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bola bilan ishlash muqarrar ravishda muammolarga olib keladi. Ular o‘qituvchining muvaffaqiyatga va o‘quv muvaffaqiyatiga umumiy munosabatdan uzoqlashishga tayyor emasligi, kimga va qanday yordam so‘rashni bilmasligi yoki bunday imkoniyatga ega bo‘lmasligi, buzilganligini boshdan kechirishi mumkin, qabul qilish va ishtirok etish o‘rniga rahm-shafqat va noloyiq maqtovga bolaga munosabat, alohida yondashuvni talab qiladigan bolalar bilan ishlash uchun mos shakl va usullarni bilmaslik.

Bu alohida ta’limga muhtoj bolalar bilan ishlashda shaxsiy munosabatni qabul qilish va o‘zgartirish bosqichidan yuqori professionallik va pedagogik mahoratga qadar qiyin yo‘l bo‘lib, ko‘plab muammolar hali ham hal qilinishi kerak.

Yevropa davlatlaridagi kasalxona makablari.

Jahon hamjamiyatida kasalxona o‘qituvchilarini qo‘llab-quvvatlash va ilg‘or tajribalarni muhokama qilish uchun 1988-yilda Lyublyana (Sloveniya) shahrida bo‘lib o‘tgan kasalxona o‘qituvchilarining birinchi kongressidan so‘ng tuzilgan Evropa kasalxona o‘qituvchilari uyushmasi mavjud.

Turli mamlakatlarda kasalxona maktablarini tashkil etish turlicha amalga oshiriladi. Bu uzoq muddatli davolanishga muhtoj bo‘lgan bolaning huquqlarini qonun bilan himoya qilishda ham, uy va kasalxona maktablari o‘rtasida majburiyatlarni taqsimlashda — natijalarni baholashda, uy vazifalarini bajarishda va bilimlarni nazorat qilishda ifodalanadi.

Ingliz tilida so‘zlashadigan mamlakatlarda “Home and hospital education” atamasi kasal bolalarning umumiy ta’limini kasalxonalarda ham, uyda ham qamrab oladi. Yevropa davlatlarida uzoq muddat davomida kasal bo‘lgan bolalarning ta’limini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar:

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi;
2. Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya;
3. Ta’lim sohasida kamsitishlarga qarshi konvensiya;
4. BMTning nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi deklaratsiyasi;
5. Nogironlar uchun Jahon Harakat Dasturi;
6. “Alohida ehtiyojli shaxslar ta’limi sohasidagi tamoyillar, siyosat va amaliyotlar to‘g‘risida”gi deklaratsiya.

Rossiya federasiyasidagi “Gospital pedagogika”ning hususiyatlari.

“Uzoq muddatli davolanishga muhtoj o‘quvchi” tushunchasi uzoq muddat davolanayotgan va sog‘lig‘i sababli ta’lim muassasalariga bora olmaydigan bolalardir. Bunday bolalarga: asosiy va qo‘shimcha umumiy ta’lim dasturlarini o‘zlashtirgan, tibbiy tashkilotning xulosasiga ko‘ra, ro‘yxatga muvofiq tibbiy muassasalarda yoki uyda 21 kundan ortiq davolanayotgan yoki tibbiy reabilitatsiyadan o‘tayotgan bola (uyda asosiy umumiy ta’lim dasturlarida o‘qish huquqini beradigan kasalliklar yoki boshqa qonuniy sabablarga ko‘ra allaqachon uyda ta’lim olgan bola).

Rossiya Federatsiyasining ta’lim sohasidagi qonunchiligiga ko‘ra, har bir bolaga tashqi sharoitlardan qat’iy nazar, umumiy foydalanish imkoniyati va federal davlat ta’lim standartlariga muvofiq umumiy ta’limni bepul olish kafolatlanadi. Bepul umumiy ta’lim olish imkoniyati va undan foydalanish imkoniyati, shu jumladan sog‘lig‘i sababli ta’lim muassasalariga bora olmaydigan va uyda yoki tibbiy muassasada uzoq muddatli davolanayotgan bolalar uchun kafolatlanadi.

Kasalxona pedagogikasi mavzusi 2014-yildan Moskva shahrida Dmitriy Rogachev nomidagi “Bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va immunologiyasi milliy tibbiy tadqiqot markazi” hududida birinchi martta kasalxona maktabi tashkil qilinganidan keyin alohida o‘z e’tiborini tortdi.

“Uchim Znayem” federal ta’lim loyihasi, ushbu loyiha asoschisi professor S.V.Sharikov boshchiligida Rossiya bo‘ylab kasalxona maktablari tarmog‘ini birlashtirgan kasalxonalar (gospital pedagogikasi)ning flagmani bo‘ldi.

Talabalarning“Gospital pedagogika” predmetini bilish faoliyatini tashkil etish.

Pedagogika fani rivojining barcha bosqichlarida tadqiqotchilarning e’tibori o‘qitishning maqsadi, didaktik tamoyillari tasnifi, o‘qitish metodlari, ularning ta’lim shakllariga mos kelishi, ta’lim oluvchilarni faollashtirish, mustaqil ishlarni individuallashtirish, ta’lim oluvchilarning bilimlarini nazorat qilish va baholash borasidagi mavjud muammolarni hal qilishga qaratilgan. Biroq, shuni ham ta’kidlash kerakki, endigina yo‘lga qo‘yilayotgan “Gospital pedagogika” o‘quv predmeti bo‘yicha tashkil qilinadigan ta’lim jarayonida, talabalarning bilish faoliyatini mustaqil boshqarish va o‘z-o‘zini nazorat qilish

asosida faollashtirish, o‘qitish samaradorligini oshiruvchi omil bo‘lish bilan birga, uning sifatini yaxshilashga imkoniyat yaratiladi.

Mazkur fikr jahonning yetuk faylasuf va pedagoglari, jumladan, Platon, Aristotel, Ya.A.Komenskiy, I.G.Pestalossi, A.Disterverg, K.D.Ushinskiy va boshqalar tomonidan e’tirof etilgan.

Kasbiy tayyorgarlik jarayonida nazariy bilimlarning samarali o‘zlashtirilishi, shaxsning aqliy imkoniyatlari, xohish-istagi, qiziqishi, intilishi hamda o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchiga bevosita bog‘liqdir. Ta’lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarning qo‘llanilishi, ta’lim oluvchilarga bilimlarni mustaqil va faol o‘zlashtirishga imkon beradi. Zero, axborotlar oqimi kuchli bo‘lgan mavjud sharoitda, barcha turdagi ta’lim muassasalarida umumiy, maxsus, kasbiy va oliy ta’lim tizimida bilimlarning puxta o‘zlashtirilishida, shaxsning mustaqil va faol ta’lim olishi yetakchi o‘rin tutmoqda.

Ayni vaqtda davlat ta’lim standartlari talabiga ko‘ra pedagogika oliy o‘quv yurtlarida endigina o‘qitilishi yo‘lga quyilayotgan “Gospital pedagogika” o‘quv predmeti o‘qituvchilari oldiga ham takomillashtirilgan didaktik tizimga ega bo‘lish, uzluksiz ravishda talabalarning bilish va ijodiy qobiliyatlarini tashxis qilish, ularning aqliy imkoniyatlarini rivojlantirish, ta’limiy faolliklarini oshirish, bilimlarni mustaqil o‘zlashtirish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlarini ta’minlash, shuningdek, ta’lim jarayonida ularning ma’naviy-ahloqiy sifatlari hamda kasbiy fazilatlarga ega bo‘lishlariga erishishga bo‘lgan ehtiyoj, aniq maqsadga yo‘naltirilgan va kutilgan natijalarga erishishni kafolatlovchi tizimni shakllantirish vazifasini qo‘ymoqda.

Ma’lumki, talabalarning nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni puxta egallashlarida ta’lim jarayonini sifatli tashkil etish muhim o‘rin tutadi.

Pedagogik, psixologik va metodik yo‘nalishlarda ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan va ularning samarali natijalari, ta’lim jarayonini takomillashtirishga oid nazariy qarashlarning boyitilishi hamda pedagogik tushunchalar sonining kengayishiga imkon yaratadi.


O‘qitish metodikasida “o‘qitish” va “o‘qitish jarayoni” yoki “pedagogik jarayon” tushunchalari asosiy tushunchalar hisoblanadi.

B.M.Petrovning “Qisqacha psixologik lug‘ati”da “o‘qitish” tushunchasi “talabalarning ichki va tashqi faolligini boshqarish hamda rag‘batlantirish bo‘lib, buning natijasida unda ma’lum bilim, ko‘nikma va malakalar shakllanadi” deya ta’rif berilgan.

K.K.Platonov esa mazkur tushunchaga bilim, ko‘nikma, malaka va odatlarni shakllantirish jarayoni sifatida yondashib, uning mohiyati o‘zlashtirilgan material bilan o‘zlashtirilmagan material o‘rtasidagi bog‘likliklarni yoritishdan iborat deb hisoblaydi.

Jarayon (lotincha ***“prozessys”*** so‘zidan olingan bo‘lib) – oldinga harakat, o‘zgarish degan ma’noni anglatsa, pedagogik jarayon mohiyatida esa ta’lim beruvchi bilan ta’lim oluvchi o‘rtasidagi aniq maqsadga erishishga yo‘naltirilgan va kutilgan natijaga olib keluvchi o‘zaro ta’sir ekanligi ifodalanadi.

“Pedagogik jarayon”ning umumiy mohiyati TASIS loyihasida, quyidagi sxema asosida ko‘rsatib berilgan (1. Rasm).



1. Rasm. Pedagogik jarayonning umumiy mohiyati.

1. Rasmda keltirilgan sxemadan ko‘rinib turibdiki, ta’lim natijalari bevosita quyidagi omillarga bog‘liq, bular:

1) ta’lim beruvchi bilan ta’lim oluvchining o‘zaro munosabati;

2) ta’lim texnologiyalarining keng qo‘llanilishi;

3) ta’lim metodlarini to‘g‘ri tanlanganligi.

Ta’lim metodlari haqida fikr yuritar ekanmiz, uning asl mohiyatiga to‘xtalsak. Zero, usul – bu loyihalashtirilgan maqsad bilan yakuniy natija o‘rtasidagi ularni bog‘lab turuvchi zveno sanaladi. Usullarsiz belgilangan maqsadga erishish, ta’lim mazmunini yetarlicha yoritish, talabalarning bilish

faoliyatini faollashtirish hamda kutilgan natijalarni qo‘lga kiritish mumkin emas.

T.I.Shamova o‘quv jarayonida o‘qituvchi bilan talabaning o‘zaro faolligi (o‘qitish va o‘rganish)dan iborat, murakkab, dinamik tizim sifatida yondashadi. Muallifning fikricha, bu tizimda o‘qituvchi rahbarligida talaba tomonidan fan asoslari hamda faoliyat usullarini o‘zlashtirish va uning rivojlanishi sodir bo‘ladi. O‘zaro bog‘liq mazkur jarayonda, har bir subyekt tomonidan amalga oshiriluvchi faoliyat, muayyan vazifalarni bajarishga xizmat qiladi. O‘qituvchining vazifasi faqatgina bilimni uzatish emas, balki talabalar tomonidan bilimlar hamda faoliyat usullarini o‘zlashtirish jarayonini ham boshqarishdan iborat.

Talabaning vazifasi bilimlar tizimini o‘zlashtirish, ularni egallash, qayta ishlash, saqlash va qo‘llash usullarini egallash asosida o‘zida zaruriy shaxsiy fazilatlarni tarbiyalash sanaladi. O‘qitish jarayoni, o‘qituvchi tomonidan doimiy ravishda o‘quv bilish maqsadini qo‘yish va uni talaba tomonidan qabul qilinishini tashkil qilishdan boshlanadi. Talabalarning o‘quv faoliyati keng ma’noda bilish turlaridan biri bo‘lib, subyektning aks ettirish va qayta ishlash faoliyati negizida sodir bo‘ladi.

Faoliyat mohiyatiga ko‘ra tarixiy, predmetli va subyektiv sanalib, insonning muhit bilan o‘zaro aloqadorlik shakli sifatida ongli maqsadni amalga oshirishga yo‘naltiriladi. O‘quv faoliyati, shaxs faoliyatining muayyan turi sifatida bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashning muayyan faollik darajasi bilan tavsiflanadi, ya’ni ta’lim natijasi shaxsning ta’lim jarayonidagi faollik darajasiga bog‘liq.

Ikkinchi tomondan, har qanday faoliyat, jumladan, o‘quv faolligi predmetli bo‘lganligi sababli, uning mazmuni, ta’lim oluvchi uchun o‘quv faoliyatini yo‘naltirish va rag‘batlantirish kabi vazifani bajarish mohiyatiga ega bo‘lgandagina, o‘rganish predmetiga aylanadi.

Didaktikaning asosiy vazifasi, shaxsning bilish ehtiyojini shakllantirish va uni qo‘llab-quvvatlovchi vositani aniqlaщdan iboratdir. Shunga ahamiyat berish kerakki, ta’lim oluvchida bilishga bo‘lgan ehtiyoj va qiziqishlarini shakllantirish hamda o‘quv faoliyatini tashkil etish uchun, o‘quv predmetlari mazmunida ma’lum muammoning ustuvor o‘rin tutishini ta’minlash, uni muayyan tizimga solish o‘qituvchi tomonidan amalga oshiriladi. Bunday faoliyatni amalga oshirish uchun o‘qituvchi zarur bilim, ko‘nikma va mahoratga ega bo‘lishi lozim.

“Gospital pedagogika” o‘quv fani bo‘yicha ishlab chiqilgan o‘quv qo‘llanma va darslik pedagogika oliy o‘quv yurtlarida kasalxona o‘qituvchisini tayyorlashda predmetning noyob qirralarini o‘rganishga va talabalarning ijodiy bilish faoliyatini faollashtirishga imkon beradi.

Ta’lim samaradorligiga erishishning asosiy shartlaridan biri, talabalarda o‘rganilayotgan masalalarga nisbatan qiziqish uyg‘otish hamda ularni tushunib olishga bo‘lgan intilishni hosil qilishdan iborat. “Shaxsda biror narsani tushunib olishga nisbatan ehtiyoj tug‘ilganidagina, u fikr qila boshlaydi”.

Fiziologlar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar, bajarilayotgan ish natijalarining foydali ekanligini anglagan xodimlar bilan uni anglamagan xodimlar tomonidan bajarilgan faoliyatning unumdorligida, katta farq ko‘zga tashlanishini tasdiqlaydi.

O‘qituvchi va ta’lim oluvchilarning ta’lim jarayonidagi faoliyatlarini o‘ziga xosligini nazarda tutgan holda, pedagogning faolligi, bevosita yoki bilvosita ta’lim oluvchilarning faolligini yuzaga keltirishga xizmat qiladi. Didaktik jihatdan, o‘quv faoliyati, ta’lim oluvchilarning o‘qituvchi tomonidan uyushtirilib, turli murakkablikdagi o‘quv vazifalarini hal etishga qaratilgan faoliyat bo‘lib, yakuniy natija sifatida bilim, ko‘nikma va malakalar egallanadi hamda ma’lum ma’naviy-axloqiy sifatlar shakllanadi.

O‘qish jarayonining mohiyati T.I.Shamova tomonidan ochib berilgan: “Didaktik nuqtayi nazaridan o‘qish (o‘qitish) jarayoni o‘qituvchi (yoki talabaning) o‘zi tomonidan bilimlarni egallash, qayta ishlash va qo‘llash usullarini o‘zlashtirish maqsadida uyushtiriladigan, aks ettiruvchi va qayta ishlovchi faoliyatdir”.

O‘quv jarayonini harakatga keltiruvchi kuch ehtiyoj va rag‘bat (motivatsiya) hisoblanadi. Ular ta’lim oluvchilarning mavjud bilim, ko‘nikma va aqliy rivojlanish darajasi, shuningdek, o‘quv jarayonida oldinga qo‘yilayotgan vazifalar asosida yuzaga keladi.

Gnoseologik jihatdan, o‘quv faoliyati, bir qator dalillar, hodisalarni o‘rganish, taxmin qilish va mavjud bilimlar bilan taqqoslashga asoslanadi. Bu o‘rinda, o‘zlashtirilmagan sohani aniqlash hamda o‘zlashtirishga ehtiyoj mavjud bo‘lgan muammoni belgilash sodir bo‘ladi. O‘quv materiallarini ongli va puxta egallash bilish vazifasini hal qilish, o‘zlashtirilgan bilimlarni umumlashtirish, ya’ni ichki bog‘likliklar va qonuniyatlarni yechish asosida amalga oshirish sanaladi.

O‘quv faoliyatining maqsadi talabalarda ta’lim mazmunini tashkil etuvchi, umumiy bilimlarni faoliyatda qo‘llay olish darajasigacha o‘zlashtirilishini ta’minlashdan iborat. Mavhum va aniq bilimlarni ongli ravishda taqqoslab borish, o‘quv faoliyatining barcha bosqichlari uchun muhim ahamiyatga ega. Bunday yo‘l tutmaslik, o‘quv materialining amaliy qiymatini anglamasdan ma’lumotlarni shunchaki yodlanishiga sabab bo‘ladi.

Zamonaviy fiziologik g‘oyalar nuqtayi nazaridan bilish faoliyatida markaziy o‘rinni, taqqoslash jarayoni egallaydi. Zero, taqqoslash asosida faoliyat boshqariladi, ya’ni o‘zlashtirilayotgan axborot shaxsning mavjud tajriba (bilimlari) bilan yoki avval egallangan faoliyat ko‘nikmalari bilan taqqoslanadi.

Faol shaxsiy yondashuv to‘g‘risidagi psixologik g‘oya, shuningdek, ta’lim oluvchining faoliyatini mustaqil va ongli tashkil etilishida yetakchi o‘rin tutishini ifodalovchi didaktik tamoyillarni umumlashtirgan holda shuni ta’kidlash mumkinki, pedagogika oliy o‘quv yurtlarida tibbiyot muassasalari (kasalxona, statsionar va boshqalar) qoshida tashkil qilingan maktablarda faoliyat olib boradigan kasalxona o‘qituvchisini tayyorlash ham o‘quv jarayonining asosini, ta’lim oluvchining aniq maqsad (kasalxona o‘qituvchisi faoliyatining asoslarini puxta o‘zlashtirish)ga yo‘naltirilgan bilish faoliyati tashkil etadi.

Metodik tadqiqotlar natijalari va pedagogik amaliyotning ko‘rsatishicha, ta’lim oluvchilarning o‘quv faoliyati o‘qituvchi tomonidan tashkil etilmasa, boshqarilmasa va yetarli darajada nazorat qilinmasa, natija bermaydi hamda samarasiz yakunlanadi.

Shunday qilib, pedagogika oliy o‘quv yurtlarida tashkil qilinadigan ta’lim jarayoni, o‘qituvchi va talabalarning ko‘p qirrali o‘zaro bog‘liqlikka asoslanuvchi faoliyati bo‘lib, bu jarayonda quyidagi vazifalar hal qilinadi:

- o‘qituvchi tomonidan o‘quv axboroti (mazmuni)ni tanlash, tizimga solish va tavsiya etish;
- talaba tomonidan o‘quv axboroti (mazmuni)ni qabul qilish, anglab olish, qayta ishlash va puxta egallash;
- o‘qituvchi tomonidan har bir talabaning o‘quv axborotni o‘zlashtirish va uni amalda qo‘llash malakasini egallash bo‘yicha mustaqil, ongli, oqilona, faol maqsadga yo‘naltirilgan va natijali faoliyatini tashkil qilish.

Yuqorida bildirilgan fikrlar, ta’lim jarayonining barcha jihatlari hisobga olinsagina, ta’lim samaradorligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan asosiy vazifani belgilash hamda uni hal etish yo‘llarini aniqlash zarur ekanligini tasdiqlaydi.

Pedagogik jarayonning natijasi, ta’lim oluvchida kasbiy faoliyatini shakllanishi uchun zarur bo‘lgan fazilatlarni o‘zlashtirilishi hisoblanadi. Pedagogik jarayon va uning tarkibiy qismi bo‘lgan ta’lim jarayoni, o‘qituvchining didaktik-metodik faoliyat mahsuli bo‘lgan didaktik tizim asosida tashkil etiladi. Mohiyatiga ko‘ra, didaktik tizim, o‘qituvchiga natijali o‘quv jarayonini maqsadga muvofiq amalga oshirishga imkon beruvchi vosita va metodlarning yig‘indisi hisoblanadi. Didaktik vositalar majmuidan foydalanish metodikasi esa, ta’lim jarayonini boshqarishning kichik tizimlaridan biri hisoblanadi.

O‘zlashtirish lozim bo‘lgan bilimlar qanchalik muayyan tizimga solinsa, ta’limning maqsadi, tizimda o‘zlashtiriladigan bilim va ko‘nikmalarning ahamiyati, talabalar uchun shunchalik tushunarli bo‘ladi hamda bilim, ko‘nikma va malakalarning mustahkam va oson o‘zlashtirilishiga yordam beradi. Shuning uchun samarali va natijali o‘quv jarayoni uchun bilimlarni tanlash va maqsadlarni aniqlash dolzarb vazifalardan biridir. Talabalarga muayyan predmet “Gospital pedagogika” asoslarini samarali o‘zlashtirishga oid bilimlar tizimini tavsiya etish lozim.

Didaktik vositalarni yaratishda, berilayotgan materialni talabalar tomonidan, kasbiy bilimlarning qanday maqsad asosida va qay darajada o‘zlashtirilishi lozimligi inobatga olish kerak. O‘quv mashg‘ulotlari turlarining o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, talabalar faoliyatining turli shakllari aniqlanadi. Bundan ko‘zlangan maqsad qo‘yilgan maqsadlarga erishish, shuningdek, ta’lim oluvchilarda aqliy va psixologik sifatlarni shakllantirishdir. Bu jarayonda, ta’lim oluvchilar faoliyatida muayyan izchillikni ta’minlash, harakatning muhim bosqichlari (bajarish, baholash va yo‘naltirish) samaradorligini aniqlash hamda bilish motivatsiyasini oshirish chorasini belgilash muhimdir.

Ikkinchi muhim vazifa, ta’lim jarayonini boshqarishga ta’lluqli bo‘lib, talabalarning bilish faoliyatida o‘z-o‘zini boshqarish tamoyillarining qo‘llanilishi bilan tavsiflanadi. Unga ko‘ra, o‘qituvchi o‘quv mashg‘ulotlarini shunday tashkil qilishi kerakki, natijada har bir talaba berilgan o‘quv materialni o‘rganish chog‘ida, maqsadga yo‘naltirilgan, faol hamda mustaqil

faoliyatni bajarishga, o‘zida rag‘bat his etishi kerak. Agar ta’lim jarayoni qo‘llanmalar “(didaktik vositalar) yordamida to‘g‘ri tashkil etilsa” va yo‘naltirilsa, talabalarning maqsadga yo‘naltirilgan harakatlari, ular rejalashtirgan va kutgan natijaga olib keladi, o‘zlashtirilayotgan bilimlar talaba tomonidan qayta ishlanib, zarur tizimga aylantirilsa, unda qiziqish paydo bo‘ladi va ta’lim jarayoni sifatining yanada yuqori ko‘tarilishiga olib keladi.

Ushbu masalani hal qilishda “Gospital pedagogika” darsligi yaxshi natija beradi, darslikga kiritilgan ma’lumotlar fanning zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda mantiqiy ketma-ketlikda berilgan, darslik yaxshi ilmiy-uslubiy saviyada tayyorlangan, undan pedagogika oliy o‘quv yurtlarida barcha ta’lim yo‘nalishidagi talabalarni o‘qitishda va ularning fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishda foydalansa bo‘ladi.

Ta’lim jarayonining samaradorligini ta’minlash haqidagi zamonaviy pedagogik g‘oyalarga ko‘ra, “o‘quv materialining har bir talaba tomonidan faol va mustaqil o‘rganilishini ta’minlay oluvchi jarayonni tashkil etish” taqozo etiladi. O‘qituvchilar ta’lim jarayonini, o‘qitishni har bir talaba tomonidan faol, mustaqil, ongli, maqsadga yo‘naltirilgan va natijali bilish faoliyati sifatida qabul qilishi uchun, uni samarali tashkil qilishga intilishi zarur. Bilish faoliyati talabalar yuqori sifatli o‘quv axboroti bilan ta’minlanganda, o‘qishning maqbul usullaridan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikma va malakalarini egallaganda, ushbu jarayonda o‘zini o‘zi nazorat qilib, boshqara olganda, shunigdek, ajratilgan vaqt va hajmda tegishli o‘quv materialini egallashga nisbatan ehtiyoj va xohish-istakka ega bo‘lgandagina samarali kechadi.

Talabalarning o‘quv materialini samarali va to‘la egallashi uchun o‘qituvchi quyidagi shartlarga rioya qilishi lozim:

- talabalarga o‘rganilayotgan predmet o‘quv materialining bo‘lajak kasbiy faoliyatdagi roli va ahamiyatini tushuntirish orqali, ularda qiziqishni yuzaga keltirishi;
- o‘quv materialini ko‘rsatmali, ko‘rgazmali va muammoli shaklda tushuntirishi;
- nazorat-tuzatish ishlarini tashkil etish uchun materiallarni tayyorlashi va ularni o‘tkazish.

“Gospital pedagogika” predmeti asoslarini talabalar tomonidan yetarli darajada o‘zlashtirilishi uchun, o‘qituvchilar ta’lim jarayonida muayyan metod va vositalarni qo‘llay olishlari zarur.

Quyida shu haqida batafsil to‘xtalib o‘tamiz.

Talabada ta’lim olishga bo‘lgan rag‘bat (motivi)ni hosil qilish uchun o‘qituvchi, eng avvalo, fanni o‘rganish maqsadi, berilgan maxsus bilim hamda egallangan ko‘nikmalarning tanlagan kasb uchun ahamiyatini ochib berishi kerak. “Gospital pedagogika” predmetining o‘zlashtiriladigan bilim, ko‘nikma va malakalarning kasbiy ahamiyatini ko‘rgazmali tarzda, ya’ni, prezentatsiya, diafilm, videofilm, telefragment, stend va boshqalar yordamida namoyish etish orqali, ularda yaxlit tasavvurlarni hosil qilish lozim.

Ana shu maqsadga yo‘naltirilgan majmuaviy yoki individual vositalar ta’limiy mashg‘ulotlar (ma’ruza)ning kirish, tanishtirish va boshlang‘ich bosqichlarida qo‘llaniladi. Ta’lim jarayonining “asosi” bo‘lib, talabalarning bilish faoliyati hisoblanadi. Bilish faoliyatining asosiy shakli bo‘lgan auditoriya (ma’ruza) mashg‘ulotlarida, talabalarning o‘quv ishlariga rahbarlik qilish va boshqarish, “o‘qituvchining pedagogik mahorati”ning muhim jihatlaridan biridir.

Talabalarning bilish faoliyatlarini bevosita boshqarish va unga rahbarlik qilish bo‘yicha tashkil etilgan barcha tadbirlar, har bir talaba o‘quv materialini mustaqil va ongli ravishda qabul qilishi, anglab olishi va kelgusi kasbiy faoliyatida qo‘llay olishiga xizmat qiladi.

Har bir talabaning o‘quv materialini o‘zlashtirishida, uning o‘quv faoliyatini nazorat qilish hamda zarur o‘rinlarda tuzatish kiritish yo‘li bilan o‘zlashtirilishiga erishish maqsadga muvofiqdir. Nazoratning mohiyati va ahamiyati shundan iboratki, u birinchidan, har bir talaba tomonidan o‘quv materialini o‘zlashtirish qanday kechayotganligini, egallagan bilimlar va ko‘nikmalar qanchalik to‘g‘ri, mustahkamligini, o‘quv ta’minotining qaysi elementlari va o‘qituvchi hamda talabaning o‘quv jarayonidagi o‘zaro faoliyatining qaysi jihatlari samarali emasligini, bilish faoliyatining mazmuni va shakllariga qanday o‘zgartirishlar kiritish zarurligini aniqlab beradi.

Ikkinchidan, nazorat talabalarga berilgan materialni o‘rganishdagi shaxsiy muvaffaqiyatlari va kamchiliklarini baholash, keyingi faoliyatni to‘g‘ri rejalashtirish imkonini yaratadi.

Nazoratni muvaffaqiyatli tashkil etish uchun quyidagi metodik ishlarni amalga oshirish talab etiladi:

- barcha mavzular va mashg‘ulot turlari bo‘yicha nazorat testlarini tuzish; ta’lim maqsadidan kelib chiqib, nazorat topshiriqlarini tuzish;
- mavzularga tegishli o‘quv-didaktik materiallarni hamda vositalarni yaratish kerak.

“Uzoq muddatli kasal bolalarning o‘ziga xos xususiyatlari” mavzusi bo‘yicha ayrim irsiy kasalliklarning tasnifi (klassifikatsiyasi)ning o‘quv-didaktik materialini dars jarayonida qo‘llash yaxshi natijalarga erishishni ta’minlaydi (2 – ilova).

O‘qituvchining asosiy vazifasi, ta’lim jarayoni uchun yuqori sifatli o‘quv-metodik ta’minotni yaratish hisoblanadi. Mazkur masalani hal qilish uchun o‘qituvchidan puxta pedagogik bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lish talab qilinadi.

O‘qituvchining ko‘rgazmali – tushuntirish faoliyati, o‘quv mashg‘ulotini turli shakllarda tashkil etish hamda asosiy material (muayyan nazariya asoslari, ilmiy dalillar, hodisalar, jarayonlar, modellar, farazlar, fan mazmunini tashkil qiluvchi tipik, oqilona va natijali usullar, metodlar)ni aniqlashtirish vositasi hisoblanib, fan bo‘limlari va o‘quv faoliyat turlari bo‘yicha maxsus o‘quv qo‘llanmasi ko‘rinishida har bir talabaning o‘quv faoliyatini tashkillashtirish maqsadida tayyorlanadi.

O‘qituvchi predmet bo‘yicha o‘quv dasturida berilgan va o‘rganish maqsadga muvofiq etib belgilangan bilim asoslari, faoliyat turlari haqidagi ma’lumotlarni talabalarga berishi lozim, shuningdek, mavzular bo‘yicha turli hildagi: Ma’ruza darsi, Amaliy mashg‘ulot, “Aqliy xujum”, Seminar mashg‘uloti, Umumlashtiruvchi mashg‘ulot kabi ishlanmalarini dars jarayonida qo’llasa, mashgulotlarni qiziqarli olib borish uchun zamin yaratadi hamda maqsadga muvofiq bo‘ladi (3, 4, 4A, 5, 6 va 7 – ilovalar).

“Gospital pedagogika” predmetini mazmuni va tarkibiy tuzilmasini mohiyati.

“Gospital pedagogika” predmeti o‘z mohiyatiga ko‘ra, kasalxona o‘qituvchilarining kasbiy mahoratlarini shakllantirishga xizmat qilishi lozim, u tarkiban nazariy (ma’ruza) va amaliy mashg‘ulotlar (jumladan, kasal bolalarga nisbatan ta’lim va sog‘liqni saqlash sohasidagi davlat siyosati, turli kasalliklarga chalingan bolalarni kasalxona maktablarida o‘qitish tamoyillarining o‘ziga xos qirralari)ni o‘z ichiga olgan bo‘limlardan tashkil topgan.

Nazariy qismning asosiy vazifasi – talabalarga “Gospital pedagogika” fanining nazariy bilimlarini hamda kasalxonada uzoq muddat davomida davolanayogtan bolalar uchun ta’lim muhitini yaratishning o‘ziga xos

xususiyatlarini o‘rganishni va fan haqidagi bilimlarni umumlashtirgan holda o‘rganish hamda ularda turli xil bilim manbalari bilan ishlash davomida, mustaqil ravishda o‘z bilimlarini to‘ldira olish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iboratdir. Nazariy kursni o‘rganish jarayonida egallangan bilimlar amaliy mashg‘ulotlarda to‘ldiriladi, chuqurlashtiriladi va mustahkamlanadi.

Bo‘lajak kasalxona o‘qituvchilari, kasbiy ta’lim jarayonida egallangan nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalardan ijodiy hamda majmuaviy tarzda foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Ular, amaliyotda nafaqat mavjud bilim, ko‘nikma va malakalardan foydalanadilar, shu bilan birga ularni yanada boyitib boradilar. Keyinchalik turli amaliyot o‘taydigan tibbiyot muassasalarida kasbiy faoliyatni tashkil etish davrida kasbiy malakalarini yanada boyitib boradilar.

“Gospital pedagogika” predmetining asoslarini o‘zlashtirishda, uzoq muddatli kasal bolalarning o‘ziga xos xususiyatlari haqidagi bilimlarni, ya’ni kasalliklar (surunkali somatik, ruxiy, asab, saraton, gemotologik va boshqa turlari)ning kelib chiqish sabablarini yorituvchi tushunchalarning mohiyatini o‘zlashtirishga hamda tibbiyot muassasalarida yoki uyda bolalar bilan ishlash, tibbiyot muassasalarida yoki oddiy maktabga borish imkoniyati cheklangan bolalarning ta’lim olish xususiyatlaridan habardor bo‘lish va ularni bilish, uzoq muddat davomida davolanayotgan bolalarni tarbiyalash va psixologik qo‘llab-quvatlash muammolarini xal qilish, talabalarni tibbiyot muassasalarida tarbiyaviy ish usulari, ularni izlash, vositalarini tanlash va ularning mazmunini asoslashga o‘rgatish, alohida e’tiborga muxtoj bolalar bilan ishlashga shaxsiy tayyorgarlikni shakllantirish va ularga pedagogik yordam ko‘rsatish borasidagi bilimlarni olish istagini rivojlantirish kabi mavzularga e’tibor qaratiladi.

Mazkur jarayon bir qadar murakkab, zero, kasalliklarning turli xillari ma’lum bo‘lgan bo‘lsada, o‘tgan asrning 60-yillarida mutaxassislar tomonidan ularning har xil turlari o‘rganildi. Bu esa talabalardan faoliyatlari davomida duch kelishlari mumkin bo‘lgan kasalliklar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yetarlicha o‘zlashtirishlarini taqozo etadi.

Bugungi kunda har qanday kasallik (hatto yuqumli kasallik)larni ham davolashda irsiy omillarni inobatga olish zaruriyati yuzaga kelayotganligi sababli, bo‘lajak kasalxona o‘qituvchisi uzoq muddatli kasal bolalarning o‘ziga xos xususiyatlari haqidagi bilimlarni, ya’ni kasalliklar va ularning kelib chiqish sabablarini yorituvchi bilimlarni puxta o‘zlashtirgan bo‘lishlari lozim.

Hozirgi kunda, pedagogika oliy o‘quv yurtlarida kasalxona o‘qituvchisi mutaxassisligi bo‘yicha ta’lim berishda o‘zbek tilidagi “Gospial pedagogika” o‘quv faniga tegishli o‘quv qo‘llanma va darslikdan foydalanilmoqda.

“Gospital pedagogika” predmetiga tegishli bo‘lgan bilimlar tizimini pedagogika oliy o‘quv yurtlarida faoliyat olib boruvchi professor-o‘qituvchilar, ushbu predmetni o‘qitish bo‘yicha Rossiya Federatsiyasida, Yevropa davlatlarida hamda rivojlangan xorijiy mamlakatlarda to‘plangan ish tajribalarini “internet” orqali (ilmiy maqolalar, tezislar, metodik qo‘llanmalar, darsliklar)ni o‘rganish orqali ham olmoqdalar va natijada bo‘lajak mutaxassislar tomonidan fan asoslarini puxta o‘zlashtirish imkoni ko‘paymoqda.

“Gospital pedagogika” o‘quv predmetini talabalarga samarali o‘qitishda quyidagilarga amal qilish zarur:

1. “Gospital pedagogika” predmeti pedagogika oliy o‘quv yurtlarida o‘qitiladigan umum-kasbiy predmetlar blokiga kirganligi sababli, o‘quv dasturida gospital pedagogikaga tegishli bilimlar tizimini o‘rganishda uzviylik, ketma-ketlik va dialektik (oddiylikdan murakkabga o‘sib borish) tamoyillariga rioya etish lozim.

2. “Gospital pedagogika” o‘quv predmetini o‘qitishda, didaktikaning nazariya va amaliyot birligi tamoyiliga rioya qilish kerak.

3. “Gospital pedagogika” fani bilimlarining mohiyatini talabalarga tushuntirishda ushbu fan sohasida xorijiy mamlakatlarda erishilgan yutuqlar haqidagi bilimlarga tayanish, kasalxonada uzoq muddatli davolanayotgan bolalar uchun ta’lim muhitini yaratishning o‘ziga xos xususiyatlarini batafsil yetkazish lozim.

4. Pedagogikaning zamonaviy konsepsiyalari nuqtayi nazaridan, gospital pedagogikaning umumiy bilimlarini ya’ni, kasal bolalar uchun ta’lim muhitini yaratishning o‘ziga xos o‘rni va salmog‘ini talabalar tomonidan o‘zlashtirish va to‘g‘ri baholashlarini ta’minlash.

5. Pedagogika oliy o‘quv yurtlarida gospital pedagogikaga tegishli bilimlarni berishda, takrorlanishlarning oldini olish, aksincha, mavjud bilimlarni yanada boyitish imkoniyatini yaratish lozim.

Ushbu vazifalar, pedagogika oliy o‘quv yurtlarida “Gospital pedagogika” predmetini o‘qitishda ilmiy, g‘oyaviy va metodologik jihatlarni kuchaytirish, mavzular, shuningdek, predmetlararo aloqalarning mavjudligini ta’minlashni talab etadi.

“Inklyuziv ta’lim. Gospital pedagogika” predmetlarining o‘quv dasturiga kiritilgan “Gospital pedagogika” predmetining mazmuni, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim Vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni Saqlash Vazirligi tomonidan tasdiqlangan.

“Gospital pedagogika” predmeti uchun jami 60 soat vaqt ajratilgan, dasturdagi umumiy soatlarning 30 soatini auditoriya (nazariy va amaliy) mashg‘ulotlar, 30 soatini mustaqil ta’lim mashg‘ulotlari tashkil etadi.

O‘quv dasturiga turli kasalliklar bilan og‘rigan bolalar bilan ishlashda pedagogik faoliyatning xususiyatlari, ta’lim muhitini yaratishning pedagogik mohiyatlari, bolalar ta’limini tashkil etishning o‘ziga xos pedagogik xususiyatlari haqidagi ma’lumotlar kiritilgan.

“Gospital pedagogika” predmetining mazmuni, o‘quv materiallarining ijtimoiy-g‘oyaviy darajasi, gospital pedagogikaga tegishli bilimlar mantiqi, ularning rivojlanishi, tarkibiy tuzilmasi, didaktik imkoniyatlarini kuchaytirishga qaratiladi. Buning uchun turlicha tarkibiy tuzilmaga ega o‘quv materiallari o‘rganiladi.

O‘quv predmetining mazmunini yoritishda, mavhumlikdan aniqlikka tomon rivojlanishni ifodalovchi dialektik metoddan foydalaniladi. “Gospital pedagogika” fanini o‘quv predmet sifatidagi mazmuni, birinchi galda, ta’lim metodikasiga tyegishli ilmiy tadqiqotlar va ilmiy nazariyalarga asoslanadi.

Yangi avlod o‘quv qo‘llanmalar va darsliklariga qo‘yilgan talablarga binoan, “Gospital pedagogika” predmeti bo‘yicha lotin tilida o‘quv qo‘llanma yaratildi va 2024-yilda “Bookmany Print” nashriyotida nashr etildi.

“Gospital pedagogika” o’quv fani bo‘yicha lotin tilida yaratilgan darslik 2025-yilda “Oltin qalam” nashriyotida chop etildi.


Mazkur o‘quv qo‘llanma va darslik barcha yo‘nalishda ta’lim oladigan talabalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda 30 soat auditoriya (nazariy va amaliy) va 30 soat mustaqil ta’lim mashg‘ulolariga tegishli bilimlar tizimi mujassamlashtirilgan (1, 1A - ilovalar).

“Gospital pedagogika” o‘quv predmetining tarkibiy tuzilmasiga o‘qitishning ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalari nuqtayi nazaridan qaralsa, ular didaktika, tarbiya nazariyasi va psixologiya kabi fanlarning predmeti ekanligi ma’lum bo‘ladi. Bu esa o‘ziga xos murakkab tizimdir.

“Gospital pedagogika” fanini o‘qitish ham murakkab tizimga asoslanadi. Bu jarayonda didaktika, tarbiya nazariyasi, psixologiya, meditsina shuningdek,

boshqa fanlarning o‘zaro aloqadorligi, bog‘liqligi natijasida ular o‘rtasida fanlararo integratsiya yuzaga keladi.

Natijada, “Gospital pedagogika” predmetini o‘qitish metodikasi yuzaga keladi (2. Rasm).



2. Rasm. “Gospital pedagogika”ni o‘qitish metodikasi.

“Gospital pedagogika” o‘quv predmetini o‘qitish metodikasining takomillashishi, quyidagilar asosida ta’minlanadi:

1) tarkibiy qismlarning o‘zaro ta’sirlashishiga erishiladi;

2) tizim sifatida metodika o‘zi ham tarkibiy qismlarga ta’sir ko‘rsatadi.

“Gospital pedagogika” predmetining o‘ziga xosligi shundan iboratki, ta’limning barcha funksiyalari, uzoq muddatli kasal bolalarning ta’lim ehtiyojlarini tashkillashtirish nuqtayi nazaridan tushuntirish orqali amalga oshiriladi.

Pedagogika oliy o‘quv yurtlarida bo‘lajak kasalxona o‘qituvchilarini tayyorlash uchun mo‘ljallangan “Gospital pedagogika” o‘quv predmeti bo‘yicha yaratilgan darslikda, uzoq muddat davomida davolanishga majbur bo‘lgan turli xildagi kasalliklarga chalingan bolalarning ta’limini tashkillashirish tushunchalari uzluksizlik tamoyiliga muvofiq yoritilgan va ular mantiqan o‘zaro bog‘langan bo‘limlarga singdirilgan.

“Gospital pedagogika” o‘quv predmetining mazmuni, pedagogika oliy o‘quv yurtlarida uni o‘qitish jarayonini tashkil qilishda, ta’limning uch muhim funksiyasiga tayanish hamda ularning birligiga erishish zarurligi, so‘nggi yillarda yaratilgan bir qator metodik qo‘llanmalarda alohida qayd etilgan.

O‘quv predmetining mazmuni va tarkibiy tuzilmasining tahlili shuni ko‘rsatdiki, uni gospital pedagogikasining rivojlanishi bilan bog‘liq holda qo‘shimchalar bilan boyitish lozim. Bunda, birinchidan, predmetni o‘qitishda umumiy bilimlarning uzviy bog‘liqligi asosida talabalarda ijodiy faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirishga oid dars ishlanmalarini ishlab chiqish; ikkinchidan, o‘qitish natijalarini nazorat qilish va baholashda didaktik texnologiyalar, jumladan, testlardan foydalanish imkoniyatlarini qo‘llash muhim ahamiyatga ega.

“Gospital pedagogika” o‘quv predmetining mazmuni, pedagogika ta’lim muassasalarida ushbu fanni o‘qitish jarayonining muhim tarkibiy qismidir. O‘quv predmeti mazmunini tanlashda, o‘quv materiali hamda unga mos keluvchi o‘qitish vositalari va metodlarini to‘g‘ri tanlash va yoritish, shuningdek, talabalarning o‘quv faoliyati shakllarini aniqlash hamda o‘quv faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

“Nimani o‘qitish lozim?” degan savol, o‘quv predmetini o‘qitishning ustuvor masalalaridan biri hisoblanadi.

Pedagogika oliy o‘quv yurtlarida “Gospital pedagogika” o‘quv predmetini o‘qitishning umumiy maqsadlari, ushbu fanning mazmuni, ahamiyati va shu o‘quv fanning pedagogika oliy ta’lim tizimidagi o‘rni bilan aniqlanadi.

Bilish nazariyasi, “Gospital pedagogika” predmetining mazmunini aniqlashda ilmiy-nazariya (metodologik) asos bo‘lib xizmat qilishi lozim.

Ta’limning psixologik asoslari va metodika g‘oyalarining o‘zaro uyg‘unligini ta’minlashda, o‘quv fani mazmuni va uni bayon qilishning talabalar yoshiga mos kelishini hisobga olish kerak.

“Gospital pedagogika” o‘quv predmetining ta’lim mazmunini belgilashda, quyidagi didaktik tamoyillarga asoslaniladi: o‘quv materialining hozirgi zamon fani darajasiga mosligi; tushunchalarning tobora rivojlanib borishi; qiyinchiliklarni ajratish; tarixiylik; g‘oyaviy yo‘naltirilganlik; amaliylik va boshqalar.

O‘qitish vazifalariga muvofiq, bilimlar mazmuni, fanning rivojlanish darajasi bilan aniqlanilib, unda, eng avvalo, gospital pedagogikaning asosiy obyektlari aniqlanadi. “Gospital pedagogika” o‘quv fani, ushbu predmetning jihati, asosiy tushunchalari, ta’riflari, tarixi, fanning uslubiy asoslarini va kasalxona maktablari ishtirokchilarining (bola, ota-onalar, pedagog xodimlar, tibbiyot xodimlari) o‘quv jarayondagi o‘zaro aloqasini tashkil qiladi.

“Gospital pedagogika” predmeti turli kasalliklarga (saraton (miya shishi, gematologik va autoimmun kasalliklar) ichki sekretsiya bezlari (qandli diabet) nafas olish organlari (sil va bonxial astma) genetik (irsiy) kasalliklarga chalingan uzoq muddatli davolanishga muxtoj bolalar uchun ta’lim muhitini yaratish haqidagi bilimlar tizimidan iborat.

Mazkur tizim, “Gospital pedagogika” predmetining tarkibiy tuzilmasi hamda uni o‘qitish maqsadini o‘z ichiga oladi. Talabalarning bilish imkoniyatlaridan kelib chiqib, turli kasalliklar bilan og‘rigan maktab o‘quvchilari bilan mashg‘ulotlar o‘tkazish tamoyillari, uzoq muddatli kasal bolalarning o‘ziga xos xususiyatlari, bolalarni o‘qitishda fanlararo integratsiyaning ahmiyatini bilishni taqozo etadi.

Bunday bolalar bilan ishlash va ularga ta’lim-tarbiya berish, kasalliklarning kelib chiqish omillari, qonuniyatlarini yoritish va talabalar tomonidan o‘zlashirilishi, “Gospital pedagogika” o‘quv predmetining amaliy ahamiyatga egaligini tasdiqlaydi.

“Gospital pedagogika” fanining jahon miqyosi va respublikadagi rivojlanish tarixi, rivojlanish bosqichlari, tushunchalari, tariflari, uslubiy asoslari va kasalxona maktablari ishtirokchilarining o‘quv jarayondagi o‘zaro aloqasi haqidagi bilimlar darslikning dastlabki “Gospital pedagogika” fanining nazariy asoslari nomli I bobida yoritilgan.

II – bob. “Gospital pedagogika” fanining amaliy asoslari” deb ataladi, unda uzoq muddatli davolinishga muxtoj bolalar uchun ta’limni tashkil etish, uzoq muddatli kasal bolalarning o‘ziga xos xususiyatlari, uzoq muddatli davolanishga muxtoj bolalarni o‘qitishda fanlararo bog‘liqlikning ahamiyati mavzulari talabalarga yoritiladi.

“Maxsus pedagogika va inklyuziv ta’lim” mutaxassisligi bo‘yicha taxsil olayotgan talabalar “Gospital pedagogika” fanining nazariy bilimlarini o‘qish jarayonida ushbu fanga tegishli bilimlarga ega bo‘ladilar.

Darslik fan dasturi asosida yozilgan va fanning nazariy asoslari “Gospital pedagogika” predmeti bo‘limlarini hamda “Kasalxonada uzoq muddat davolanayotgan bolalar uchun ta’lim muhitini yaratishning o‘ziga xos xususiyatlari”ni o‘rganishni o‘z ichiga oladi.

Pedagogika oliy o‘quv yurtlarida taxsil olayotgan talabalar “Anatomiya”, “Odam fiziologiyasi va gigiena” kabi o‘quv predmetlarini o‘rganish jarayonida bolalar kasalliklariga oid ilmiy tushunchalarga duch keladilar, biroq, asosiy kasalxonada uzoq muddatli davolanayotgan kasal

bolalarning kasalliklarining turlari hamda ularga ta’lim muhitini yaratishning o‘ziga xos xususiyatlari haqidagi ma’lumotlarni “Gospital pedagogika” o‘quv predmeti bo‘yicha tashkil etilgan o‘quv mashg‘ulotlari davrida o‘zlashtiradilar.

“Gospital pedagogika” predmeti mazmunini yoritish tartibi, uning tarkibiy tuzilmasini belgilashga imkon beradi. O‘quv predmetining tarkibiy tuzilmasini shartli ravishda 4 qismga ajratish mumkin:

1. Kirish (o‘quv fani haqidagi ma’lumotlarga ega bo‘lish).

2. Nazariy qism (I va II Bob. “Gospital pedagogika” fanining nazariy va amaliy asoslari haqidagi ma’lumotlarni o‘zlashtirish).

3. Amaliy qism (III Bob. Amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha tavsiyalarni o‘rganish va bajarish).

4. Qo‘shimcha vazifalar qismi. (IV Bob. Seminar mashg‘ulotlarini bajarish bo‘yicha ma’lumotlarni o‘rganish).

Kirish qismida, berilgan o‘quv materiali “Gospital pedagogika” faniga oid ma’lumotlardan iborat.

Nazariy qismi “Gospital pedagogika o‘quv fanining nazariy va amaliy asoslari” haqidagi ma’lumotlardan tashkil topgan.

Amaliy qismda: 1, 2, 3 va 4 – amaliy mashg‘ulotlarni tashkil qilish bo‘yicha bilimlar tizimi o‘rin egallagan. Amaliy mashg‘ulotlar davomida dasturlar taxlil qilinadi, individual, frontal korreksiyalovchi o‘quv dasturi tuziladi, maktab va kasalxonalardagi o‘quv jarayoni kuzatiladi va taxlil qilinadi.

Mashg‘ulotlar faol va interfaol usullar, pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda olib boriladi.

Qo‘shimcha vazifalar (seminar mashg‘ulotlari) qismida ularni bajarish hamda seminar mavzulariga oid ko‘rsatmalar berilgan. Seminarlar har bir guruh uchun alohida multimediya uskunalari bilan jihozlangan auditoriyalarda o‘tkaziladi.

“Inklyuziv ta’lim. Gospital pedagogika” o‘quv darsturining mazmuni va uning tarkibiy tuzilmasining mohiyati va yutuqlari quyidagilardan iborat:

1. “Inklyuziv ta’lim. Gospital pedagogika” predmetlarining “Gospital pedagogika” predmetiga tegishli o‘quv dasturida fanga oid materiallar umumlashtirilgan, gospial pedagogikaning klinik, pedagogik va ilmiy asoslari yoritilgan.

2. Kasalliklarga oid mavzular: surunkali somatik, irsiy, asab tizimi, saraton, gematologik, nafas olish organlari, bronxial astma, sil kassalliklarining tasnifi va klinik ko‘rinishlari, bolalar populyatsiyasida tarqalishi haqidagi ma’lumotlar umumlashtirilgan, bunday nuqsonlari bo‘lgan bolalarni o‘qitishning o‘ziga xos pedagogik xususiyatlari va ehtiyot choralari yoritilgan.

3. Kasalxona o‘qituvchisini tayyorlashda kasbiy faoliyatiga tyegishli ma’lumolarga, shuningdek, talabalarning mustaqil ta’limiga (amaliy va semnar) mashg‘ulotlariga e’tibor qaratilgan.

4. Dasturda talabalar o‘quv predmeti bo‘yicha nimalarni bilishlari kerak, amaliy mashg‘uotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar, bajarishlari lozim bo‘lgan amaliy va seminar mashg‘ulotlari mavzulari, talabalar uchun namuna mashqlari, mustaqil ta’lim olish uchun tavsiya etiladigan mavzular, asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar va axborot resurslari berilgan.

“GOSPITAL PEDAGOGIKA” PEDMETINI O‘QITISHDA TALABALARNI BILISH FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISH VA TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH.

O‘qitish jarayonida talabalarni bilish faoliyatini faollashtirish.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risidagi”dagi Qonuni uzluksiz ta’lim tizimida har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish ijtimoiy maqsad ekanligi qayd qilingan. Mazkur maqsadni amalga oshirish ta’lim samaradorligiga bog‘liq. Ta’lim samaradorligiga esa, ta’lim oluvchilarning bilish faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish va boshqarish asosidagina erishiladi.

Uzoq yillar davomida pedagogika amaliyotida ustuvor o‘rin egallab kelgan an’anaviy ta’lim, talabalarning yalpi o‘qishini va ularning bilish faoliyatini passiv tinglovchi sifatida tashkil etishni nazarda tutadi. O‘qitish jarayonni tashkil etish o‘rtacha o‘qiydigan talabalarga mo‘ljallangan.

Ta’limni tashkil etishda o‘rtacha o‘qiydigan talaba mo‘ljalga olinib, talabalarning mustaqilligi e’tibordan chetda qoladi, o‘quv faoliyati asosan o‘qituvchi tomonidan boshqariladi. Agar o‘qituvchi yuqori malakali va ko‘p yillik pedagogik tajribaga ega, ish uslubi demokratik yondashuvga asoslangan, qo‘llayotgan metodlari samarali hamda talabalar bilan munosabati ijobiy xususiyat kasb etsagina muayyan auditoriya jamoasi o‘rtacha bilimga ega bo‘ladi.

Chunki darsga (leksiyaga) qiziqishi bo‘lmagan talaba bir oz majbur bo‘lib o‘qiydi, yuqori bilimli talaba uchun esa berilayotgan bilimlar kamlik qiladi.

Yuqoridagi vazifalarni xal etish va an’anaviy ta’lim tizimidagi kamchiliklarga barham berish, ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida talabalarning bilish faoliyatini yalpi guruhlarda o‘qitish bilan bir qatorda, individual va kichik guruhlarda o‘qitishni tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Bir guruh tadqiqotchilar, talabalar sonining dars samarasiga ta’sir qilishi haqidagi g‘oyani ilgari surishadi. Ularning fikriga ko‘ra, 35-40 nafar talabani o‘ziga biriktirgan auditoriyada dars o‘tish yuqori natijalarga erishishni kafolatlamaydi. Ayniqsa o‘quv predmetlarini o‘zlashtirishda ortda qolgan har bir talaba o‘ziga nisbatan o‘qituvchi tomonidan yetarlicha e’tibor qaratilmaydi

deb hisoblaydi. Biroq, ayrim tadqiqotchilar bu fikrga qo‘shilmaydilar. Ularning nuqtayi nazarlariga ko‘ra, o‘qitish samarasi leksiyani (darsni) olib boruvchi o‘qituvchining pedagogik mahorati va leksiyada qo‘llaniladigan usullarga bog‘liq.

Talabalarning bilish faoliyati yakka tartibda tashkil etilgandagina, talabalar o‘quv materiallarini mustaqil o‘zlashtirishlari, ularning aqliy rivojlanishlari, qiziqishlari, ehtiyojlari, iqtidorlari hamda bilimlarni o‘zlashtirish darajasi hisobga olingandagina, o‘quv topshiriqlarini mustaqil bajarishga muvaffaq bo‘ladilar va bilish faoliyatining subyektiga aylanadilar.

O‘quv topshiriqlarini yakka tartibda bajarish jarayonida talabalarda o‘z bilimi, kuchi va qobiliyatiga bo‘lgan ishonch ortadi. Bu o‘rinda talabalarning bilish faoliyatini tashkil etishda vaqtdan unumli foydalanish yuqori samaradorlikni ta’minlaydi. Modulli ta’lim texnologiyasi, hamkorlikda o‘qitish metodlaridan foydalanib tashkil etilgan darslarda talabalarning bilish faoliyati individual tarzda tashkil etiladi.

Talabalarga ta’lim-tarbiya berishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, ta’lim tizimida pedagogik faoliyat ko‘rsatayotgan har bir o‘qituvchining diqqat markazida bo‘lmog‘i lozim.

Zamonaviy pedagogik qarashlar mezonida, pedagogika oliy o‘quv yurtlarida o‘qitish jarayonini samarali olib borish uchun, unga nisbatan pedagogik texnologiyalarning tamoyillari va mezonlari ko‘lamidagi yondashuvni tashkil etishni taqozo etadi.

Ayni vaqtda Respublikamizning ijtimoiy hayotiga shiddatli tezlikda axborotlar oqimi kirib kelmoqda va ular keng ko‘lamda ta’lim tizimini ham qamrab olmoqda. Axborotlarni tezkor sur’atda qabul qilib olish, ularni tahlil etish, qayta ishlash, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosalash hamda talabaga yetkazib berishni yo‘lga qo‘yish ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ta’lim-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyani tadbiq etish talabalar tomonidan o‘quv hamda mutaxassislik fanlari asoslarini o‘zlashtirilishini ijobiy hal etishga xizmat qiladi.

“Texnologiya” yunoncha so‘z bo‘lib, ***“techne”*** – mahorat, san’at, ***“logos”*** – tushuncha, o‘rganish demakdir. Pedagogik texnologiya atamasiga har bir didakt olim o‘z nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda ta’rif beradi. Hali bu tushunchaga to‘liq va yagona ta’rif qabul qilinmagan. Ushbu ta’riflar ichida eng maqsadga muvofig‘i YUNESKO tomonidan berilgan ta’rif sanaladi.

“Pedagogik texnologiya” – ta’lim shakllarini optimallashtirish maqsadida o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirish jarayonining inson salohiyati va texnik resurslarni qo‘llash, ularning o‘zaro ta’sirini aniqlashga imkon beradigan tizimli metodlar majmuasidir.

O‘rganiladigan mavzuning mazmunini e’tiborga olgan holda darsda (leksiyada) talabalarning kichik guruhlarda mustaqil ishlashi, debatlar tashkil etish, aqliy hujum, didaktik o‘yinlar, taqdimot, o‘z-o‘zini baholash, tashrif kabilardan foydalanishni yo‘lga qo‘yish dolzarb hisoblanadi.

“Gospital pedagogika” o‘quv predmetini o‘qitishda talabalarning bilish faoliyatini individual tarzda tashkil etish, asosan dars bilan birgalikda darsdan tashqari ishlarda ham foydalaniladi. Masalan: talabalarning uy vazifasini bajarishida ularda tafovutlab yondoshish imkoniyatlari mavjud. Talabalarda muayyan mavzular bo‘yicha dokladlar tayyorlash, kurs ishi yozish, konspekt yozish, keys-topshiriqlarini bajarish, multimediali taqdimotlar yaratish, mavzular bo‘yicha (esse) yozish va mashg‘ulotlarning metodik ishlanmalarini tayyorlash va boshqalar shular jumlasidandir.

Masalan: o‘qituvchi “Uzoq muddatli kasal bolalarning o‘ziga xos xususiyatlari” mavzusidagi, irsiy kasalliklar, bolalar populyatsiyasida tarqalishi: tasnifi va klinik ko‘rinishlari, irsiy nuqsonlari bo‘lgan bolalarni o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari va e’htiyot choralari haqidagi ma’lumotlarni, mavzular bo‘yicha tayyorlangan slaydlar, ko‘rgazmali materiallar, taqdimotlar orqali tushuntiradi, talabalarni aktivlashirib dars jarayonini faollashtiradi va talabalarning qiziqishini oshiradi.

“Bolalarda saraton, gematologik kasalligining tarqalishi va umumiy tushunchalari: tasnifi va klinik ko‘rinishlari. Onkologik va gematologik kasalliklarga chalingan bolalarni o‘qitishdagi o‘ziga xos xususiyatlar va e’htiyot choralari. Bolalarda uchraydigan nafas olish kasalliklari haqida umumiy tushunchalar: tasnifi va klinik ko‘rinishlari. Bronxial astma va sil kasalligi bilan og‘rigan bolalarni o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari va e’htiyot choralari” mavzularini talabalarning fikrlash faoliyati va bilimga qiziqishlarini orttirish hamda mantiqiy rivojlantirish maqsadida mavzuni mantiqiy muammoli ko‘rinishda tushuntirishni taklif etadi, ya’ni ilmiy tezislar, muammoli vaziyatlarni hosil qilib ularni talabalarga hal qilishni taklif etadi.

Talabalarning o‘qitish faoliyati kichik guruhlarda tashkil etilganda, guruhlardagi har bir talabaning iqtidori, kiziqishi, bilim saviyasi, bilimlarni o‘zlashtirish darajasi, talabalar o‘rtasida hamkorlik, o‘quv muloqoti, bahs,

munozara, o‘zaro yordamni amalga oshirish ko‘zda tutiladi. “Gospital pedagogika” predmetini o‘qitishda hamkorlikda o‘qitish texnologiyasining barcha metodlaridan, modulli ta’lim texnologiyasining talabalarning kichik guruhlarda ishlashga mo‘ljallangan modul dasturidan foydalanish shular jumlasiga kiradi. Mashg‘ulotlarda talabalarning bilish faoliyati, yalpi o‘qitishni individual va kichik guruhlarda ishlash shakllari bilan uyg‘unlashtirilganda juda yuqori samara berdi. Hamkorlikda o‘qitishning kichik guruhlarda o‘qitish metodida yalpi o‘qitish kichik guruhlar bilan, “Arra metodi”da, “Graf organayzer usullari”dan foydananib talabalarni avval individual tarzda, so‘ngra kichik guruhlarda o‘qitish uyg‘unlashtiriladi.

Bunda:

1. O‘rganilayotgan mavzuning didaktik maqsadi, vazifalari, mazmunidan kelib chiqqan holda tashkil etish shakllaridan o‘z o‘rnida va samarali foydalanish tavsiya etiladi.

2. O‘qituvchi dars o‘tish davrida talabalarga shunday vaziyatni topib qo‘yishi kerakki, bu ularni bor bilimlarini qo‘llash orqali izlanishga, muammoli vaziyatni yechishga xarakat qildirishi lozim. Talabani biror-bir narsaga o‘rgatish mumkin qachonki, talabaga fikr qilishlari uchun sharoit, muhit hosil qilinsa.

Shuning uchun talabalarga o‘zi mustaqil yecha oladigan kichik muammolarni qo‘yish va o‘z kuchiga ishonchini qadamma-qadam oshirib borish lozim.

Hosil qilingan muammoli vaziyatni ham sekin asta murakkablashtirib borish mumkin. Ana shunday usulda talabalar qiyinchiliklarni yengib muammolarni yechib borsalar, muammoni yechgandagi g‘alabadan hursand bo‘lib, qiziqishlari yanada ortadi va natijada chuqur va aniq bilimga ega bo‘ladilar.

3. O‘qituvchi har bir talabaning individual qiziqishini bilishi va uni shunday rivojlantirib borishi lozimki, olayotgan bilimi kelgusida jamiyat uchun va o‘zi uchun foydali ekanligini tushunib yetsin.

4. O‘qituvchi talabalarni hamkorlikda ishlashga, bir-birlarining fikrlariga e’tibor berishga o‘rgatishi lozim.

Ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida “Gospital pedagogika” o‘quv predmetini o‘qitishga tizimli yondashiladi. O‘quv dasturidan o‘rin olgan har bir mavzuning ta’limiy, tarbiyaviy,

rivojlantiruvchi maqsadi hisobga olingan holda, quyidagi dars (leksiya) turlaridan foydalanish tavsiya qilinadi.

“Gospital pedagogika” predmetini o‘qitish jarayonida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan dars turlari.

Dars turlari	Didaktik vazifasi	O‘qituvchining vazifasi
Ma’ruza, darsi va uning mazmuni	Yangi material bilan tizimli tanishish, murakkab tizimlar hodisalarni bayon qilish	O‘qituvchi ma’lum bir nutq texnikasini bilishi materialni mantiqan tizimli, muammoli bayon etishi, ta’lim oluvchilarni pedagogik usullar bilan faollashtirishi lozim
Didaktik o‘yinli dars	Talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish, darslik va qo‘shimcha adabiyotlar ustida mustaqil ishlash, nutq va muloqot madaniyatini rivojlantirish, ularni ongli ravishda bo‘lajak kasbiga yo‘naltirish. Bilish faoliyati o‘yin fao-liyati bilan uyg‘unlashtiriladi	O‘qituvchi o‘yin rejasini tuzishi, vaziyatning mazmuni va qatnashuvchi shaxslarning tavsifnomasini ishlab chiqishi, ishtirokchilarning xarakatini yunaltirishi, yakun yasashi, natijalarni baholashi lozim
Seminar mashg‘uloti va uning mazmuni	O‘quv materialini axborot manbalaridan foydalanib mustaqil o‘rganishlari lozim. Bunday darslar (leksiyalar) talabalarni mustaqil ishlashga, bilimlarini kengayti-rishga va chuqurlashtirishga imkon beradi	O‘qituvchi seminar dars mavzusini tanlashi, talabalarni mustaqil ma’lumotlar olishga yo‘naltirishni tashkil etishi va boshqarishi lozim
Muammoli o‘qitish va uning mazmuni	O‘qitishning dolzarbligi, predmet-ga nisbatan qiziqishni shakllan-tirish, vaziyatdan chiqib keta bilish va to‘g‘ri qaror qabul qilish	Muammoli vaziyatni ishlab chiqish, muammo chegaralarini berish, ta’lim oluvchining faoliyatini ularni hal qilishga yo‘naltirish, yakun yasash, xulosa chikarish
Modul mashg‘uloti va uning mazmuni	Talabalarni darslik va qushimcha adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko‘nikmalari, ijodiy va mustaqil fikrlashni, asosiysini ajrata bilish, konspekt qilish, adabiyotlarni tanlash ko‘nikmalarini shakllan-tirish.	O‘qituvchi modul dasturini tuzadi, dars davomida qaysi moduldan foydalanishni aniqlaydi. Mavzularni bog‘lovchi test topshiriqlari, sxemalar, jadvallar tuzadi, baholash mezonini ishlab chiqadi
Umumlashti-ruvchi ma’ruza	Olingan bilimlarni mus-taxkamlash, o‘zlashtirish va bilimlarni chuqurlashtirish, unumli	Asosiy va yordamchi savollarni berish, umumlashtirish va xulosa qilish, savol-javob usulining texnikasini egallash

	ijodiy tafakkurni rivojlantirish, o‘z fikrini mantiqan bayon etish	
Amaliy mashg‘ulot	Bilimlarni chuqurlashti-rish, o‘rganilayotgan materialni amaliyotda foydalanish uchun mahorat va ko‘nikmalarni ishlab chiqish, takrorlash, mustahkamlash	Har xil turdagi mashqlarni bajarishni tashkil etishni bilish. Vaziyatli masalalarni tuzib chiqish, tajriba, eksperiment texnikasini egallash ko‘nikmala-rini qo‘llash

Quyida ma’ruza darsining mohiyati haqida qisqacha to‘htalib o‘tamiz:

Ma’ruza – o‘quv jarayonining ham usuli, ham shakli hisoblanadi, u talabalarga fan asoslarini og‘zaki, uzviy va muntazam singdirishga xizmat qiladi. Ma’ruza tufayli talaba predmetning mohiyatini tushunib boradi, ularni erkin fikrlashga, fan ustida o‘ylashga majbur etadi. Shu sababli ma’ruza ilmiy tafakkurni rivojlantirishning o‘ziga xos maktabiga aylanadi. Ma’ruza darslarida talabalarda shu fan kelajagiga nisbatan turli qarashlar, ilmiy e’tiqod, g‘oya va milliy mafkura asoslari shakllanadi. O‘qituvchi har bir ma’ruzaning mazmunini fandagi yangiliklar bilan boyitishi va tanlay bilishi lozim. Ma’ruza ijobiy hamkorlikka tayanib tashkil qilingandagina samarali natijalar beradi.

“Gospital pedagogika” predmetini o‘qitishda ta’lim texnologiyalaridan foydalanish mohiyati.

Muammoli ta’lim texnologiyasi juda qadim zamonlardan shakllanib kelmokda. Jumladan, qadimgi Gretsiyada muammoli savol-javoblar, qadimgi Hindiston va Xitoyda muammoli bahs-munozaralardan keng foydalanilgan. Muammoli ta’limni amerikalik psixolog, faylasuf va pedagog Dj.Dyui 1894-yilda Chikagoda tashkil etgan va tajriba maktabida qo‘llagan.

XX asrning 60-yillarida bu yo‘nalishda tadqiqotlar olib borildi. 70–80-yillarga kelib, amaliyotga keng joriy etildi. Muammoli ta’lim texnologiyalari talaba faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan.

Muammoli ta’lim texnologiyasining asosi insonning fikrlashi muammoli vaziyatni hal etishdan boshlanishi hamda uning muammolarni aniqlash, tadqiq etish va yechish qobiliyatiga ega ekanligidan kelib chiqadi.

Muammoli ta’lim talabalarning ijodiy tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini o‘stirishda jiddiy ahamiyatga ega.

Muammoli ta’lim texnologiyasi.

“Gospital pedagogika” o‘quv predmetini o‘qitishda talabalar fikrini rivojlantirish uchun turli vositalardan tashqari muammoli o‘qitish, ko‘rgazmali vositalardan, shuningdek, o‘qitishning texnik vositalaridan keng foydalanish, bilimlarni tizimli nazorat qilish, amaliy mashg‘ulotlarni tashkil qilish, talabalarni o‘qitishda tabaqalashtirilgan yondoshishdan ham foydalaniladi.

Hozirgi fan texnikaning taraqqiyoti sharoitida ta’limning rivojlantiruvchi funksiyasiga talab ortib bormoqda. Shuning uchun o‘qitishda faqat bilimlarning oddiy jamlamasini berish bilan chegaralanib qolish yetarli emas. O‘qitish jarayonida talabalarni fikrlashga o‘rgatish muhim ahamiyatga ega. Bu vazifani hal qilishda hozirda mavjud bo‘lgan metodik usullar ichida muammoli ta’lim yanada samarali hisoblanadi.

Muammoli o‘qitish bu rivojlantiruvchi o‘qitish bo‘lib, talabalarning bilimlarni tushunib olishga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga qaratilgan.

Amaliyotning ko‘rsatishicha, talabalarda nimanidir tushunishga bo‘lgan ehtiyoj, muammoli o‘qitish paytida yaqqolroq namoyon bo‘ladi.

O‘z navbatida o‘qituvchi oldida muammoli o‘qitish doirasida undan qachon va qanday foydalanishni aniqlash vazifasi turadi. O‘qituvchining qo‘ygan muammosini talabalar hal qilishda qiynalmasliklari zarur. Muammoli o‘qitishni amalga oshirishda asosiy vazifa mazmunni tahlil qila olish, undagi muammoni aniqlay olish, so‘ngra ularni bir-biriga bo‘ysundirish tartibida tuzishdan iborat. Bunday holda muammoli o‘qitishdan foydalanish tizimlikka ega bo‘ladi. Bu esa fikrlashni, idrokni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

“Gospital pedagogika” o‘quv predmetidagi “Surunkali somatik kasalliklarga chalingan bolalar, sil kasalligi aniqlangan bolalar, organlar transplatatsiyasidan keyingi bolalar va boshqalar” mavzusida, kasalliklar tashqi omillar ta’sirida yuzaga chiqishi mumkinmi? Ular nasldan-naslga beriladimi? Sil kasalligi aniqlangan homilador ayolning tug‘iladigan bolasi sog‘lom tug‘ilishi mumkinmi? Bunday kasalliklarga chalingan bolalarni davolash usullari, davolangandan keyingi reabilitatsiyadan o‘tish davrlari qanday? Kasalxonada uzoq muddatli davolanish vaqtida bolalarni o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat – degan muammolar paydo bo‘ladi.

Demak, “Gospital pedagogika” o‘quv predmetini o‘qitishning har bir bosqichida talabalar o‘zlarining predmet bo‘yicha tayyorgarlik darajasiga va fikran rivojlanganligiga qarab turli muammolarni hal qilib beradilar.

Muammoli o‘qitish dasturining belgilari quyidagilardan iborat:

- muammoli vaziyatlar soni;
- subyektning muammoni hal qila olishiga tayyorgarligi;
- muammolarni turli yo‘l bilan hal qilishning imkoniyatlari va boshqalar.

Muammoli yondoshishni amalga oshirishda quyidagi bosqichlar mavjud:

1-bosqich. Muammoni qabul qilishga tayyorlash. Bu bosqichda talabalar muammolarni hal qila olishlari uchun ularga zaruriy bilimlar beriladi.

2-bosqich. Muammoli vaziyatni yaratish. Bu muammoli yondashuvning eng qiyin va javobgarlikni talab qiluvchi bosqichi hisoblanadi.

3-bosqich. Muammoni tartibga solish. Bu yuzaga kelgan muammoning natijasidir. U talabalarning izlanish yo‘nalishini qaysi savolga javob izlash lozimligini ko‘rsatib beradi. Bu o‘qituvchi tomonidan talabalar oldiga qo‘yiladigan bilish vazifasidir. Agar talabalar muammolarni hal qilishiga tizimli yondoshsalar, ularning o‘zlari muammolarni yaratishlari mumkin.

4-bosqich. Muammoni hal qilish jarayoni. U bir necha pog‘onalardan iborat:

a) g‘oyani ilgari surish;

b) har bir g‘oyani hal qilish uchun reja tuzish;

v) g‘oyaning tasdig‘i yoki tasdiqlanmasligi.

5-bosqich. Muammoni hal qilish yo‘lining to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligi, agar mumkin bo‘lsa uni amaliyotda aniqlash. Muammoli vaziyatni yaratish o‘qituvchidan katta mahorat talab etadi. Shuning uchun uslubchilar unga katta e’tibor bilan qaraydilar.

“Gospital pedagogika” predmetini o‘qitishda muammoli vaziyatni yaratish uchun quyidagi usullardan foydalanish taklif qilinadi:

- talabalarga ma’lum bo‘lmagan va tushuntirish uchun qo‘shimcha ma’lumot talab etuvchi bir qator dalillarni berish yoki namoyish etish hamda ularda yangi bilimni egallashga intilishni paydo qilish;
- avval o‘rganilgan nazariya va qonunlar asosida yangi bilimlarni tushuntirish;
- ma’lum nazariya asosida g‘oya yaratiladi, so‘ngra bu g‘oyaning to‘g‘riligi amaliyotda sinab ko‘rilib, ishonch hosil kilinadi;
- vazifani bajarish sharoiti va ohirgi maqsadi berilib, uni hal qilishning eng qulay usulini topish so‘raladi;
- berilgan sharoitda vazifani mustaqil bajarish so‘raladi.

Bu vazifa ijodiy hisoblanib, uni hal qilish uchun leksiyalarda (darslarda) o‘rganilganlarning o‘zi yetarli bo‘lmaydi. Talabalar uyda o‘ylab ko‘rishi, qo‘shimcha adabiyotlarni va ma’lumotlarni o‘qishi tavsiya qilinadi.

Masalan:

1. Ayrim kasalliklarni rivojlanishida tashqi omillar bilan irsiyatning ahamiyati haqida nima deya olasiz?

2. Qandli diabetga moyilligi bo‘lgan bemor bolaning reaksiya normasi tashqi yoki ichki omillarga bog‘liqmi? Agar tashqi omillarga bog‘liq bo‘lsa, nimalar organizmni kasallikka olib keladi?

3. Ko‘pgina yosh va o‘smir bolalarda onkologik “saraton” kasalliklarining har xil turlarining paydo bo‘lishida asosiy omillar nimalardan iborat? Tashqi muhitmi yoki irsiy omillarmi?

Ba’zan vaziyatli holatlarni keltirib chiqarish ham tavsiya qilinadi. Bundan asosiy maqsad: talabalar nazariy tomondan o‘rgangan bilimlarini qayta qaytarib chiqadilar. Savollar orqali berilgan muammolarni hal qiladilar va mavzuni amaliyot bilan bog‘laydilar.

Masalan:

1. Salomatlik tushunchasining ahamiyati? Bolalar salomatligining zamonaviy muammolari nimalardan iborat? Kasalxonalarda tashkil etilgan maktablarda kasal o‘quvchilar bilan ishlaydigan o‘qituvchilarga qo‘yiladigan talablar nimalardan iborat? O‘zbekiston Respublikasining ta’lim va sog‘liqni saqlash soxasidagi davlat siyosati va qonunlarining ahamiyati nimalardan iborat?

2. Saraton (miya shishi,gematologik va autoimmun kasalliklari) bilan og‘rigan maktab o‘quvchilari bilan mashg‘ulotlar o‘tkazish tamoyillarining asosiy mohiyatlari nimalardan iborat.

3. Ichki sekretsiya bezlari (qandli diabet), nafas olish organlari (sil va bronxal astma) kasalliklari bilan og‘rigan maktab o‘quvchilari bilan mashg‘ulotlarni olib borish tamoyillari haqida nimalarni bilasiz?

4. Genetik (irsiy) kasalliklarga chalingan maktab o‘quvchilari bilan mashg‘ulotlarni olib borish tamoyillari nimalardan iborat? Tayanch-xarakat tizimi kasalliklari bo‘lgan bolalarning ta’lim extiyojlari va imkoniyalari haqida nimalarni bilasiz?

Muammoli ta’lim bilan hech qanday aloqasi bo‘lmagan o‘ylab ko‘rish, o‘ylab topish, g‘oya aytish kabi pedagogik vaziyatlarni farqlab berish o‘qituvchining vazifasidir.

O‘qituvchining savollari albatta muammoli tavsifga ega bo‘lishi lozim. Muammoli vaziyatni yaratish va qo‘yilgan vazifalarni hal qilishda, avvalo o‘qituvchining o‘zi namuna bo‘lishi lozim. Bahsni yaxshi uyushtirish, jiddiy nazariy tayyorgarlikni va o‘quv predmet bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lishini talab etadi. Muammoli o‘qitishning eng foydali tomoni shundan iboratki, u kuchli rivojlantiruvchi ta’sirga ega va bunda talabalar o‘z bilimiga ishonch hosil qilishga, mustaqillikka o‘rganadilar. O‘z kuchlariga ishonch hosil qiladilar. Bunday yondashish ancha emotsional xarakterga ega bo‘lganligi sababli talabalarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarini orttiradi, kuchli tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa o‘z navbatida o‘ziga bo‘lgan ishonchni va dunyoqarashni shakllantiradi, bilimni mustahkamlaydi.

Chunki mustaqil izlanish yo‘li bilan egallangan bilim tayyor holda olingan bilimga nisbatan ongda uzoq muddat saqlanib qoladi.

Muammoli ta’limni amalga oshirish natijasida talabalar yangi bilimlarni egallaydilar, o‘zlariga ma’lum bo‘lgan tushuncha va dalillar o‘rtasidagi yangi bog‘lanishlarni aniqlaydilar. Muammoli o‘qitishdan talabalarning intellektual imkoniyatlarini aniqlash usuli sifatida ham foydalanish mumkin. O‘qitishning muammoli usulidagi kamchilik fikrlay olish jarayonini zaif boshqarishdir. Biroq uning ustunlik tomoni shundaki, ijodiy fikrlash, mustaqillikni, erkinlikni talab etadi. Aniq bir natijaga talabalar turli vaqtda yetib keladilar.

Shu sababli bu metodik uslub boshqa uslubga nisbatan o‘qituvchidan ko‘proq o‘z ustida ishlashni va katta mas’uliyatni his qilishini talab qiladi. Talabalarning fikrlash tezligini o‘zaro tenglashtirish xolatida o‘qituvchidan ijodkorlikni talab qiladi.

Muammoli ta’limda asosiy bosqich muammoli vaziyatni turli usullar bilan yuzaga keltirishdan iborat. Muammoli o‘qitishda o‘qituvchining dars berish usuli o‘zgaradi.

Modul ta’lim texnologiyasi.

Talabalarda darslik, ilmiy-ommabop va qo‘shimcha adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko‘nikmalarini, ijodiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirish maqsadida modulli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish mumkin. Modulli ta’lim texnologiyasining o‘ziga xos jihati, o‘qituvchi o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha talabalarning mustaqil va ijodiy ishlashlariga imkon beradigan modul dasturini tuzadi. Talabalar modul dasturi yordamida mustaqil va ijodiy yondashgan holda ishlab darsning (leksiyaning) ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadiga erishadilar.

O‘qituvchi esa talabalarni boshqarib, motivatsiya qilib, nazorat qilib turadi. Bu usulning afzalligi yana shundaki, darsga tayyor bo‘lmagan talabalar ham dars davomida harakat qilib, kitobdan foydalanib ma’lum bilimga ega bo‘ladilar.

Akademik Yu.K.Babanskiyning fikricha, “Modulli o‘qitish ilmiy axborotni talabalarga yetkazibgina emas, balki yangi o‘quv materialining asosiy elementlarini o‘zlashtirish va bunda talaba faqat odatdagi umumiy ta’lim ko‘nikmalariga ega bo‘libgina qolmasdan, balki ixtirochilik xarakteridagi ko‘nikmalarga ega bo‘lishi ko‘zda tutiladi”. Modulli o‘qitishning asosiy maqsadi, talabalarning puxta bilim olishga erishishidir.

T.N.Qori-Niyoziyning ta’kidlashicha, ma’lumot berishdan ko‘ra, o‘quvchining (talabaning) mantiqiy muhokama qobiliyatini rivojlantirish, cheksiz marotaba afzaldir.

Modulli ta’lim jarayonida o‘qituvchi talabalar uchun yangi bilimlarni beribgina qolmay balki, shu bilimlarni mustaqil o‘rganishga va o‘zini obyektiv baholashga, mustaqil holda fikr yuritishga o‘rgatadi. Talabalar berilgan topshiriqlarni o‘zlari bajarib yana bir-birlariga yordam ham beradilar. Bu bilan o‘qituvchi ularni hamkorlikda ishlashga undaydi. Dars (leksiya) davomida o‘qituvchi talabalarni juda ko‘p marotaba baholashi mumkin. Xatto ikki baho ham talaba tomonidan oddiy qabul qilinadi va uni to‘g‘rilash uchun talaba mustaqil holda yana shu mavzu ustida ishlab, ancha yuqori natijalarga erishishi mumkin. Uy vazifasi bajarilgan ishga qarab beriladi.

Agar talabalar hamma savollarga javob bersalar ular uchun uy vazifasi berilmaydi. Agar chala qolgan savollar bo‘lsa, ular bu ishlarni uyda bajarib keladilar. Bunday darsga tayyorlanish o‘qituvchidan ancha mehnat va vaqt talab qiladi. Lekin talabalar uchun tayyorlangan modul tarqatmalaridan o‘qituvchilar bir necha marotaba darslarda foydalansalar bo‘ladi.

Talabalarning modul dasturi vositasida mavzu mazmunini mustaqil o‘rganish asnosida asosiy g‘oyani ajratish, mantiqiy fikrlash, fikrini bayon e’tish va asoslash ko‘nikmalarini rivojlantirish, o‘zaro hamkorlik va muloqotga kirishish, ilmiy dunyoqarashi, tafakkurini kengaytirish, kasbiy tayyorgarlik darajasini orttirish imkoni vujudga keladi.

Misol tariqasida “Gospital pedagogika” fanidan “Uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar uchun ta’limni tashkil etish” mavzusini modul texnologiyasi asosida o‘qitilishini ko‘rib chiqamiz.

Mashgulotning ta'limiy maqsadi: Talabalarning mavzuga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish, ularning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, shuningdek, talabalarning insonparvarlikka yo‘naltirilgan kasbiy dunyoqarashini, alohida yondashuvlarini va etiborga muhtoj bolalar muammolarini tushunishni rivojlantirish ko‘nikmalarini mustahkamlash.

Mashgulotning tarbiyaviy maqsadi: Tibbiyot muassasalarida uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalarni o‘qitishning asosiy tarbiyaviy omillari, uzoq muddatli davolanayotgan bolalar uchun ta'lim muhitining tarkibiy qismlari va ularni tashkil etish xususiyatlari haqidagi ma'lumotlarni bilish. Tibbiyot muassasalarida bolalarni o‘qitish uchun sotsial sharoitlarni yaratishning ahamiyatini tushunish.

Mashgulotning rivojlantiruvchi maqsadi: O‘quv jarayonida talabalarning aqliy kamoloti, kognitiv qobiliyatlari, o‘qish va mehnatga munosabatini rivojlantirish. Darslik va ilmiy adabiyotlar bilan mustaqil ishlash malakalarini oshirish.

“Uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar uchun ta'limni tashkil etish” mavzusini modul texnologiyasi asosida o‘qitish.

O‘quv faoliyatining elementlari (O‘FE’)	**Talabalar o‘zlashtirishlari kerak bo‘lgan o‘quv materialiga topshiriqlar**	**Vazifani bajarish bo‘yicha ko‘rsatmalar**
O‘FE’-1	Maqsad: “Tibbiyot muassasalarida uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalarni o‘qitishning asosiy tarbiyaviy omillari” mavzusi bo‘yicha: kasalxona huzuridagi ta'lim maktablarining vazifalari, uning turlari, o‘quv rejasi va o‘qitishni tashkillashtirilishi haqidagi ma'lumotlarni o‘tganish. Darslikda berilgan materialni diqqat bilan o‘qing va quyidagi savollarga javob bering. 1. Tibbiyot muassasalari huzuridagi umum ta'lim maktablarining asosiy vazifalari nimalardan iborat? 2. Tibbiyot muassasalarida uzoq muddat davolanayotgan bolalarni tarbiyaviy ta'minlashning qanday shakllari va usullarini bilasiz? 3. Tibbiyot muassasalari qoshidagi umumiy ta'lim maktablarini tashkil etilishining sabablari? 4. Tibbiyot muassasalari qoshidagi umumta'lim maktablari mutaxassisliklariga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi? 5. Tibbiyot muassasalari huzuridagi umumta'lim maktablarida umumiy o‘rta ta'lim qanday shaklda olib boriladi?	Talabalar darslik bilan ishlaydilar Javoblaringizni asoslab bering, talabalar juftlikda ishlashlari mumkin

	6. Tibbiyot muassasalari huzuridagi umumta’lim maktablarining o‘quv rejasi kimning buyrug‘i bilan tasdiqlanadi? 7. Tibbiyot muassasalari qoshidagi umumta’lim maktablarining faoliyati va ularda o‘quv jarayonini sifatli tashkil etilishiga kimlar javobgar?	
O‘FE’-2	Maqsad: “Uzoq muddatli davolanayotgan bolalar uchun ta’lim muhitining tarkibiy qismlari va ularni tashkil etish xususiyatlari” mavzusini o‘rganib chiqing. Darslikda berilgan mavzularni diqqat bilan o‘qing, ta’limning tarkibiy qismlari aniqlang va savollarga javob bering: 1. Tyutorlar faoliyati qaysi qonun bilan belgilangan? 2. Tyutor so‘zining ma’nosini tushuntirib bering? 3. Tyutor faoliyatining asosiy yo‘nalishlari sanab bering? 4. Saraton kasalligiga chalingan bolalarning asosiy ehtiyojlari nimalardan iborat? 5. Individual ta’lim jarayonidagi tyutorning roli? 6. Psixologik—tibbiy—pedagogik yordam berishda tyutorning vazifalari nimalardan iborat? 7. Uzoq muddatli davolanayotgan bolalar uchun tyutor yordamining tarkibiy qismlarini sanab o‘ting?	Talabalar darslik bilan ishlaydilar Javoblaringizni asoslab bering, talabalar juftlikda ishlashlari mumkin
O‘FE’-3	Maqsad: “Tibbiyot muassasalarida bolalarni o‘qitish uchun maxsus sharoitlarni yaratish” mavzusini o‘rganib chiqing. Darslikda berilgan mavzuni diqqat bilan o‘qing, ta’limning maxsus tarkibiy qismlarini aniqlang va savollarga javob bering: 1. Uzoq muddatli davolanishni talab qiladigan bolalar o‘rtasida eng ko‘p tarqalgan kasalliklarning turi? 2. O‘zbekiston Respublikasida bolalar o‘rtasida kasalliklarning kupayishiga nimalar sabab bo‘lmoqda? 3. Jismoniy va psixologik holatiga ko‘ra, uzoq muddatli davolanayotgan bolalar necha guruhga bo‘linadilar, ularni ta’riflang? 4. Trening shakli va mazmunini belgilashda nimalarga ahamiyat qaratiladi? 5. Ta’lim dasturini amalga oshirishning muvafffqiyati nimaga bog‘liq va unga qanday erishiladi? 6. Ta’limni tashkil etish shakllari va mashg‘ulotlar qaysi sharoitlarda to‘xtatilishi mumkin?	Talabalar mustaqil holda darslik bilan ishlaydilar va mavzuni o‘rganadilar Javoblaringizni asoslab bering, talabalar juftlikda ishlashlari mumkin
O‘FE’-4	Maqsad: “Shifoxona maktablarini tashkil etish va ular faoliyatining umumiy qonuniyatlari. Tibbiyot muassasalarida uzoq muddatli davolanayotgan bolalar bilan ishlashda pedagogik faoliyatni individuallashtirish usullari, o‘qituvchining o‘rni va darslar davomiyligi” mavzularini daqqat bilan o‘rganib chiqing. Darslikda keltirilgan materialni diqqat bilan o‘qing va quyidagi savollarga javob bering:	Talabalar mustaqil holda darslik bilan ishlaydilar va mavzuni o‘rganadilar

	1. Shifoxona maktablari nima uchun tashkil qilinadi? 2. Kasalxona sharoitida ta’lim necha usulda tashkil etilishi mumkin? 3. Rossiya Federasiyasidagi shifoxona maktablari, “UchimZnaem” maktabidagi darslarga ta’rif bering? 4. Dunyodagi shifoxona maktablari haqida gapirib bering? 5. Ta’limni individuallashtirish nima uchun kerak? 6. Tibbiyot muassasalarida o‘qituvchilarning o‘rni va roli. Darsning davomiyligi haqida nimalarni bilaiz? 7. Tibbiyot muassasalarida uzoq muddatli davolanayotgan bolalarning ta’limini tashkil etishda huquqiy munosabatlari qanday?	Javoblaringizni asoslab bering, talabalar juftlikda ishlashlari mumkin Munozara va baxslarda ishtirok eting
O‘FE’-5	Maqsad: “Ota-onalar tibbiyot va ta’lim tashkilotlari uchun manba sifatida. Tibbiy e’htiyoji bo‘lgan bolalarni o‘qitish texnologiyalari” mavzularini mustaqil holda o‘rganib chiqing. Darslikda keltirilgan materialni diqqat bilan o‘qing va quyidagi savollarga javob bering: 1. Ta’lim tizimini modernizatsiya qilish sharoitida maktab va oila o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning zarurligi nimada? 2. Oila va maktab o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar nimalardan iborat va nimaga tayanadi? 3. Ota-onalarni ta’lim muassasasi faoliyatiga jalb qilishning ahamiyati nimalarda deb o‘ylaysiz? 4. Oila va maktab o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning asosiy yo‘nalishlarini sanab o‘ting? 5. Konsultasiyalarning ahamiyati nimadaligini tushuntirib bering? 6. Ma’ruzalarning roli haqida gapirib bering? 7. Praktikum (Seminarlar)ning — bolalarni tarbiyalashda ota-onalarning pedagogik mahoratini rivojlanti-rishdagi o‘rni nimada? 8. Ochiq darslarning ahamiyatining o‘rni haqida gapirib bering? 9. Oila va maktab o‘rtasidagi hamkorlikning noan’anaviy shakllariga nimalar kiradi? 10. Ota-onalar majlisi qanday komponentni o‘z ichiga oladi?	Talabalar mustaqil holda darslik bilan ishlaydilar va mavzuni o‘rganadilar Javoblaringizni asoslab bering, talabalar juftlikda ishlashlari mumkin Munozaralarda ishtirok eting
O‘FE’-6	Maqsad: “Tibbiyot muassasalarida o‘qituvchilar duch keladigan qiyinchiliklar. Turli xil ta’lim resurslarini qo‘llash va uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalarni o‘qitishda masofaviy ta’lim texnologiyalari” mavzularini mustaqil o‘rganib chiqing. Darslikdagi mavzularni diqqat bilan o‘qing va quyidagi savollarga javob bering: 1. Ota-onalarning so‘rov natijalarining tahlili nimalarni ko‘rsatib berdi? 2. Nima sababdan ota-onalar bilan ishlash o‘qituvchining pedagogik faoliyatidagi eng qiyin vazifalaridan biri hisoblanadi?	Talabalar mustaqil holda darslik bilan ishlaydilar va mavzuni o‘rganadilar

	3. Oila va maktab o‘rtasidagi hamkorlikning muvaffaqiyati nima tufayli ta’minlanadi? 4. O‘qituvchining javobgarligi nimalardan iborat? 5. Tyutorning vazifalariga nimalar kiradi? 6. Turli xil ta’lim resurslarini qo‘llash va uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalarni o‘qitishda masofaviy ta’lim texnologiyalari haqida nimalarni bilasiz? 7. O‘qitish usulining ahamiyati nimada? 8. Keys texnologiyasi, internet-texnologiyasi va telekommunikatsion texnologiyalarning rolini gapirib bering? 9. Masofaviy ta’limning muhim tomonlari nimalardan iborat? 10. Masofaviy ta’limda o‘qituvchi harakat-larining ahamiyati nimada? 11. Talabalarning harakatlari natijasida nimalarga erishiladi? 12. Alohida ta’limga muhtoj bolalarning shaxsiy xususiyatlari va kognitiv rivojlanishi uchun integratsiya tizimining afzalliklari nimada?	Javoblaringizni asoslab bering, talabalar juftlikda ishlashlari mumkin Munozaralarda ishtirok eting
O‘FE’-7	Modul texnologiyasi mashg‘ulotini yakunlash. Bilimingizni tekshirish uchun o‘qituvchi tomonidan berilgan test savollariga javob bering.	Mavzu bo‘yicha bilimingizni sinab ko‘ring

Modulli o‘qitish texnologiyasining samaradorligi, uning sifati va talabalarni mustaqil ishlashga odatlantirishi — o‘qitishning inkor etib bo‘lmaydigan qulay xususiyatlaridan bo‘lib, unga intilish kerak. Shuning uchun modulli o‘qitish texnologiyasi innovatsion va dinamik pedagogik ta’lim texnologiyasi bo‘lib, uni ko‘plab ta’lim muassasalari talabalarning ta’lim jarayonini tashkil qilish uchun qabul qilmoqdalar.

Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish va bilimlarini nazorat qilish.

Mustaqil ishlarni tashkil etish.

Talabalarning mustaqil ishi o‘qitish jarayonining ajralmas elementi hisoblanadi. P.I.Pidkasistiy fikricha, talabaning o‘quv jarayonida bilim olish bilan bog‘liq bo‘lgan har qanday mustaqil faoliyati mustaqil ish hisoblanadi. Mustaqil ishsiz o‘qitish va talabalarning mustaqil ishlar birligini ta’minlash mumkin emas. Mustaqil ishlashni o‘qitish metodi, deb hisoblash mumkinmi? – degan savolga ba’zan o‘quv ishni tashkil qilish formalari, o‘qitish turlari va o‘qitishni amaliy metodlari qatoriga kiritishadi.

N.A.Sokolova va O.V.Martыsevich: mustaqil ishlarni ta’limning eng muhim qismlaridan biri ekanligini, o‘qituvchi talabalarning bilish faoliyatining koordinatoriligini, yangi materialni o‘zlashtirish samaradorligi esa talabalarning o‘z harakatlariga bog‘liqligi haqida fikr yuritishgan.

Talabaning ijodiy bilish faoliyatini aktivlashtirish muammosi ularning mustaqil ishini tashkil etish masalasi bilan chambarchas bog‘liq.

V.P.Yesipov ta’rificha, talabalarning mustaqil ishi, o‘qituvchining bevosita ishtirokisiz ammo o‘qituvchining topshirig‘iga binoan maxsus ajratilgan vaqtda bajariladigan ishidir.

Shunday qilib, talabalarning o‘quv topshiriqlarini o‘qituvchining bevosita boshqaruvisiz bajarishi, mustaqil ishlash metodlarining eng xarakterli xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Mustaqil ishlash talabalar tomonidan darsda (leksiyada) yangi material matnini o‘rganish, mashqlarni bajarish, masalalarni yechish, tajribalar, kuzatish o‘tkazish, axborot resurslari bilan ishlab referatlar, ma’ruzalar, preznatsiyalar tayyorlash va shu kabilar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Mustaqil ish metodlari o‘quv-bilish faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish metodlarining kichik gruppasiga kiritiladi. Bu metodlarga darslik va qo‘shmcha adabiyotlar bilan ishlash, yozma ishlarni mustaqil bajarish, esse-hikoya yozish va ishlab chiqarish topshiriqlarini mustaqil bajarishlar kiradi.

Mustaqil ishlar o‘qitishdagi ta’lim va tarbiyani birgalikda amalga oshirishda katta yordam beradi. Reja asosida kiritilgan mustaqil ishlar talabalarga bilim va ko‘nikmalarni mustaqil egallashga, ularni chuqurlashtirishga, mustahkamlashga va takrorlashga yordam beradi. Ular ayniqsa amaliy o‘quv ko‘nikmalari va malakalarini yaxshiroq o‘zlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Mustaqil ishlash talabalarni mustaqil mehnat faoliyatiga tayyorlashda katta ahamiyatga egadir. Tarbiyaviy rejada ular shaxsning mustaqillik, bilim aktivligi, mas’uliyat, aktiv hayotiy pozitsiya tipidagi muhim hislatlarni tarbiyalashga yordam beradi. Mustaqil ishlar tafakkur, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishga yordam beradi. Shaxsning irodasini chiniqtiradi.

Darslik yordamida mustaqil ishlash metodidan foydalanish ko‘nikmasini rivojlantirishda, darslarda va darsdan tashqari darslik bilan muntazam ishlash, ayniqsa qimmatlidir. Ayrim mutaxassislarning fikricha, o‘quv materialini tushuntirishda, talabalardan darslikni yopib qo‘yishni talab qilmasdan, balki aksincha ulardan mavzularni diqqat bilan o‘qishni, qiynalishganida savollar

berishni, paragrafdan asosiy mag‘zni fikran ajratishni, darslikda berilgan vazifalar (rasm, sxema va jadvallar) bilan ishlashni va shu kabilarni iltimos qilish kerak.

Mustaqil ish metodi talabalarning uy vazifalarini bajarishda keng qo‘llaniladi. Uy vazifalarini shoshma-shosharlik bilan bermay, balki ularni mufassal tushuntirish, tug‘ilishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarni ko‘rsatish, ularning oldini olish bo‘yicha maslahatlar berish, ularni bajarish ustidan nazoratni kuchaytirish singari elementar pedagogik talablarga e’tibor berish kerak.

“Gospital pedagogika” predmetini o‘qitishda talabalarning bilish faoliyatini tashkil etishda mustaqil ishlar muhim o‘rin tutadi.

Mustaqil ishlar – bilimlarni o‘zlashtirish va malakalarni egallash maqsadida har xil darajadagi o‘quv topshiriqlarni mustaqil bajarishga yo‘llangan, talabalarning o‘quv faoliyatidir. Mustaqil ishlarni tashkil etishning muhim sharti uning didaktik maqsadi, talabalar bajarishi lozim bo‘lgan o‘quv topshiriqlari, topshiriqlarni bajarish bo‘yicha ko‘rsatmalar, o‘rganiladigan bilim manbai aniq ko‘rsatilishi kerak.

Mustaqil ishlarning didaktik maqsadiga muvofiq, talabalar, o‘quv topshiriqlarini bajarish orqali, ta’lim mazmunining ma’lum bir qismini mustaqil egallashlari lozim. Mustaqil ish turlarini turli mezonlarga ko‘ra tasniflash mumkin, masalan, didaktik maqsad, o‘quv faoliyatining xarakteri, mazmuni, mustaqillik darajasi, ijodkorlik elementi va boshqalar.

Didaktik maqsadlarda odatda quyidagi mustaqil ish turlari ajratiladi:

1. Yangi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish mustaqil ish, jumladan, darsliklarni o‘rganish, tajriba va kuzatishlar o‘tkazish, shuningdek, analitik va hisoblash ishlarini bajarish orqali amalga oshirilishi mumkin.

2. Tushunchalarning xususiyatlarini aniqlashtirish, ularni cheklash, shuningdek, muhim xususiyatlarni, muhim bo‘lmaganlardan ajratishga qaratilgan mashqlar tizimini qo‘llash orqali bilimlarni mustahkamlash va aniqlashtirish mumkin.

3. Bilimlarni amaliyotda qo‘llash malakalarini shakllantirish turli darajadagi va tipdagi masalalarni yechish, tajriba-sinov ishlarini bajarish va shu kabi boshqa vazifalarni bajarish orqali erishiladi.

4. Ijodiy malakalarni shakllantirish insho, referat, ma’ruza va boshqa ijodiy ishlar yozish orqali amalga oshiriladi.

Ta’lim muassasasida o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalar talabalarga uy vazifalarini uyushqoqlik bilan va tizimli ravishda berish bilan qo‘llab-quvvatlansa, o‘rganish samarali deb hisoblanishi azaldan ma’lum. Uy vazifasi mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Pedagogika oliy o‘quv yurtlarida o‘qitiladigan “Gospital pedagogika” predmetining o‘quv dasturida mustaqil ta’lim (amaliy va seminar) mashg‘ulotlar uchun 30 soat vaqt ajratilgan.

Ajratilgan soatlarining asosiy maqsadi, talabalar amaliy, seminar mashg‘ulolarini, namuna mashqlarini, “Case-studies” – (taxlil qilish maqsadida bor materiallar asosida talabalar uchun ishlab chiqilgan o‘quv mashqlarini), mustaqil ta’lim (fan mavzulariga oid qo‘shimcha adabiyotlarni, internet ma’lumotlarini va ilmiy jurnallarni) va mustaqil ishlarni bajarishlari lozim. Mavzularga oid qo‘shimcha topgan ma’lumotlari bilan o‘roqlashadilar ular asosida referatlar va dokladlar tayyorlaydilar va “Gospital pedagogika” o‘quv fani bo‘yicha ilmiy nuqtayi nazaridan o‘z bilimlarini oshirib, kengaytirib boradilar.

Talabalar mustaqil ta’limda bilimlarini oshirish va mustahkamlash maqsadida qo‘shimcha quyidagi topshiriqlarni bajarishlari mumkin:

- mavzu bo‘yicha test savollarini tuzish;
- darslik va o‘quv qo‘llanma materiallari bo‘yicha fan boblari va ma’ruzalarni o‘rganish; tarqatma materiallar ma’ruzalar qismini o‘zlashtirish; qo‘shimcha adabiyotlar bo‘yicha mavzular ustida ishlash; esse (insho yozish) dolzarb mavzu bo‘yicha shaxsiy fikrlarini yozma bayoni.

Bunda talaba o‘zi uchun qulay va kiziqarli bo‘lgan topshiriqlarning xoxlaganini tanlab olib, reja bo‘yicha ajratilgan mustaqil ta’lim soatlarining umumiy sonini bajarib berishi lozim.

Shunday qilib, talabalarning mustaqil ta’lim ishlari talabalarning bilish faoliyatini tarkibiy qismi bo‘lib, ular, mazkur faoliyatni tashkil etilishi, foydalaniladigan o‘quv vositalari, mustaqil bajarilgan darajasi, didaktik maqsadiga ko‘ra tasniflanadi.

O‘qituvchi o‘rganilayotgan mavzuning didaktik maqsadi, mazmuni, talabalarning tayyorgarlik darajasiga muvofiq holda mustaqil ishlarni o‘z o‘rnida va samarali tashkil etishi lozim.

Talabalar bilimini nazorat qilish.

Pedagogika oliy o‘quv yurtlari talabalarining bilimini nazorat qilishda, test savollaridan foydalanish, qisqa muddatda har bir talabaning qobiliyati,

xotirasi va fikrlash tezligini aniqlash imkoniyatini beradi. Bu talabalarga yakka holda yondashish, ya'ni ularning har biriga tanlagan kasbiga bo‘lgan qiziqishini oshirishga imkoniyat beradi.

"Test" atamasi inglizchadan olingan bo‘lib, *"tekshirish, tadqiq etish, sinab ko‘rish"* degan ma'noni anglatadi.

Test – bu qisqa, standart va odatda vaqt bilan chegaralangan sinovdir. Sinov natijasiga ko‘ra, bajaruvchining ba'zi bir tavsifi, shuningdek uning bilimi, ko‘nikmasi va malakasi haqida xulosa chiqarish mumkin.

Hozirda qo‘llaniladigan testlar B.Nemerko iborasi bilan aytganda "Ta'limning ma'lum qismi mazmuniga moslashtirilgan, ularni bajarish natijasi asosida talabalar tomonidan ana shu mazmun qay darajada o‘zlashtirilganligini aniqlashga imkon beradigan topshiriqlar majmuasidir".

Test tanlash va uning strukturasi (savollar, tavsiyalar, chizmalar) o‘qituvchini qaysi omillar qiziqtirishiga bog‘liq bo‘ladi. Testlar qo‘llaniladigan o‘qitish maqsadiga bog‘liq ravishda ma'lum mezonlarga javob berishi kerak.

Jumladan:

1. Dalillar va ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni bilish.
2. Nazariy va amaliy muammolarni yechish.
3. O‘z-o‘zini baholash.
4. Bilimlarni yangi sharoitda mustaqil qo‘llay olish.

Testlar qo‘llanilayotganda, imkoni boricha, to‘rtta umumiy mezonni inobatga olishga harakat qilish kerak. Testdagi topshiriqlar soni material hajmiga, ko‘zda tutilayotgan tekshiruvning qanchalik oydinlashganiga va qancha vaqt ichida o‘tkazishga mo‘ljallanganligiga bog‘liqdir.

Test topshiriqlari qisqa muddatda talabalarning bilim darajasi, ko‘nikma va malakalarini o‘lchash yoki aniqlashga imkon bersagina, bu usul muvaffaqiyatli hisoblanadi. Ayni predmet uchun qo‘llanayotgan test yordamida faqat bilim darajasi aniqlansa, boshqa mezonlar inobatga olinmagan bo‘lsa yoki xotiranigina aniqlab, o‘quv predmetini qay darajada bilishini aniqlashga imkon bermasa, u muvaffaqiyatsiz tuzilgan hisoblanadi. Testning ikkinchi o‘ziga xos tomoni shundan iboratki, ichki kelishilganligi asosida uning unsur va topshiriqlari ayni predmetning nechog‘lik o‘zlashtirilganligini aniqlashga xizmat qilishi lozim.

Hozirgi vaqtda, bu jarayonda, statistik va didaktik mashinalar keng joriy etilayotganligi munosabati bilan, javobi tanlanadigan test topshiriqlarini qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Javobi tanlanadigan topshiriq uch qismdan iborat bo‘ladi: yadro, to‘g‘ri javob va tarqoqlik. To‘g‘ri javob yadroni to‘ldiradi, tarqoqlik esa chala yoki noto‘g‘ri javob tarzida bo‘ladi. Talaba chala yoki noto‘g‘ri javobni inkor etishi va to‘g‘risini tanlash uchun nazariy materialni juda yaxshi bilishi kerak.

Test topshiriqlari o‘z mazmuniga ko‘ra har xil bo‘lishi mumkin: predmetli (ayni predmet bo‘yicha o‘z bilimini tekshirish uchun), mantiqiy va psixologik. Predmet bo‘yicha ma’lum o‘quv materiali asosida tuzilgan, standartlashtirilgan testlarni yutuqli testlar deb nomlash odat qilingan. Ular talabalarning bilimlari va malakalarini, ya’ni o‘zlashtirish darajasini baholash uchun xizmat qiladi.

“Gospital pedagogika” o‘quv predmeti bo‘yicha mashg‘ulotlarda qo‘llaniladigan testlarni didaktik jihatdan 2 guruhga bo‘lish mumkin:

1. Talabalarning nazariy bilimlarini aniqlash uchun xizmat qiluvchi testlar, ya’ni nazariyalarni o‘zlashtirganliklarini aniqlash uchun ishlatiladigan testlar.

2. Talabalarning egallagan ko‘nikma va malakalarini aniqlash uchun xizmat qiluvchi testlar, ya’ni uzoq muddatli kasal bolalarning o‘ziga xos xususiyatlarini, ularninig ta’limini tashkil qilishning pedagogik xususiyatlarini aniqlash uchun tuziladigan testlar.

O‘qituvchi test sinovlarini qo‘llaganda, har bir talabaning intellektual qobiliyatini hisobga olishi zarur. Talabalarning bilim darajalari turlicha bo‘lganligi uchun qo‘llaniladigan testlarning qiyinchilik darajalari quyidagicha bo‘lishi maqsadga muvofiq: 40% o‘rtacha, 25% qiyin, 20% ancha qiyin, 15% juda qiyin.

Demak, jami testlarning 40% o‘rtacha o‘qiydigan, 65% yaxshi o‘qiydigan, 85% a’lochi va iqtidorli talabalar, hammasini esa faqat iqtidorli talabalargina bajara oladigan bo‘lishi lozim.

Test sinovlarini qo‘llaganda o‘qituvchi vaqt omilini ham hisobga olishi talab qilinadi. Talaba test topshirig‘ini qanchalik qiska vaqt ichida bajara olsa, undagi bilim, ko‘nikma va malakaning shakllanganlik darajasi shunchalik yuqori hisoblanadi. Testlar shunday tuzilishi lozimki, uni bajarish uchun ajratilgan vaqt yetarli bo‘lishi kerak. Har bir testning qiyinchilik darajasiga qarab, ularni bajarish uchun turlicha vaqt berilishi kerak.

Masalan: birinchi qiyinchilik darajasidagi testlar 10–15 soniya, ikkinchi qiyinchilik darajasidagi testlarga 25–30 soniya, uchinchi qiyinchilik darajasidagi testlarga 45–60 soniya, to‘rtinchi – eng qiyin testlar tavsifiga ko‘ra 1 daqiqa va undan bir oz ortiq vaqtda bajariladigan bo‘lishi mumkin.

“Gospital pedagogika”fanini o‘qitishda testlardan foydalanish.

Test topshiriqlari Soni	**Ishonchlilik Darajasi**	**Qo‘llash Vaqti**
10	30–35%	Joriy nazoratda
15–25	50–65%	Oraliq nazoratda
30–50	70–85%	Yakuniy nazoratda

Umuman olganda esa o‘rtacha har bir test uchun ajratiladigan vaqtga nisbatan berilgan testlarni bajarish uchun amalda sarf qilinishi lozim bo‘lgan vaqt teng bo‘lishi kerak. Aks holda test sinovidan olingan natija talabalarning bilimlarini to‘liq aniqlash inkonini bermaydi.

Test sinovining yana bir muhim tomoni, topshiriqlarning ishonchlilik darajasi hisoblanadi. Didaktik tadqiqotlarda test topshiriqlari soni kanchalik ko‘p bo‘lsa, natijaning ishonchliligi shuncha yuqori bo‘lishi aniqlangan.

“GOSPITAL PEDAGOGIKA” PREDMETINI O‘QITISHGA OID METODIK TAVSIYALAR.

“Gospital pedagogika” predmeti o‘qituvchisining metodik faoliyati.

Vatanimizning ertangi kuni, dunyo hamjamiyatidagi obro‘ e’tibori, eng avvalo, farzandlarimiz qanday insonlar bo‘lib voyaga yetishiga bevosita bog‘liq. Raqobatbardosh, har tomonlama mukammal, zamonaviy jamiyat va hayotga moslashgan, ta’lim va kasbiy bilimlarni ongli ravishda o‘zlashtirgan, jamiyat, davlat va oila oldidagi mas’uliyatini ongli ravishda his etuvchi, har tomonlama barkamol, zamonaviy mehnat bozori talablariga javob beradigan mutaxassislarni tarbiyalash bugungi kunning dolzarb pedagogik vazifalaridan biridir. Ushbu murakkab va muhim jarayonda o‘qituvchining ta’lim jarayoniga bo‘lgan pedagogik yondashuvlari muhim o‘rinn egallaydi.

O‘qituvchining ilmiy metodik ishining bosh mazmuni, shundan iboratki, u pedagogika oliy o‘quv yurtlarida gospital pedagogika o‘quv predmetini o‘qitish oldidagi muammolarni anglab yetish, pedagogik tadqiqot metodlarini o‘zlashtirish va o‘z oldiga qo‘yilgan muammolarni yechishda foydalanishi zarur.

“Gospital pedagogika” o‘quv fanini o‘qitishda qo‘llannilayotgan eng muhim va ko‘p tarqalgan pedagogik tadqiqot metodlariga quyidagilar kiradi:

a) adabiyot manbalari bilan ishlash;

b) maqsadga yo‘naltirilgan kuzatish;

v) suhbat, sotsialogik so‘rovlar va pedagogik eksperimentning turli xillari.

Yuqorida sanab o‘tilgan pedagogik tadqiqot metodlaridan eng asosiysi, “Gospital pedagogika” o‘qituvchisining adabiyot manbalari bilan ishlashidir. O‘qituvchi adabiyotlarni o‘qigandan so‘ng o‘ziga kartoteka tuzadi va ulardan bevosita darsga tayyorgarlik ko‘rganda foydalanadi. “Gospital pedagogika” predmeti mavzularini rejalashtirish ularning “Gospital pedagogika” predmetidagi o‘rni, boshqa mavzular bilan o‘zaro bog‘liqligi, shuningdek boshqa predmetlar bilan aloqasini tahlil qilish bilan boshlanadi. Mavzuning talabalarga ta’lim berish, ularni tarbiyalash va rivojlantirishdagi ahamiyati aniqlanadi. Shundan so‘ng, ushbu mavzuda qaysi tushunchalar yangidan kiritilishi, qaysilari rivojlantirilishi va takomillashtirilishini aniqlaydi. So‘ngra dasturga muvofiq mavzuning strukturasi va tuzilishi hamda mavzudagi darsning tiplari, ularning o‘zaro bog‘liqligi aniqlanadi.

Mavzuning mazmuniga muvofiq ravishda qanday boshlang‘ich manbalar hamda qo‘shimcha adabiyotlardan foydalanish mumkinligi aniqlanadi. Ayni mavzu o‘rganilayotganda qaysi o‘qitish vositalaridan foydalanish mumkinligi avvaldan belgilab olinadi. Masalan: “Gospital pedagogika” fanining asosiy tushunchalari, ta’riflari va uning tarixi” mavzusiga o‘qituvchining adabiyotlar tahlilini misol qilib keltirsak bo‘ladi. “Gospital pedagogika” o‘quv predmeti o‘z mohiyatiga ko‘ra bo‘lajak kasalxona o‘qituvchilarining kasbiy mahoratini shakllantirishga xizmat qilishi va kasbga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishi lozim. Shuning uchun o‘qituvchi doimiy ravishda ilmiy adabiyot manbalarini kuzatishi, undagi yangiliklarni leksiya davomida talabalarga yetkazib borishi kerak. “Gospital pedagogika” o‘quv predmeti o‘qituvchisining oldida turgan asosiy muammolardan biri, bu gospital pedagogikadagi yangiliklarni qanday ketma-ketlikda berish, talabalar ongida hosil qilingan tushunchalarni ketma-ketligi, uzluksizligiga e’tibor berishi kerak.

Hozirda, tibbiyot fanining tobora rivojlanib borishi natijasida, odam organizmida kuzatiladigan jarayonlarning irsiy, biokimyoviy, fiziologik mexanizmlari tobora chuqur o‘rganilmoqda, natijada turli kasalliklarga chalingan bolalarga tashxis qo‘yish, kasallikning oldini olish choralari, tashxisga qarab zamonaviy davolash usullarini, zarur dori-darmon vositalarini va kerakli mulojalarni qo‘llash kabi tibbiyot hodimlarining kasbiy majburiyatlarini bajarishlari yengillashmoqda.

Ikkinchidan, ekologik muhit sharoitlarining tobora ifloslanib borishi, radiatsiya, ultrabinavsha quyosh nurlarining salbiy ta’siri ham odam irsiyatida kelib chiqadigan o‘zgarishlarni ko‘paytirmoqda. Bolalarda saraton, gematologik, nafas olish, bronxial astma, sil hamda irsiy kasalliklarning har xil turlari ko‘payib bormoqda, gospital pedagogika predmeti o‘qituvchisining oldida, ushbu kasalliklar klassifikatsiyasini talabalarga qanday usulda tushuntirish, kasalliklarga chalingan bolalarni o‘qitishdagi o‘ziga xos xususiyatlar va ehtiyot choralarini qanday tushuntirganda talabalarning olayotgan bilimlari to‘liq, uzluksiz, ya’ni umumiy tushunchalarga bog‘lab tushuntirilishi kabi muammolar bartaraf etiladi.

Psixologiyada tafakkur operatsiyalaridan biri klassifikatsiya bo‘lib, u bilish faoliyatida muhim sanaladi.

Demak, o‘qituvchi birinchi galda talabalarga kasalliklarning tasnifini (klassifikatsiya)sini tushuntirishi, keyin kasal bolalarga bo‘lgan psixologik-

pedagogik yondashuvning ahamiyati, uzoq muddatli davolanishda bolalarning shaxsiyati va kognitiv rivojlanishi, ta’lim jarayonini tashkil etishda fan o‘qituvchilari o‘rtasidagi munosabatlar, o‘quv materiallarini moslashtirishni va tibbiyot muassasalarida bolalar uchun individual o‘quv dasturlarini yaratishni, shu jumladan tibbiyot xodimlari va o‘qituvchilarining ko‘p tarmoqli jamoasida ishlash, shuningdek, ota-onalar bilan o‘zaro hamkorlik qilish, bola haqidagi ma’lumotlarning maxfiyligini saqlash va kasal yoki nogironligi bor bolaga ta’lim berish va uning ta’lim olishida qo‘llab-quvvatlashni qanday ta’minlash kerakligi kabi ma’lumotlarni tushuntiradi.

“Gospital pedagogika” o‘quv predmeti o‘qituvchisi manbalar bilan ishlagan holda ularni o‘z ishi bilan taqqoslaydi, olingan natijalarni umumlashtiradi va o‘zi tadqiq qilayotgan muammoning mamlakatimiz va xorijdagi ahvoli haqida juda yaxshi tasavvurga ega bo‘lishi kerak.

Talabalarga beriladigan bilimlar mazmuni gospital pedagogika dasturidan chetga chiqmasligi va oddiydan murakkabgacha rivojlanishi kerak. Talabalarni tadqiqot qilish, o‘rganish va qo‘shimcha adabiyotlar bilan ishlashga undashi lozim.

Zamonaviy o‘qituvchining uslubiy faoliyati shundan iboratki, u har bir o‘quv darsini hozirgi rivojlanayotgan jamiyat talablari asosida, didaktik vositalarga tayangan holda, o‘quv jarayonini tashkil qilishning zamonaviy uslub va vositalaridan foydalangan holda, har bir talabaning psixologik va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda tashkil etishi lozim.

Bo‘lajak kasalxona o‘qituvchilarining kasbiy bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishda o‘quv jarayonini tashkil etishning: ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar kabi shakllari muhim rol o‘ynaydi, quyida biz har birini batafsil ko‘rib chiqamiz.

“Ma’ruza darslari” — bu o‘qituvchining o‘quv materialini talabalarga taqdim etish shakli bo‘lib, oliy o‘quv yurtlarida ko‘pincha qo‘llaniladi. Bunda asosiy axborot manbai o‘qituvchining so‘zi bo‘lib, tabiiy va ko‘rgazmali vositalar yordamchi rol o‘ynaydi. Shuning uchun ma’ruzada o‘qituvchining nutqi katta ahamiyatga egadir. Ma’ruza aniq, yorqin, hissiy bo‘lishi kerak. Asosiy g‘oyalar ovoz intonatsiyasidan foydalangan holda talabalarga berilishi kerak. O‘quv materiali mantiqiy, izchil, ilmiy va tushunarli, yaxshi adabiy tilda taqdim etiladi. Ma’ruzaning ahamiyatini kamaytirmaslik uchun maxsus ilmiy terminologiya bilan ortiqcha yuklamaslik kerak.

Ma’ruzaning samaradorligi o‘qituvchining tayyorgarligiga bog‘liqdir. Avvalo, siz ma’ruza rejasini tuzishingiz kerak, unda siz kirish, asosiy mazmun va xulosani ajratib ko‘rsatishingiz kerak. Kirish qismi talabalarga ilgari olingan bilimlarni qayta tiklashga va undan yangi materialni tushunish va yodlash uchun asos sifatida foydalanishga yordam beradi. Dars davomida o‘qituvchi talabalarni ma’ruzada ishlashga undaydigan motivlarni ochib beradi va tashkiliy ishlarni olib boradi. Bu fikrlarning barchasi ma’ruza rejasida o‘z aksini topadi.

Ma’ruzaning mavzu mazmunini ochib beruvchi asosiy qismi ayniqsa puxta o‘ylangan va rejada aks ettirilgan bo‘lishi lozim. Bir nechta fikrlar ta’kidlangan, ularning har biri bilim blokini aks ettiradi. Shuningdek, u o‘qituvchi talabalarning ma’ruzaga qiziqishini saqlab turadigan va ularning bilim faolligini faollashtiradigan uslubiy usullarni ko‘rsatadi. Rejaning har bir bandini ochishda uslubiy texnika bilan bir qatorda ma’ruzada foydalaniladigan o‘quv jihozlari ham ko‘rsatiladi.

Xulosa qilib aytganda, ma’ruzada taqdim etilgan barcha materiallarni umumlashtirish va talabalarni ushbu jarayonga qo‘shish: ular muhokama qilingan masalalarni qanday tushunganliklari va eslab qolganliklariga ishonch hosil qilishlari va asosiy bilimlarni mustahkamlashlari kerak.

Talabalarni tarbiyalash va rivojlantirish vazifalarini bajarish uchun o‘quv materialidan qanday foydalanish haqida oldindan o‘ylash, buni aks ettirish muhimdir. Shunday qilib, “Gospital pedagogika”ni dialektik materializmning asosiy tamoyillari nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqish orqali talabalarni tarbiyalash muammolarini hal qilish onsonlashadi.

Talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga ma’ruzaning muammoli tuzilishi, ularni izlanishga undash va muammoni yechishda ishtirok etish yordam beradi. Buning uchun o‘qituvchi o‘quv materialini taqdim etish jarayonida muammoli vaziyat yaratadi va yangi ilmiy faktlar va ularning eski talqini o‘rtasidagi ziddiyatni ko‘rsatadi. Shunday qilib, haqiqatni bilishga talabalarni undaydi, garchi buni o‘zi ochib bersa ham.

O‘qitish jarayonida ma’ruzalardan foydalanishning muhim kamchiligi talabalarning passivligi, ularning bilim faolligining pastligi, e’tibor va qiziqishning yo‘qolishidir. Shu bois talabalarning bilish faolligini oshirish uchun turli metodik usullardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bunga o‘qituvchining so‘zlari bilan talabalarning obyektlar va hodisalarni vizual idrok etishi yordam beradi, obrazli va mantiqiy fikrlash sintezi sodir bo‘ladi.

“Gospital pedagogika fanining asosiy tushunchalari, ta’riflari va uning tarixi” mavzusi bo‘yicha ma’ruza darsining ishlanmasi berilgan (3-ilova).

Ma’ruza davomida prezentatsiya, mavzuga tegishli slaydlar, plyonkali kadrlar, eskizlar, diafilmlar, yangi atamalar, kashfiyotchilar nomlari va rasmlarining slaydlarini va h.k. ko‘rsatish tavsiya etiladi.

“Amaliy mashg‘ulotlar” — o‘qituvchi rahbarligida olib boriladigan, talabalarning faol ishtiroki va o‘zaro munosabatini o‘z ichiga olgan mashg‘ulot shaklidir. Ushbu turdagi dars talabalarning nazariy bilimlarini chuqurlashtirish va olgan bilimlarini amaliy ko‘nikmalarga aylantirish uchun zarurdir. Amaliy mashg‘ulotlar har bir akademik guruhda alohida, multimedia uskunalari bilan jihozlangan o‘quv xonalarida olib boriladi.

Amaliy mashg‘ulotning ko‘plab turlari mavjud bo‘lib, ularga quyidagi: individual mustaqil ish; kontrol ishlarni va test mashqlarini yechish; laboratoriya ishlari; amaliy tadqiqotlar va tajribalar; tarbiyaviy munozaralar; davra suhbatlari; guruh seminarlari; ilmiy-tadqiqot ishlari; muammoli vaziyatlarni hal qilish; biznes o‘yinlari va o‘quv treniglar kabi turlari kiradi.

Amaliy mashg‘ulotlarning nafaqat turlari, balki shakllari ham mavjud. Amaliy mashg‘ulotlarni quyidagi shakllarda o‘tkazish mumkin:

O‘tkazish joyiga qarab: auditoriyada; onlayn amaliy mashg‘ulotlar (masofaviy); qisman auditoriyada.

Bajarilishining shakliga ko‘ra: individual; kichik guruhlarda ishlash; kollektiv.

Har qanday turdagi amaliy mashg‘ulotlar har doim ta’lim maqsadlari va vazifalariga ega. Bundan tashqari, o‘quv faoliyatining ushbu shakli o‘qituvchiga talabalarning haqiqiy bilim darajasini aniqlash va kerak bo‘lganda dasturni korreksiya qilish imkonini beradi.

Amaliy mashg‘ulotlarning maqsadlari: talabalarga olingan bilim va ko‘nikmalarni amaliyotda qo‘llashga o‘rgatish; ishda ilmiy usullardan faol foydalanishni ko‘rsatish: solishtirish, kuzatish, tahlil qilish, xulosa chiqarish va mustaqil tadqiqot olib borish; zarur ma’lumotlarni mustaqil izlash, ilmiy adabiyotlar bilan ishlash va yangi materialni o‘zlashtirish ko‘nikmalarini shakllantirish; o‘quv vaziyatlarini qurish va samarali yechimlarni topish ko‘nikmalarini shakllantirish; tanqidiy fikrlash asoslarini yaratish; amaliy masalalarni yechishni o‘rgatish; kasbiy etikaning asosiy tamoyillarini shakllantirish; malakali taqdimot ishlarini bajarish va ijodiy loyihalarni

himoya qilish qobiliyatini va individual hamda guruhda ishlash koʻnikmalarini rivojlantirishdan iborat.

Amaliy mashgʻulotlarning vazifalari talabalarga oʻz maqsadlariga samarali qadamlar bilan tezroq erishishga va oʻqishga boʻlgan motivatsiyasini yoʻqotmaslikka yordam beradi.

Asosiy vazifalari qatoriga quyidagilar kiradi: muayyan vazifa va mashqlarni yechish uchun bilim va koʻnikmalardan foydalanish; tadqiqot usullarini qoʻllash; yangi yondashuvlarni sinab koʻrish; kerakli maʼlumotlarni izlash va amaliy mashgʻulotlarga mustaqil tayyorgarlik koʻrish; nostandart yechimlarni topish uchun aqliy hujum va boshqa guruhlarning oʻzaro aloqalarini oʻtkazish; maʼlum boʻlgan haqiqatlarni soʻroq qilish va oʻz-oʻzidan xulosa chiqarishni oʻrganish; koʻp sonli testlarni yechish va mustaqil ishlarni bajarish; kasbiy etika qoidalari va normalarini oʻrganish; oʻquv taqdimotlarini oʻtkazish va loyihalarni himoya qilish.

Har bir amaliy vazifaning oʻziga xos tuzilishi mavjud. Qoida tariqasida, jarayon quyidagi sxema boʻyicha quriladi:

1. Oldingi kurs materialini qisqacha eslatish.
2. Amaliy topshiriqning mavzusi, maqsad va vazifalarini bayon qilish.
3. Amaliy topshiriqni batafsil tushuntirish.
4. Amalga oshirish boʻyicha uslubiy koʻrsatmalar.
5. Qoʻshimcha savollarga javoblar.
6. Amaliy dars uchun test savollarini belgilash.
7. Jamoalarni shakllantirish, agar bu ishning guruh shakli boʻlsa.
8. Topshiriqning bevosita bajarilishi.
9. Tugallangan ishni yetkazib berish yoki natijalarni taqdim etish.
10. Yakuniy natijalarni sarhisob qilish.
11. Oʻqituvchining tavsiyalari va kerak boʻlganda mavzu boʻyicha qoʻshimcha topshiriqlar.

Amaliy mashgʻulotlar davomida dasturlar tahlil qilinadi, individual, frontal korreksiyalovchi oʻquv dasturlari tuziladi, maktablar va shifoxonalarda oʻquv jarayoni kuzatiladi va tahlil qilinadi. Mashgʻulotlar faol va interfaol usullar, pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda olib boriladi.

Masalan, “Blis soʻrov”, “Venn diagrammasi” yoki “Case-studiyes” va boshqalar, keyslar mazmuni oʻqituvchi tomonidan belgilanadi. “Case-

studiyes” usuli mustakil fikrlash, tinglash va muqobil nuktai nazarni hisobga olish, o‘z fikrini muhokama qilish kobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Ko‘rgazmali qurollardan foydalaniladi. Multimedia qurilmalari yordamida taqdimotlar, axborotlar va boshqa vizual materiallar namoyish etiladi. Shu bilan birga, amaliy mashg‘ulotlar davomida talabalar “Gospital pedagogika” fanidan olgan amaliy bilimlarini mustahkamlaydilar. “Gospital pedagogika” o‘quv kursi mazmun jihatidan asosan nazariydir.

Amaliy mashg‘ulotlarning ta’siri talabalarning bilish faoliyatini oshirish va yangi materialni o‘zlashtirishga va kasbiy malakalarini shakllantirishga yordam beradi hamda o‘qituvchining mashg‘ulotni tashkl qilish va olib borishdagi mohirona rahbarligiga bog‘liqdir.

Amaliy mashg‘ulotlar quyidagi ketma-ketlikda bajariladi: dars odatda kirish suhbati bilan boshlanadi, uning davomida maqsad shakllantiriladi va ishning borishi belgilanadi, guruhlar tuziladi, talabalar topshiriqlar oladilar.

Amaliy mashg‘ulotlarning asosiy qismi talabalarning topshiriq yoki yo‘riqnoma bo‘yicha bajariladigan mustaqil ishidir. O‘qituvchi talabalarga o‘quv faoliyatini tashkil etishda, ularni nazorat qilishda va natijalarni hujjatlashtirishda yordam beradi.

Amaliy mashg‘ulotlar yakuniy suhbat, kuzatishlar natijalarini muhokama qilish, ish davomida olingan tajribalar taxlili bilan yakunlanadi.

“Genetik kasalliklarga chalingan o‘quvchilar bilan mashg‘ulotlar olib borish tamoyillari. Tayanch-harakat tizimi kasalliklari bo‘lgan bolalarning ta’lim ehtiyojlari va imkoniyatlari” hamda “Saraton (miya shishi, gematologik) kasalligi bilan og‘rigan maktab o‘quvchilari bilan mashg‘ulotlar o‘tkazish tamoyillari” mavzulari bo‘yicha amaliy mashg‘ulot ishlanmalari berilgan (4, 4A-ilova).

“Gospital pedagogika” o‘quv fanini o‘qitishda turli hildagi dars ishlanmalaridan foydalanish talabalarning faoligini va o‘qitish jarayonining samaradorligini oshirishga zamin yaratadi. Ularga misol tariqasida: “Aqliy xujum” mashg‘uloti, Seminar mashg‘uloti (“Uzoq muddatli davolanayotgan bolalarni psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlashda o‘qituvchining shaxsi” mavzusiga atalgan) hamda “Gospital pedagogika fanining amaliy asoslari” II-modul mavzulari bo‘yicha ishlab chiqilgan umumlashtiruvchi mashg‘ulotlarni olsak bo‘ladi (5, 6, 7-ilovalar).

Quyida professor-o‘qituvchilar uchun o‘qitish jarayonlarida qo‘llashlari mumkin bo‘lgan ba’zi didaktik tavsiyalar haqida so‘z yuritamiz:

Nazariya va amaliyot integratsiyasi:

Nazariy bilimlarni kasalxona maktablaridan olingan amaliy misollar bilan birlashtirishga intiling.

Talabalar o‘z bilimlarini amalda qo‘llashini ko‘rishlari uchun kasalxona maktablaridan misollarni qo‘shing.

Vizualizatsiyadan foydalanish:

Multimedia materiallari bilan tanishing va kasalxona maktablaridagi o‘quv jarayonlarini namoyish qilish uchun animatsiya va videolardan foydalaning.

Faol o‘rganish:

Talabalarni faol jalb qilish uchun muhokamalar, guruh loyihalari va amaliy tadqiqotlar o‘tkazing.

Talabalarda jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun jamoaviy ishlarni targ‘ib qiling.

Ta’limni farqlash:

Talabalarning turli malaka darajalarini moslashtiring va moslashtirilgan topshiriqlar yoki materiallarni taqdim eting.

Zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash:

Ko‘proq interaktiv, onlayn resurslari, vebinar va ta’lim platformalaridan foydalaning.

Reyting va fikr-mulohazalar:

Topshiriqlar va testlarni bajargandan so‘ng konstruktiv fikr bildiring. Insholar, taqdimotlar va testlar kabi turli baholash shakllaridan foydalaning.

Joriy mavzularga e’tibor qarating:

“Gospital pedagogika” bo‘yicha joriy tadqiqotlar va yangiliklarni o‘qitish jarayoniga integratsiya qiling.

“Gospital pedagogika”ning so‘nggi yutuqlarini muhokama qiling.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish:

Talabalarni axborotni tahlil qilishga va o‘z xulosalarini shakllantirishga undash orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlang.

Amaliyot bilan aloqa:

Talabalarni tibbiyot muassasalari qoshidagi maktablardagi o‘quv jarayonida bevosita ishirok etishlari uchun tibbiyot muassasalaridagi darslarga qatnashishlarini tashkil qiling.

Doimiy ravishda yangilanadigan materiallar:

“Gospital pedagogika” sohasidagi so‘nggi tadqiqotlar va yangiliklardan xabardor bo‘ling va o‘quv kursini muntazam yangilab turing.

Ushbu tavsiyalarga rioya qilish “Gospital pedagogika” o‘quv fanini o‘qitishni talabalar uchun yanada qiziqarli, qulay va samarali qilishga yordam beradi.

“Gospital pedagogika” predmetini o‘qitishning umumiy masalalari.

Yigirmanchi asr ta’lim sohasidagi ulkan yutuqlar bilan ajralib turadi, bu esa ushbu asrga xos bo‘lgan ulkan ijtimoiy o‘zgarishlar va ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning asosini tashkil etadi. Zamonaviy dunyoda ta’lim sohasida tub o‘zgarishlar ro‘y bermoqda va yangi ta’lim tizimining shakllanishi, ta’limning ahamiyati va sifati ortib bormoqda. Ta’lim sohasining kengayishi va uning maqomini o‘zgarishi ushbu sohadagi muammolarning kuchayishi bilan birga nomoyon bo‘ladi, bu esa ta’lim inqirozidan dalolat beradi va uni modernizatsiya qilish zarurati tug‘iladi.

Ta’lim sohasidagi inqirozdan chiqish yo‘llarini izlash jarayonida nafaqat global o‘zgaruvchan jarayonlarga qarshilik ko‘rsatish, balki ilg‘or o‘zgarishlarni samarali qo‘llab-quvvatlash ham zarurligi yaqqol ko‘rinib turibdi. Jamiyatning barqaror rivojlanishga o‘tish strategiyasi ta’limga muhim talabni qo‘yadi: u harakatlardan oldinda bo‘lishi va “o‘ta ilg‘or xarakterga ega” bo‘lishi kerak.

Ayni paytda O‘zbekistonda milliy ta’limni jahon tendensiyalarini hisobga olgan holda modernizatsiya qilish yo‘llarini izlashga qiziqish kuchaymoqda. Bunday jiddiy o‘zgarishlar kasalxona pedagogikasini o‘qitish tizimiga ham ta’sir qiladi va bu tendensiyalar kasalxona pedagogikasi fanini o‘qitish uslublarini modernizatsiya va takomillashtirishni taqozo etadi. O‘qitishni modernizatsiya qilishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat: foydalanish imkoniyati, nazariyaning amaliyot bilan bog‘liqligi va talabalar bilimining mustahkamligi. Bu o‘zgarishlar ta’limning barcha bosqichlari: maktablar, kollejlar va oliy o‘quv yurtlariga ta’sir ko‘rsatmoqda. Hozirgi bosqichda o‘zgarishlarning eng muhim hujjatlaridan biri “O‘zbekistonda umumiy ta’limni modernizatsiya qilish strategiyasi”dir.

“Kadrlar tayyorlash dasturi” va O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni ta’lim tizimini modernizatsiya qilishga, jumladan, davlat ta’lim standartiga o‘zgartirish qiritish va takomillashtirishga qaratilgan bo‘lib, u har tomonlama rivojlangan xalqaro ta’lim standartlari talablariga javob beradi va yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va tarbiyalashni nazarda tutadi.

Bu maqsad va vazifalarni amalga oshirish bevosita ta’lim samaradorligiga bog‘liq. Ta’lim samaradorligiga faqat o‘quvchilarning bilish faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish va boshqarish asosida erishiladi.

O‘quv faoliyatining barcha motivlari orasida eng samaralisi kognitiv qiziqishdir hamda to‘plangan pedagogik tajriba bizga o‘quv jarayonida qiziqish muammosini qo‘yish imkoniyatini baholashga imkon beradi. Kognitiv qiziqishning asosiy shakli qiziquvchanlik bo‘lib, keyin u mavzuga qiziqish ehtirosni rivojlantiradi. Kognitiv qiziqish o‘quvchilarning aqliy faoliyatini faollashtiradi va uni turli intellektual muammolarni hal qilishga yo‘naltiradi.

Ushbu vazifalardan kelib chiqib, o‘quv jarayonida talabalar quyidagi bilimlar tizimini o‘zlashtirishlari kerak: kasalxona pedagogikasi fanining asosiy tushunchalari va ta’riflari, uning tarixi, uslubiy asoslari, o‘quv jarayonidagi (bola, ota-onalar, pedagogik xodimlar, tibbiyot xodimlari)ning munosabatlari, o‘qitishni tashkil etish, uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalarni o‘qitishda fanlararo aloqalarning o‘ziga xos xususiyatlarining ta’sirini.

Talabalar kasalxona bilimlari tizimini o‘zlashtirish jarayonida asosiy intellektual va keyingi amaliy faoliyalari uchun ham katta ahamiyatga ega bo‘lgan umumiy ta’lim va maxsus amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtiradilar.

Kasalxona bilimlari va turli xil o‘quv materiallari talabalarda “Gospital pedagogika” fanining nazariy asoslarini shakllantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

“Gospital pedagogika” — uzoq muddatli davolanishda bo‘lgan va sog‘lig‘i sababli ta’lim muassasalariga bora olmaydigan bolalar uchun ta’limni tashkil etish bilan bog‘liq pedagogikaning bo‘limidir. “Gospital pedagogika” pedagogikaning bir qismi bo‘lib, o‘z e’tiborini talabalarning alohida toifasiga — uzoq muddatli davolanishga muhtoj bo‘lgan bolalarga qaratadi.

Mamlakatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida, odamlarga bo‘lgan e’tiborning kuchayib borshi, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, turli kasalliklarga (onkologik, gematologik, autoimmun, irsiy kasalliklar, endokrin

bezlari (qandli diabet)) nafas olish organlari (sil va bronxial astma)ga qarshi kurashish muammosi ayniqsa ortib bormoqda. Bilimlarning ulkan ahamiyati sayyoramizda va mamlakatimizda ekologik muammolarning keskinlashuvi bilan ham belgilanadi.

Insonning xo‘jalik faoliyati natijasida uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida evolyutsiyaning harakatlantiruvchi kuchlari va tabiiy muhit o‘zgarishlari ta’sirida shakllangan nisbatan barqaror biologik tizimlar o‘rtasidagi qarama-qarshilik kuchayib bormoqda.

Bu qarama-qarshilik natijasida tabiatdagi ekologik muvozanatning buzilishi yuzaga kelmoqdi, bu esa inson salomatligiga zararli ta’sir ko‘rsatmoqda va uning immunitetini zaiflashtirishga olib kelmoqda. Tabiatdagi ekologik muvozanatning buzilishi natijasida kasalliklar sonining ortib borishini har bir bilimli kishi yaxsh bilishi kerak.

Hozirda yosh va o‘spirin o‘quvchi bolalarning salomatligi yil sayin yomonlashib bormoqda. O‘quvchilarning qariyib 60% foizi turli darajadagi sog‘lig‘i bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarga ega. Ularning ma’lum bir qismi kasalxona yoki statsionar sharoitida uzoq vaqt davomida davolanishni talab qiladigan jiddiy kasalliklarga chalinganlar.

O‘zbekistonda bolalarni ijtimoiy himoya qilish, alohida ta’limga ehtiyoji bor hamda imkoniyati cheklangan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimi yaxshi rivojlangan.

Bolalar bilan ishlaydigan, ularning salomatligi va xavfsizligi uchun mas’ul bo‘lgan o‘qituvchi va tarbiyachilar birinchi yordam ko‘rsatish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari kerak. Bu ijtimoiy sivilizatsiyaning muhim ko‘rsatkichlaridan biridir.

Fanni o‘zlashtirish talabalarning samarali o‘qituvchilik faoliyatiga zarur nazariy asos va amaliy tayyorgarligini ta’minlaydi, yaqin kelajakda ular rivojlantirishi kerak bo‘lgan pedagogika fanining asoslarini idrok etishlari zarur. Bo‘lajak mutaxassislarda o‘qituvchi jamiyatning faol fuqarosi, madaniyat tashuvchisi va o‘z kasbining professionali sifatidagi tasavvurini rivojlantiradi.

Mamlakatimizda kasalxona sharoitida o‘qitish muammosiga yetarlicha e’tibor berilmagan. Markaziy shaharlardagi yirik bolalar shifoxonalari va ayrim bolalar sanatoriylarida o‘rta maktab o‘quvchilari uchun sinflar tashkil qilingan.

Bunday maktablar sonining kamligini hisobga olib, pedagogika universitetlari kasalxona maktablari uchun mutaxassislarni tayyorlamaganlar. U yerga oddiy o‘rta maktab o‘qituvchilari kelib, kasal bolalarga “gospital pedagogika” tamoyillariga rioya qilmasdan dars berishgan. Har bir o‘qituvchi o‘z malakasi nuqtayi nazaridan, kasal bolani qanday o‘rgatish kerakligi tushunchasiga ega bo‘lmasdan dars berganlar va ko‘plab o‘qituvchilar “tasodifan” bunday kasalxonalarda bolalarga dars berishga intilganlar. Bunday sharoitda ishash borasidagi tajribalarini o‘zlari orttirganlar. Kimlardadir bu tajriba yaxshiroq, kimlardadir yomonroq bo‘lgan. Uzoq vaqt davomida hech kim, maxsus tayyorgarlikka ega bo‘lgan o‘qituvchilarni tayyorlash kerakligi muammosi haqida o‘ylamaganlar. Uzoq muddatli kasal bolalar uchun maxsus maktablar yo‘q edi.

Mamlakatimizda uzoq vaqt kasal bo‘ladigan bolalar soni juda ko‘pdir. O‘quvchiga iloji boricha sog‘lig‘ini tiklashga yordam berish juda muhimdir. Nafaqat kasalxonada yotgan bolalar, balki kasallik tufayli uyda bo‘lgan va uzoq vaqt davomida maktabdagi darslarni o‘tkazib yuboradigan, kasal bolalar uchun ham muhimdir. Albatta, bugungi kunda kasal bolalarni uyda “Internet” “Skayp” orqali o‘qitish mumkin. Ammo bolaga “jonli” muloqot kerak va o‘qituvchi darslarning kamida bir qismini o‘z uyida o‘tkazishi yoki iloji bo‘lsa, “uydagi” bolani eng yaqin inklyuziv maktabda bir nechta darslarga jalb qilishni tavsiya etishi lozim. Albatta, buning uchun maktabda kasal bolaning sinfda o‘qishi uchun qulay sharoitlar bo‘lishi zarur. Maktab sinflari qulay zinapoyalar, liftlar xamda mos maktab mebellari va boshqa kerakli jixozlarga ega bulishi kerak.

Kasalxonada uzoq vaqt bo‘lgandan so‘ng, o‘rta maktabga qaytgan bolalar to‘liq tiklanishlari uchun vaqt etarli bo‘lmaydi va bu sinfdagi barcha o‘quvchilar uchun odatiy bo‘lgan o‘qish programmasi soatlariga bardosh bera olmaydilar. Bola o‘qishdan orqada qola boshlaydi, bu esa unda salbiy his-tuyg‘ularni keltirib chiqaradi va tiklanish jarayoni yanada kechikadi.

Charchoqning kuchayishi, diqqatning beqarorligi paydo bo‘ladi, chalg‘ishning kuchayishi qayd etiladi, ishlash jarayoni pasayadi, asabiylashish kuchayadi va uyqu yomonlashadi va buziladi. Tabiiyki, bu holatda o‘qituvchi bolaga yordam bera olishi kerak. Buning uchun o‘qituvchi maxsus mahoratga ega bo‘lishi kerak. Bu holat nafaqat kasal bolalarda uzoq vaqt kasalxonada bo‘lgandan keyin, balki davolanish uchun uyda uzoq vaqt qolishi sababli darslarni o‘tkazib yuborgan bolalar uchun ham sodir bo‘ladi.

Kasalxonalarda o‘qituvchi bo‘lib ishlash davlat maktabida ishlashdan ancha farq qiladi. Bolalar bilan mashg‘ulotlar bolaning holatiga qarab, kasal bolalar uchun o‘tkaziladigan tibbiy muolajalarni hisobga olgan xolda o‘tkaziladi. Bolaning ahvoli yomon bo‘lganligi sababli dars belgilangan vaqtdan qisqaroq bo‘lishi mumkin. Darslar davolanish jarayonini hisobga olgan holda o‘tkazilishi lozim. O‘qituvchilar ushbu turdagi ishlarga tayyor bo‘lishlari kerak va pedagogika oliy o‘quv yurtlarida buni xisobga oilish zarurdir. O‘qituvchi kasallikning diagnozi bilan tanish bo‘lishi, kasallikning o‘ziga xos xususiyatlarini, davolovchi shifokorning ko‘rsatmalari va tavsiyalarini, reabilitatsiya shartlarini, bola rejimining xususiyatlarini bilishi kerak va bolaga beriladigan bilim bilan davolash jarayonini uyg‘unlikda tashkil qila olishi kerak. Ushbu bilim o‘qituvchiga ishning to‘g‘ri tashkil qilish usullari va taktikasini tanlashga, mashg‘ulotlarning intensivligi va davomiyligini aniqlashga yordam beradi. “Gospital pedagogika” fanining oldida turgan muhim vazifasi bu — o‘qituvchini kasal bolani reabilitatsiya qilish va umumiy o‘rta ta’lim muassasasida maktab ta’limiga moslashtirishda yordam berishga o‘rgatishdan iborat.

Belgilangan vazifaga erishish uchun o‘qituvchining arsenalida ushbu sharoitlarda ishlashning o‘ziga xos usullari bo‘lishi kerak. Kasal bolaning tibbiy-psixologik-pedagogik reabilitatsiyasini ta’minlash uchun quyidagilar zarur:

- bolani kasalxona maktabida yoki uyda o‘qitish lozim;
- tibbiy-psixologik-pedagogik korreksiya ishlarini olib borish;
- ota-onalarni farzandlariga o‘qitishda yordam berish uchun tayyorlash;
- ijtimoiy yordam ko‘rsatishda va kasal bolaning umumiy maktabga moslashishini ta’minlashda yordam berishdan iboratdir.

O‘qituvchi tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya tarkibida to‘liq ishlay olishi uchun u, albatta, ma’lum tibbiy bilimga ega bo‘lishi kerak.

Tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya ishida duch keladigan kasalliklar haqida tasavvurga ega bo‘lishi kerak.

Pedagogika oliy o‘quv yurtida tibbiyot fanlari klinik, psixologik va pedagogik yondashuvga urg‘u berilgan holda maxsus, tushunarli shaklda o‘qitilishi kerak. O‘qituvchi bolada kuzatiladigan kasalliklarning kechishining o‘ziga xos xususiyatlarini yaxshi bilishi kerak va ayniqsa, bolaning o‘qishga bo‘lgan qobiliyatini bilishi zarur. Tibbiy-psixologik-pedagogik reabilitatsiya

muammosining o‘zi turli mutaxassislarning sa’y-harakatlari va o‘zaro hamkorligini talab qiladi.

Ko‘pgina chet e’l mamlakatlarida “Gospital pedagogika” muammosi bilan qariyb 100-yil davomida shug‘ullanib kelinmoqda. Uzoq vaqt davomida kasalxonada yotgan bolaning ta’limini davom ettirish muammosining muhimligini hisobga olib, 1919-yilda Evropada 15 davlatni o‘z ichiga olgan “Gospital pedagogika assotsiatsiyasi (HOPE)” tuzildi. Hozir bu mamlakatlarda “Gospital pedagogika” uchun maxsus tizim ishlab chiqilgan bo‘lib, kasal bolalar ta’lim olishi va reabilitatsiya qilish imkoniyatiga ega. Shifohona maktablarida ishlaydigan o‘qituvchilar maxsus tayyorlikdan o‘tadilar.

Rossiya Federatsiyasida, Sog‘liqni saqlash vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, har yili 200 mingga yaqin maktab yoshidagi bolalar turli kasalliklar sababli bolalar shifoxonalarida uzoq muddatli davolanishdan o‘tadilar. Bu bolalar, albatta, davolanish vaqtida sinfdoshlariga etib olishlari va ular bilan birga bo‘lishlari uchun to‘liq tayyorgarlikdan o‘tishlari kerak. Tibbiyot fanining rivojlanishi bilan kasalliklarni davolash sifati yildan-yilga yaxshilanmoqda. Davolashning davomiyligi qisqarmoqda, ammo kasal bolalarning soni juda ko‘payib bormoqda. Turli xil anatomik tizimlarning xavfli kasalliklari bilan og‘rigan bolalar soni juda ko‘p. Maktab yoshidagi bolalarning katta qismi xavfli qon kasalligiga chalingan bo‘lib ular D.Rogachev nomidagi Respublika bolalar shifoxonasida davolanmoqda.

Hozirgi vaqtda zamonaviy ta’lim amaliyoti va pedagogika fanini rivojlantirishning eng muhim vektorlaridan biri inklyuziv va gospital pedagogika ta’limi hisoblanadi. Har bir bola, hech qanday istisnosiz va kamsitishlarsiz sifatli ta’lim olish huquqiga egadir. Bu esa alohida ta’limga muhtoj shaxslarni tayyorlash, o‘qitish va rivojlantirish muammolarini hal qilish sohasida sezilarli ijobiy o‘zgarishlarga olib keladi.

Hozirda “G‘ayritabiiy bolalar”, “xavf ostidagi bolalar”, “anomal bolalar”, “nuqsonli bolalar” kabi tushunchalar ortda qoldi. Vaqt o‘tishi bilan qadriyatlar va madaniy me’yorlar o‘zgardi, tsivilizatsiyaviy rivojlanish jarayoni nafaqat jamiyatning “g‘ayritabiiy bolalik”ning hayot muhitiga integratsiyalashuviga moslashish zarurligini anglashga, balki shakllanishi va rivojlanishiga ham olib keldi. Normativ-huquqiy bazaga o‘zgartirishlar kiritildi, maktabdagi nomutanosiblik va inklyuziyaning oldini olish konsepsiyasi paydo bo‘ldi. “Maxsus huquq subyektlari”ga nisbatan terminologik bag‘rikenglik rivojlanmoqda, shuning uchun so‘nggi o‘n

yilliklarda “rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar”, “o‘rganishga qodir bo‘lmagan bola” tushunchalari “mahsus ta’lim olish huquqiga ega bo‘lgan bola”, ta’riflari bilan almashtirildi.

Bugungi kunda amaliyotga “Gospital pedagogika”, “Kasalxona maktablari tizimi”, “Kasalxona maktabi”, “Kasalxona maktabi o‘qituvchisi” kabi tushunchalar kiritilib, bu tushunchalarga alohida ta’rif berishga harakat qilinmoqda.

Shifohona maktablarining zamonaviy modeli paydo bo‘lishidan oldingi asosiy voqealarga nazar solsak, ushbu maktablarning rivojlanishidagi asosiy bosqichlarini, hozirgi holatini, faoliyat yo‘nalishlarini, jumladan, shifoxona pedagogikasi sohasidagi tadqiqot masalalarini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, 2014-yildan hozirgi kungacha to‘plangan tajribaga asoslanib, shifoxona maktablarining konseptual apparati aniqlanmoqda.

“Gospital pedagogika” predmeti darslarini tashkil qilishda interaktiv metodlarning ahamiyati.

“Gospital pedagogika” fanini o‘qitish metodlari.

O‘qitish usullari *(yunoncha — yo‘l)* — o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir qilish usuli bo‘lib, buning natijasida ta’lim mazmunida ko‘zda tutilgan bilim va ko‘nikmalarni uzatish va o‘zlashtirish sodir bo‘ladi.

Metodika — ta’lim jarayonida ma’lum bir natijaga erishishga qaratilgan vositalar va usullar tizimi.

Ta’lim jarayoni o‘quvchi va o‘qituvchining o‘zaro bog‘liq faoliyatiga asoslanadi. O‘qituvchi talabalarga ilmiy faktlar haqida ma’lumot beradi, o‘z nutqini turli misollar bilan tasvirlaydi yoki ma’lum miqdordagi ilmiy ma’lumotlardan xabardor qiladi, va talabalar mustaqil ravishda javob izlaydigan savollarni qo‘yadi.

Birinchi holda, o‘quvchilarning faoliyati reproduktiv xarakterga ega bo‘lib, ular tayyor ma’lumotni tushunadilar va uni turli darajadagi to‘liqlik bilan o‘z javoblarida takrorlaydilar. Ikkinchidan, o‘quvchilarning bilish faoliyati ijodiy xarakterga ega bo‘lib, o‘qituvchi talabalarni qo‘yilgan savollarga mustaqil ravishda javob izlashga undaydi, o‘rganilayotgan muammolar bo‘yicha dialog va muhokamani tashkil qiladi.

Talabalarni ta’lim, tarbiyalash va har tomonlama rivojlantirish muammolarini muvaffaqiyatli hal qilishga qaratilgan o‘qituvchining o‘quv faoliyati va u bilan bog‘liq bo‘lgan ta’lim jarayonining samaradorligi talabalarning kognitiv faoliyati bilan ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘lgan o‘qitish usuli sifatida qaralishi kerak. Turli metodlar va usullar yordamida talabalarning bilish faoliyati reproduktiv yoki ijodiy xususiyatga ega bo‘ladi.

Biroq, faqat talabalarning ijodiy kognitiv faoliyati o‘rganishda eng katta samara beradi deb o‘ylamaslik kerak. Birinchidan, barcha masalalarni talabalarni ijodiy bilish faoliyatiga jalb qilish yo‘li bilan o‘rganib bo‘lmaydi. Ular shunchaki ko‘plab ilmiy faktlar, tushunchalarni eslab qolishlari va ularni takrorlay olishlari kerak. Ikkinchidan, ijodiy kognitiv faoliyatni tashkil qilish uchun ko‘p vaqt talab etiladi, lekin har bir o‘quv faniga ajratilgan vaqt o‘quv rejasi bilan cheklangan.

O‘quv jarayonida multimediya vositalaridan foydalanish samarali va innovatsion yondashuv bo‘lib, o‘quv jarayonini boyitadi va talabalarga real materiallarga ehtiyoj sezmasdan ilm-fan olamiga sho‘ng‘ish uchun noyob imkoniyatlar yaratadi.

Quyida ushbu metodikaning ilmiy jihatlari haqida to‘xtalib o‘tamiz.

1. Jarayonlarni simulyatsiya qilish:

Virtual dasturlar orqali saraton kasalligi (miya shishi, leykemiya, limfomalar, yumshoq to‘qimalar–sarkomasi, neyroblastomalar, nevroblastomalar, gematologik, autoimmun, irsiy va boshqa ko‘pgina kasalliklar)ning real yaratilgan xususiyatlarining simulyatsiyalarini ko‘rish orqali kasal bolalar organizmida kechayogan kasallik jarayonlarini kuzatish va ularni o‘rganish imkonini beradi. Talabalar kasalliklarning asosiy jihatlarini o‘rganishda ushbu simulyatsiyalardan foydalanadilar va ular bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri munosabatda bo‘ladilar.

2. Tuzilmalarning vizualizatsiyasi:

Virtual dasturlar saraton va boshqa kasalliklarning zararlangan hujayralari, to‘qimalari, organ va tana tizimlarining uch o‘lchovli (3D) modellarini talabalarga taqdim etish imkonini beradi. Bu darsliklar orqali o‘rganish imkoniyati mavjud bo‘lmagan jarayonlarning tuzilmalarini batafsil o‘rganish imkoniyatini beradi.

3. Interfaol darslar va test sinovlari:

Virtual dasturlardan foydalanib, siz topshiriqlar, vazifalar va xatto virtual amaliy (seminar) mashg‘ulotlarni o‘z ichiga olgan interfaol dars

turlarini ishlab chiqishingiz mumkin. Bu talabalarga real vaqt rejimida bilimlarni o‘zlashtirish hamda o‘zlashtirgan bilim va ko‘nikmalarini test sinovlari orqali tyekshirib ko‘rish imkonini beradi.

***4. Jarayonni monitoring qilish va baholash*:**

Virtual dastur vositalari talabalarning o‘zlashtirish jarayonini kuzatish va ularni baholash imkonyatini beradi, bu o‘qituvchilarga o‘quv dasturlarini talabalarning individual ehtiyojlarini qondirish uchun moslashtirishga yordam beradi. Umuman olganda, fan mavzularini o‘rganishda virtual dasturlardan foydalanish o‘quv jarayonini boyitadi, talabalarni fanga chuqur kirib borishi uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Predmetni didaktik vositalar yordamida o‘rganish talabalarning asosiy tushunchalar va amaliy ko‘nikmalarni samarali o‘zlashtirishini ta’minlashga qaratilgan ta’lim jarayonining muhim qismidir. Didaktik vositalarga materialni o‘zlashtirishni osonlashtirishga qaratilgan turli xil o‘quv materiallari, metodlari va texnologiyalari kiradi.

Umumiy didaktik usullarda o‘qituvchining faolligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Biroq, bu usullarning nomenklaturasi talabalarning kognitiv faoliyatining mohiyatini ochib bermaydi. O‘quv predmetining o‘ziga xosligi o‘qitish uchun moslashtirilgan usullardan foydalanishni belgilaydi.

O‘qitishda talabalarning bilish faoliyati faol bo‘lishini, ular bilim va ko‘nikmalarni mustaqil egallashini, tafakkuri ham reproduktiv, ham mahsuldor bo‘lishini ta’minlash zarur.

Har qanday o‘qitish usuli reproduktiv va ijodiy ta’lim faoliyatiga, talabalarning ko‘proq yoki kamroq kognitiv mustaqilligi va faolligiga yo‘naltirilgan bo‘lishi mumkin. Muayyan darsda o‘rganilgan materialning mazmuni va o‘quv vazifalariga qarab, o‘qituvchi talabalarni o‘rganilgan materialni takrorlashga yoki qo‘yilgan savollarga ijodiy ravishda javob izlashga yo‘naltiradi.

“Gospital pedagogika”ni o‘qitishda reproduktiv yoki muammoli ma’ruza, hikoya, suhbat kabi usullardan foydalaniladi. Reproduktiv ma’ruza, hikoya, suhbat odatda tushuntirish xarakteriga ega bo‘lib, individual ilmiy faktlarni va ularning oddiy takrorlanishini tushunish va eslab qolishga qaratilgan bo‘ladi. Talabalar hikoya, ma’ruza tinglash yoki suhbatda qatnashish orqali o‘quv materialini o‘zlashtiradilar va uni ilgari olingan bilimlar tizimiga kiritadilar.

Muammoli ma’ruza, hikoya, suhbat, qoida tariqasida, tushuntirish xarakteriga ega, garchi unda eslab qolish va takrorlashni talab qiladigan haqiqiy materiallar ham mavjuddir.

“Gospital pedagogika” fanini o‘qitishda talabalar o‘quv maqsadlariga moslashtirilgan masalalarni yechishda ishtirok etadilar. Bunda o‘qituvchi muammoli vaziyat yaratadi, qarama-qarshiliklarni ochib beradi, talabalar bilimlarining kamligini aniqlaydilar, ilmiy-ommabop adabiyotlarni o‘qish orqali ularni kengaytirish zarurligini sezadilar.

Hikoya, suhbat, ekrandagi yordamchi vositalar yoki virtual dasturlar bilan ishlash, didaktik vositalar va boshqa usullardan o‘qituvchi nafaqat yangi materialni o‘rganishda, balki talabalarning bilimini tekshirishda ham foydalanadi. Shu bilan birga, javob tayyorlashda talabalarning faoliyati ham reproduktiv, ham mahsuldor bo‘lishi mumkin. Birinchi holda, talabalar o‘quv materialini o‘zgartirmasdan takrorlaydilar, ikkinchisida esa javobni dalil va asosli qilib o‘zgartiradilar.

“Gospital pedagogika” fanini o‘qitishda katta o‘rinni mustaqil ishlar egallaydi, bu o‘qituvchi tomonidan belgilab qo‘yilgan u yoki bu mustaqillik darajasi bilan ajralib turadigan talabalarning kognitiv faoliyatining ushbu turini ifodalaydi. Talabalarning mustaqil ishi turli bilim manbalaridan foydalanishga asoslangan turli didaktik vositalar bilan amalga oshiriladi: ko‘rgazmali qurollar, darsliklar, elektron qo‘llanmalar yoki virtual dasturlar va boshqalar.

Kognitiv faoliyatning tabiati va o‘qitish samaradorligi nafaqat usullar bilan, balki o‘qituvchining ushbu usullarni uslubiy texnika bilan boyitish qobiliyati bilan ham belgilanadi: ma’ruza yoki hikoya paytida o‘quv materialini taqdim etish bilan bir vaqtda. doska yoki elektron doska yordamida onkologik yoki boshqa kasalliklarning kechish jarayonini ko‘rsatish, modellarni uch o‘lchovli (3D) formatda ko‘rsatish va h.k.

Metodik usul — bu jarayonda o‘qituvchi va talabaning individual harakatlarini ifodalovchi muayyan usuldan samaraliroq foydalanish imkonini beradigan yordamchi usuldir. Ta’lim, tarbiya yoki rivojlanish funksiyasini oshirishga qaratilgan, o‘qituvchining ishiga individuallik berib, talabalarning ta’lim faoliyatini faollashtirishga imkon beradi. Metodik usulning elementlarini o‘zlashtirgan tajribali o‘qituvchilar butun dars davomida yuqori kognitiv faollikka va talabalarning o‘rganilayotgan material bo‘yicha qiziqishlariga erishadilar. Har qanday usuldan foydalanish talabaning ongiga ta’sir qilishi, munosabatlarning umume’tirof etilgan me’yorlaridan xabardor

bo‘lishiga yordam berishi va muayyan xatti-harakatlar normalarini o‘rgatishi kerak. O‘qituvchi talabaga hissiy ta’sir ko‘rsatadi, ularning qobiliyatini rivojlantiradi va kasalxona fanlari sohasidagi muvaffaqiyatlar bilan faxrlanishga davat qiladi.

Har bir darsda metodlarning barcha funksiyalarini qo‘llashni amalga oshirish mumkin emas. Ularni amalga oshirish o‘rganilayotgan materialning mazmuni va darsga qo‘yilgan aniq tarbiyaviy vazifalarga asoslanishi kerak.

U yoki bu usulni tanlash o‘quv materialining mazmuni, o‘quv jihozlarining mavjudligi va o‘quv jarayonida hal qilinishi kerak bo‘lgan aniq o‘quv vazifalari bilan belgilanadi. O‘qitishning tarbiyaviy rivojlantiruvchi funksiyalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun “Gospital pedagogika” kursi mazmunining nazariy mohiyatini, talabalarning ilmiy dunyoqarashini, intellektual va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish vazifalarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

Metod funksiyalarining xilma-xilligi o‘qituvchidan undan mohirona foydalanishni talab qiladi. Usullar talabalarni turli xil mantiqiy operatsiyalardan foydalanishga undashi kerak: aqliy tahlil va sintez, butun qismlarning o‘rtasida aloqa o‘rnatish, taqqoslash va xulosalar chiqarish. Talabalarga texnika ko‘nikmalarini o‘rgatish kerak, ularni o‘zlashtirish o‘rganilayotgan materialni yanada muvaffaqiyatli o‘zlashtirishga yordam beradi.

Deyarli har bir darsda namoyon bo‘ladigan xilma-xil bilimlar tizimi, talabalarning diqqatini va qiziqishini saqlab qolish uchun faoliyat turini o‘zgartirish zarurati hatto bitta darsda ham bir nechta usullardan foydalanishni, ularning eng samarali kombinatsiyasini bir usul boshqasi bilan eksperimental ravishda o‘rnatishni talab qiladi.

Shu bilan birga, bir darsda haddan tashqari ko‘p sonli usullarni qo‘llash bilan shug‘ullanmaslik kerak, chunki bu talabalarning e’tiborini chalg‘itishi mumkin.

Ta’lim jarayonining samaradorligi ko‘p jihatdan o‘qitish usullariga bog‘liq. Shuning uchun ma’lum bir darsni o‘tkazish uchun o‘qitish usullarini tanlashda har bir metodning imkoniyatlarini hisobga olish kerak. Turli mualliflar tomonidan quyidagi o‘qitish usullari ajratib ko‘rsatiladi: hikoya, tushuntirish, suhbat, ma’ruza, muhokama, kitob bilan ishlash, illyustratsiya, video metod, amaliy usul, test, so‘rov (turlari: og‘zaki va yozma, individual,

frontal, juftlashtirilgan), dasturlashtirilgan usul nazorati, test nazorati, insho, didaktik o‘yin va boshqalar. Bu ro‘yxat to‘liq emas.

Muayyan pedagogik vaziyatda o‘qitish usullarining samaradorligi o‘qitishning aniq maqsad va vazifalariga bog‘liq. Pedagogik kompetensiyaning eng muhim tarkibiy qismi o‘qituvchining o‘qitish usullarini to‘g‘ri tanlash va qo‘llash qobiliyatidir.

O‘qitish usullarini tanlash bir qator omillar bilan belgilanadi, jumladan:

- o‘quvchilarni o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirish maqsadlari;
- o‘rganilayotgan material mazmunining xususiyatlari;
- aniq o‘quv fanini o‘qitish metodikasining xususiyatlari;
- u yoki bu materialni o‘rganish uchun ajratilgan vaqt;
- talabalarning tayyorgarlik darajasi, ularning yosh xususiyatlari;
- o‘qituvchining pedagogik mahorat darajasi;
- o‘qitishning moddiy-texnik shartlari.

Mehnat amaliyotida o‘qitish usullari texnika va o‘quv qo‘llanmalari yordamida amalga oshiriladi, ya’ni usul o‘zining o‘ziga xos timsolida ma’lum texnika va vositalar to‘plamidir.

O‘qitish usullari (didaktik usullar) odatda usullarning elementlari, umumiy o‘qitish usulining bir qismi sifatida yagona harakatlar sifatida belgilanadi. Texnika hali usul emas, balki uning ajralmas qismidir, ammo usulni amaliy jihatdan amalga oshirishga aynan texnikalar yordamida erishiladi.

Shunday qilib, kitob bilan ishlash usulida quyidagi texnikalarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

1) ovoz chiqarib o‘qish;
2) matn rejasini tuzish;
3) o‘qilgan material asosida jadvalni to‘ldirish;
4) o‘qilgan manning mantiqiy sxemasini tuzish;
5) eslatma olish;
6) sitatalarni tanlash va boshqalar.

O‘qitish texnikasi metodni amaliy qo‘llashning alohida bosqichi sifatida qaralishi mumkin. Usulni amalga oshirish jarayonida ushbu bosqichlarning ketma-ketligi o‘quv maqsadiga olib keladi.

Turli vaziyatlarda bir xil usul turli xil texnikalar yordamida amalga oshirilishi mumkin. Masalan, bir holatda kitob bilan ishlash ovoz chiqarib o‘qish va matnning konturini tuzishni, boshqa holatda — mantiqiy diagramma

tuzish va sitatalarni tanlashni, uchinchi holatda — konspekt qilishni o‘z ichiga olishi mumkin.

Xuddi shunday usulni turli metodlarga kiritish mumkin. Shunday qilib, mantiqiy diagramma tuzish tushuntirish va illyustrativ usulning bir qismi bo‘lishi mumkin (masalan, o‘qituvchi, yangi materialni tushuntirib, doskaga diagramma chizadi) yoki tadqiqot usulining bir qismi sifatida ham qo‘llanilishi mumkin (masalan, talabalar mustaqil o‘rganayotgan materialni aks ettiruvchi diagramma tuzadilar).

O‘qitish usullari ko‘plab o‘qituvchilarning tajribasi asosida ishlab chiqilgan va o‘nlab yillar davomida takomillashtirilgan. Bugungi usullarning ko‘pchiligi asrlarga borib taqaladi. Masalan, hikoya va mashq qadimgi dunyo maktablarida allaqachon ma’lum bo‘lgan, Qadimgi Yunonistonda Sokrat suhbat usulini takomillashtirdi va o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirish va kognitiv qiziqishlarini faollashtirish uchun foydalana boshladi. Usullardan farqli o‘laroq, texnikalar individual o‘qituvchining tajribasida yaratilishi mumkin, uning individual o‘qitish uslubining o‘ziga xosligini aniqlaydi.

“Gospital pedagogika” kursi o‘qituvchining nazariy ta’limida katta ahamiyatga ega bo‘lgan, boshqa fanlarni o‘rganish uchun zarur bo‘lgan haqiqiy materiallarni o‘z ichiga oladi.

Nazariya bo‘yicha bilimlarni doimiy sinovdan o‘tkazish uchun testlar taqdim etiladi.

Dasturni o‘zlashtirish darajasiga qo‘yiladigan talablarga quyidagilar asosida erishiladi:

- ma’ruzalar va seminarlar tizimi;
- joriy nazorat vazifalarini tizimli ravishda amalga oshirish;
- o‘quv va o‘quv qurollari majmuasidan foydalanish;
- tavsiya etilgan adabiyotlar bilan tizimli ishlash.

Bilimlarni egallash ustidan nazoratning asosiy shakllari quyidagilardan iborat:

- joriy og‘zaki va yozma nazorat;
- joriy vazifalarning rejalashtirilgan bajarilishi;
- sertifikatlashtirish nazorati.

Ta’lim jarayoni ikki qismdan iborat: auditoriya mashg‘ulotlari va mustaqil ishlardan. Ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar davomida o‘qituvchi talabani kursning asosiy tushunchalari bilan tanishtiradi va mazmunini tushuntiradi.

